

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti**

**O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova,
Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva**

YOZMA ISH TURLARI: INSHO, BAYON, DIKTANT

Toshkent
“Turon zamin ziyo”
2017

UO‘K 81`367.335.1

KBK 821.2-8

Yo-25

Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant [Matn]: ilmiy / O.Madayev [va boshq.]. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – 104 b.

ISBN 978-9943-4722-5-9

Mazkur metodik qo‘llanma filolog mutaxassislar, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, talabalar, abituriyentlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda yozma ish turlari: insho, bayon, diktantning xususiyatlari, yozma nutqni rivojlantirish usullari bayon etilgan. Insho mavzusini belgilash, reja tuzish, tezis sifatida shakllantirish, epigraf tanlash, material to‘plash, insho yozish talablari, xomaki nusxa tayyorlash, insho yozish ko‘nikmalarini egallash shartlari yoritilgan. Insho, bayon, diktant yozish uchun tavsiyalar berilgan. Yozma ishlarni baholash mezonlari keltirilgan.

UO‘K 81`367.335.1

KBK 821.2-8

Mas’ul muharrir:

f.f.d., prof. Sh.Sirojiddinov

Taqrizchilar:

f.f.n., dots. B.Baxriddinova

f.f.n., dots. D. Yusupova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2017-yil 28-apreldagi 9-sonli bayonnoma)

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston mustaqilligi tufayli yuzaga kelgan imkoniyatlarni qadrlash va ulardan amalda vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida foydalanish davr talabiga aylandi. “Tabiiyki, bu bizdan barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizni atroflicha tahlil etib, kelgusi rejalarimizni aniq-ravshan belgilab olishni talab etadi”.¹ Darhaqiqat, mustaqillikning shonli yo‘li barcha jabhalarda bo‘lgani kabi, kadrlar tayyorlash jarayonida erishilgan natijalar, yutuqlarni sarhisob qilishni, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan reja-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning ma‘naviy-ma‘rifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitob mutolaasiga alohida e‘tibor qaratish ta‘kidlanadi, o‘tmish an‘analar, axloqiy-ma‘rifiy qarashlar bugunni yorituvchi mash‘al sifatida e‘tirof etiladi.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz,” – degan so‘zlari biz uchun dasturulamal vazifasini o‘tamoqda².

Mumtoz manbalar sahifasini varaqlar ekanmiz, kadrlar tayyorlash muammosiga jiddiy e‘tibor qaratilganini kuzatamiz. Buyuk mutafakkirlarimiz: Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa allomalar, jumladan, jadid pedagoglari muayyan sohani mukammal egallashga, shuning barobarida, boshqa sohalarni ham bilishga da‘vat qilishgan.

XX asr boshlariga kelib, kadrlar tayyorlash masalasiga davr muammosi sifatida qaraldi. Chunonchi Behbudiy: “Turkistonda muallim oz bo‘lib, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddir... Endi ushbu mushkul hollarni nazari e‘tiborga olub, Turkiston yoshlari muallim yetushturmoqning chorasini topmoqlari lozimdur”³, deb yozgan edi. Demak, kadrlar tayyorlash, soha mutaxassislarini yetishtirish o‘zbek

¹Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. –Т.: Ўзбекистон, 2011. 3-6.

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 14- bet.

³Маҳмудхўжа Бехбудий. Муҳтарам ёшларга мурожаат. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 1997.153-6.

xalqi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotida belgilovchi omillardan bo'lib kelgan va mustaqillik davrida yangi bosqichga ko'tarilgan dolzarb masaladir.

2016-yil 13-mayda Respublika Birinchi Prezidenti tomonidan e'lon qilingan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmonda ham o'zbek tili ravnaqini ta'minlaydigan, takomiliga xizmat qiladigan, dunyo miqyosidagi nufuzini oshiradigan, tilshunoslik sohasini rivojlantiradigan, til ta'limini takomillashtiradigan mutaxassis-kadrlar tayyorlash masalasi alohida tilga olingan: "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, mazkur yo'nalishda faoliyat olib borayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda".⁴

Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"i hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da batafsil yoritilgan. Bugungi kunda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun ta'lim jarayoni sifatiga alohida e'tibor berilmoqda. Yangi texnik vositalardan foydalanish, zamonaviy pedtexnologiyani qo'llash keng yoyilmoqda.

Shu o'rinda, bir jihatni alohida ta'kidlash o'rinlidir: ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy usullar, pedagogik vositalarni qo'llash barobarida an'anaviy ilg'or pedagogik tajribalarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Yetuk mutaxassis-kadrlar tayyorlash maqsadiga qaratilgan ta'lim sifatini oshirishda zamonning eng yangi vositalari, usullari, taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini ommalashtirish bilan bir qatorda milliy pedagogikaning davrga mos, ta'lim maqsadlariga muvofiq keluvchi tajribalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Negaki "milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani bilan faxrlanish tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat" "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etilgan.⁵

⁴Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ташкил этиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2016 йил 13 май.

⁵Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.,1997. 38-б.

Milliy pedagogikadagi asosiy tamoyillardan biri yozma nutqni shakllantirish masalasi edi. Jumladan, jadid pedagoglari yozma nutqning inson tafakkurini o‘stirishga xizmat qilishini yaxshi anglashgan. Shuning uchun maqolalari hamda darsliklarida yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga ahamiyat berishgan. O‘quvchilarga beriladigan matnlar, insholarning mazmuni, soddamurakkabligiga alohida e‘tibor qaratishgan. Matnlarni o‘quvchi yoshiga qarab saralashni, bu borada boshqa mamlakatlardagi ilg‘or pedagogik tajribalarga tayanish lozimligini ta’kidlashgan. Ayrim mamlakatlarda insho yozish mezonlari ishlab chiqilgani xususidagi ma’lumotlarni qayd etishgan: “... mushkul iboratlik uzun insholar, albatta, bola zehnini ochmay, balki fikrini(ng) yo‘q bo‘lishig‘a sabab bo‘lur. Biljumla mamoliki islomiyaning maktablarindagi bolalar uchun yengil suratda insho tayyorlanubdurki, ibtidoiyya, rushdiyya, e’tidodiyya maktab talabalarini(ng) har birig‘a muvofiq suratda insho ta’lim beriladur”.⁶

Darhaqiqat, insho yozma nutqni, fikrni o‘stirish, tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Inson qaysi kasb egasi bo‘lmasin, yuksak tafakkur sohibi bo‘lsagina, yangilik yaratadi. Yozma nutq malakalarini shakllantirish, og‘zaki nutqni takomillashtirish faqat soha doirasidagi muammo emas, balki umumta’lim jarayonidagi zururatdir. Negaki yozma va og‘zaki nutqning me’yoriy darajada shakllanishi fikrlash tezligini oshirishga, o‘quvchi tafakkur doirasini kengaytirishga yordam beradi. Yozuv bevosita qo‘l bilan amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, qo‘l harakatining miya yarim sharlariga aloqadorligi psixologik tahlillarda qayd etilgan.

Yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish maktab davridan boshlanadi. Shuning uchun har tomonlama malakali, ma’naviy barkamol, axloqan yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlashga, yozma nutq me’yorlarini o‘rgatishga maktab davridanoq e‘tibor qaratish lozim. Respublika Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov maktab ta’limiga alohida e‘tibor berish lozimligini ta’kidlaganlar. Boshlang‘ich ta’limga ahamiyat berilmaganligini eng katta kamchiliklardan biri sifatida baholaganlar: “Eski ta’lim tizimining yomon qusuri boshlang‘ich ta’limga ikkinchi darajali ish deb qarayotganimizdadir”.⁷ Ta’limning uzluksizligini ta’minlash

⁶Mahmudxoja Behbudiy. Ko‘rsatilgan manba. –T., 1997. 153-6.

⁷Mahmudxoja Behbudiy. Ko‘rsatilgan manba. –T., 1997.154-b.

lozim bo'lganidek, kadrlar tayyorlash jarayonini, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishni ham uzluksiz ravishda olib borish kerak bo'ladi. Ya'ni dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati muayyan qolipga kirgan talabani qisqa davrda har tomonlama yetuk, bilimli, tafakkur darajasi keng, yozma nutq me'yorlarini to'liq egallagan mutaxassis sifatida shakllantirish ancha mushkul. Shu sabab adabiy til me'yorlarini to'liq o'zlashtirgan, fikrini to'g'ri, xatosiz, izchil va ravon ifodalay oladigan mutaxassis-kadrlar tayyorlashni maktab o'quvchisini har tomonlama maqsadga muvofiq tarbiyalashdan boshlash kerak. Buning uchun yoshlarning ta'lim olishi, bilim darajasi, yozma topshiriqlarni bajarish tartibiga alohida e'tibor qaratish lozim. Yoshlarga texnik vositalarning ahamiyati, axborot yetkazishdagi o'rnini ta'kidlash shart emas. Bugunning ziyrak, zukko farzandi voqelikdan o'zi xulosa chiqarib olmoqda. Bugungi ta'lim jarayonida yoshlarga kitob o'qish, badiiy asarlarni mutolaa qilish, yozma nutq ko'nikmalarini egallash fikr o'stirishning asosiy vositalaridan ekanligini, tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishini, bu omillarsiz har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lish mumkin emasligini ham uqtirish lozim. Bu borada faqat nasihat bilan ish bitmaydi. Yozma nutqni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar, ilmiy va badiiy adabiyotni mutolaa qilishga yo'naltirilgan tadbirlarni bevosita ta'lim jarayonida qo'llash kerak bo'ladi. Ajdodlarimiz ta'lim-tarbiya berish davomida boshqalar hayotini, faoliyatini ibrat qilib ko'rsatish usulini qo'llashgan. Yoshlar turli mazmundagi kitob, badiiy asar, gazeta, jurnallarni mutolaa qilish jarayonida ko'p xulosalarni o'zlari chiqarib oladilar. Bu esa malakali kadrlar tayyorlashdagi ta'lim jarayoni maqsadiga erishishni yanada osonlashtiradi. Kitob mutolaasi borliq, voqea-hodisa, insoniyat, shaxs ma'naviyati, ruhiyati haqida bilim berish bilan bir qatorda yosh avlod qalbida ezgu fazilatlarni namoyon etadi, yaqinlariga, Vataniga, ona zaminga muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi, yozma ish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Mumtoz madaniy merosni tahliliy o'rganish jarayonida ularda aks etgan asosiy qarashlarning hozirda ham o'z qiymatini yo'qotmaganligi ma'lum bo'ladi. Deyarli, barcha fikr-mulohazalar – o'tmishda aytilgan bugunning gaplari. Faqat ularni anglay bilish kerak. Yoshlar kelajakka olib boruvchi yo'lning ajdodlarimiz tafakkur ziyosi bilan yo'g'rilgan sarhadlardan o'tishini aslo unutmasliklari lozim. Ajdodlar merosini, o'tmishini, ma'naviyatini, milliy

qadriyatini, o'zlikni qadrlamasdan, tarix haqidagi xotirani shakllantirmasdan turib, har tomonlama yetuk, barkamol mutaxassis kadr sifatida kamol topish mushkul. Zotan, "Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q!"

Yozma ish va topshiriqlarning har qanday ko'rinishi mumtoz asarlar mohiyatini o'zlashtirishda, milliy qadriyatlarni anglashda muhimdir. Ayniqsa, adabiy mavzudagi insholarning asosiy maqsadi o'tmish va bugunning manfaatlarini umumlashtirishga qaratilgan.

Yozma ishlarga e'tibor faqatgina milliy pedagogik tajribada emas, xorij ta'limi va baholash tizimida ham kuzatiladi. Masalan, keng yoyilgan til o'qitish dasturlari hisoblangan **IELTS**, **TOEFL** tizimlarida 60 daqiqalik umumiy mavzuda esse yoki insho yozish, 50 daqiqa mobaynida o'qiganlari hamda eshitganlari bo'yicha savollarga javob tarzida yoki o'zi bilgan mavzuni dalillar, ma'lumotlarga tayangan holda yozma tarzda asoslab berish talablari keltirilgan.

Kadrlar tayyorlash – mamlakat taraqqiyotidagi muhim masala. O'zbekiston buyuk kelajak sari intilayotgan ekan, shu kelajak egalarini – yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash masalasi ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Har tomonlama bilimli, malakali, muayyan tajribaga ega bo'lgan, nutq madaniyati talablarini to'liq o'zlashtirgan, og'zaki va yozma nutqi ravon mutaxassis-kadrlarni tayyorlashda an'anaviy milliy pedagogika hamda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasidan, eng so'nggi zamonaviy yutuqlaridan umumlashtirgan holda foydalanish maqsadga muvofiq.

Sh.Sirojiddinov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH

Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga, kommunikativ savodxonlikka o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

DTS talabiga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

- o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

- moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikr-o'ylari va his-tuyg'ularini ona tili imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

“Ona tili” o'quv fani:

- o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki, yozma shakllaridan keng va to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berishni;

- o'zbek tilining to'g'ri talaffuz, imlo va punktuatsiya qoidalarini o'zlashtirishni;

- o'zbek tilining lug'aviy imkoniyatlari aks etgan turli lug'atlardan foydalanishni;

- o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli shakllarda yetkaza olish ko'nikmalarini hosil qilishni;

- muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda ifoda etish yo'llarini;

- yosh va malaka darajasiga mos bo'lgan badiiy, ilmiy-siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazasini, shaxsiy munosabatini og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish ko'nikmasini hosil qilishni;

- moddiy borliqni o'rganish va uni tafakkur birliklarida ifodalashda, jamiyat a'zolari orasida muloqot o'rnatishda ona tili va boshqa tillarning o'ziga xos ahamiyatini his etish uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumot hamda amaliy ko'nikmalar berishni asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Yosh avlodda ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. O'quvchining o'quv

materialini o'zlashtirishi murakkab jarayon bo'lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish, qiyoslash, umumiylik va alohidalikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, qo'llash bilan bog'liq:

kuzatish – berilgan topshiriq asosida til hodisalarini tahlil qilish;

izlanish – o'ylash, xotirada tiklash, so'rash, lug'at, qomus, internet manbalaridan foydalanish asosida bilimlarni boyitish;

narsa-hodisa mohiyatini qismlar sharhi orqali yoritish – har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;

qiyoslash – tizimdagi hodisalarni o'zaro taqqoslay bilish;

umumiylikni aniqlash – hodisalarning o'xshash va umumiy tomonlarini aniqlash;

farqlarni topish – hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini ajrata bilish;

tasnif etish – tizimdagi hodisalarni o'xshashlik va farqlari asosida guruhlariga ajratish;

hukm chiqarish – hodisalar tizimi haqida umumlashma hukm, xulosa, qoida chiqara olish;

alohidalikni aniqlash – o'rganilgan hodisalarning yondosh voqelik bilan munosabatlarini aniqlash;

qo'llash – hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og'zaki ko'rinishda sharhlab, ijodiy matn tuza olish.

Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko'rinishi matn yaratishdir.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdagi mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;

b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, abstrakt-konkret, mavhum va hokazo);

d) tavsifning mavzuga muvofiqligi va mazmuniy qiymati;

e) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi;

f) imloviy (yozma) savodxonlik sifati.

Ko‘rinadiki, DTS talablariga ko‘ra o‘quvchilarda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasini hosil qilish ona tili ta’limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ona tili va adabiyot o‘quv fanlari sifatida nutq imkoniyatlarini birlashtirib, o‘quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go‘zal olamiga olib kiradi, nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo‘yoq berish, nafosat bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

YOZMA ISH TURLARI

Yozma ish atamasi ikki xil ma’noda qo‘llanadi:

1. **Yozma ish** – ilmiy xarakterdagi yozma ishlar, yozma shaklda bajariladigan nazorat turlari, topshiriqlar, ko‘chirib yozish. Nazoratning bu turi nafaqat filologiya, balki barcha sohalarga ham tegishlidir. Masalan, *fizika, matematikaga oid yozma ishlar*.

Bu tipdagi yozma ishlar **ilmiy insholar** termini bilan ham yuritiladi. Yozma ishlar maktab o‘quvchilarini ilmiy bilim asoslari bilan qurollantiradi. Ilmiy insholarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri unda ilm-fanga oid tushunchalardan keng foydalanishdir. Masalan, tilga oid ilmiy insholarda *so‘z, so‘z birikmasi, tasviriy ifoda, turg‘un birikma, ega, kesim, hol, uyushiq bo‘lak* kabi tushunchalardan keng foydalanilsa, matematikaga oid yozma ishlarida *qoldiq, ko‘paytma, tenglama, kasr, maxraj, ildiz chiqarish, bo‘lish* kabi tushunchalar qo‘llanadi.

Barcha sinflarda o‘quvchilarning yoshi va bilim saviyasini hisobga olgan holda yozma ishlardan foydalanish mumkin. 5-sinfda o‘quvchilar ona tili, matematika, tabiatshunoslik, qadimgi dunyo tarixi, musiqa, tasviriy san’at kabi fanlarni o‘rganadi, yozma ishlar ana shu o‘rganilgan mavzularga oid bo‘ladi. Bu sinfda: “Quyosh va tabiat”, “Biz matematikadan nimalarni o‘rganamiz?”, “Qo‘shiq aytish uchun nimalarga amal qilish kerak?”, “Grippning oldini olish” kabi mavzular ilmiy insho mavzusi sifatida tanlanishi mumkin.

Ilmiy xarakterdagi yozma ishlar uchun eng asosiy manba maktab darsliklari, turli ensiklopedik lug‘atlar, gazeta va jurnallarda berilgan ilmiy maqolalar, ilmiy mavzulardagi teleko‘rsatuvlar bo‘lishi mumkin.

Ilmiy xarakterdagi yozma ish ona tili, matematika, tabiatshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san’atdan olgan bilimlarni

mustahkamlashga, o'quvchilarning savodxonligi, fikrlarni aniq va izchil bayon qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Ilmiy insho o'tkazishni rejalashtirishda integrallashgan dars turi (ya'ni ona tili darsini boshqa fanlar bilan aloqadorlikda olib borish)dan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. **Yozma ish** – yozma shaklda bajarilgan ijodiy matnlar (insho, ijodiy bayon), tinglab tushunish, xotira kuchini belgilash, tafakkur darajasi va fikrni yozma tarzda bayon etish ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan (bayon), so'zma-so'z tinglash va ayni tarzda yozma nutqda aks ettirish, imlo me'yorlariga amal qilish darajasini bilishga mo'ljallangan (diktant) matnlar.

Ilmiy xarakterdagi ishlar uchun **yozma ish**, ijodiy ishlar uchun **insho** termini xoslangan.

Yozma tarzda bajariladigan *intervyu, reportaj, maqola, xabar, annotatsiya, konspekt, rasmiy ish qog'ozlari, taqriz* kabilar maqsadi, ta'lim jarayoni baholash tizimida foydalanilmasligi hamda topshiriq sifatida berilmasligi bilan yozma ish turlaridan farqlanib turadi.

Kishilarning o'z fikrlarini bayon qilish, o'zaro fikr almashish, hissiyotlarini, ma'lumotlarni ifodalash jarayoni nutqdir. Nutq og'zaki va yozma shakllarda ifoda etiladi.

Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Ichki nutq inson tafakkuridagi jarayon bo'lib, miyadagi nutq mexanizmi faoliyatining dastlabki mahsulidir. Ichki nutq fikr-o'y bilan ko'p hollarda qorishiq holda shakllanadi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun til va adabiyot ta'limi jarayonida ichki nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Diqqatni jamlash, fikr yuritish lozim bo'lgan obyektни belgilash, bayon qilinadigan asosiy fikrning mohiyatini shakllantirish ichki nutqni rivojlantirishda muhim omildir. Ona tili mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlar mazmuni ichki nutq holatida boshlanib, tashqi nutq shaklida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, insho, bayon yozishdan avvalgi fikr-mulohaza yuritish jarayoni ichki nutq namunasidir. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma shakllarga ega.

Nutqning ma'lum mavzuga bag'ishlangan parchasi matn sanaladi. Matn ham nutq shakllariga muvofiq ravishda yozma va og'zaki bo'ladi. Yozma matn ham, og'zaki nutq ham so'zlar

vositasida shakllanadi. Yozma matnda harflar, tinish belgilari bilan ish ko‘rilsa, og‘zaki nutqda tovush, tovush tembri (ovozning baland yoki pastligi), ohang, talaffuz, imo-ishoralardan ham foydalaniladi.

Yozma nutq ham, og‘zaki nutq ham ifodalanish xususiyatiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

- 1) bir shaxs nutqi (monolog) tarzida;
- 2) ikki yoki undan ortiq shaxslar nutqi (dialog) ko‘rinishida.

Monolog faqat so‘zlovchi yoki yozuvchi tilidan ifoda etiladi, so‘zlovchi yoki yozuvchi kechinmalari, kuzatishlari va mushohadalarini tasvirlashga xizmat qiladi.

Suhbat nutqi (dialog) so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashuv jarayoni – ularning o‘zaro savol-javoblariga asoslanadi.

Matn hajmi va mazmuniga ko‘ra **sodda va murakkab tarkibli** kabi turlarga ajratiladi.

Sodda tarkibli matn bir yoki bir necha gaplardan iborat bo‘ladi. Bunday matnlar xabar, maqol, matal bilan ifodalanib, hajmi jihatidan kichik bo‘lsa-da, ma’lum maqsadda shakllantiriladi.

Murakkab tarkibli matnda biror g‘oya, mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan fikr ifodalanib, uning tarkibi qismlar, boblar, paragraflardan tashkil topadi.

Matn nutqiy hodisa bo‘lib, birdan ortiq gapning mazmunan birikishidir. “*Qish. Qor yog‘yapti*” shaklidagi uch so‘zning mazmunan birikishidan tortib butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matn sanaladi. Har bir matn ma’lum bir narsa-buyum, voqea-hodisani tasvirlaydi; u haqida xabar beradi: so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi.

O‘quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlar, asosan, gap, xat boshi va muayyan kichik qismlardan iborat bo‘ladi. Bu qismlar, albatta, matn hosil qilishda ishtirok etadi va uni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ona tili ta’limi o‘quv dasturida shunday deyiladi: “Matnlar” xilma-xildir. Ularning aniq tur va ko‘rinishlari qisman darsliklarda beriladi, asosan, o‘qituvchi tomonidan belgilanadi”. Shuning uchun dastur o‘qituvchiga darslikdagi matnlarni o‘z didi, talabi, sharoitga mosi bilan almashtirish, o‘qitish jarayonini tom ma’nodagi ijodiylik va izlanuvchanlik asosida shakllantirishga imkon beradi.

“Ona tili” darsliklarida berilgan matnlarni: a) ta’limiy-ma’rifiy matnlar hamda b) ta’limiy-tarbiyaviy matnlarga ajratish mumkin.

Ta’limiy-ma’rifiy matnlar ona tilining grammatik qurilishi, lisoniy tushuncha va ta’riflar sharhiga oid matnlar bo‘lib, nazariy bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qildirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. 5-sinf darsligida berilgan “Til– ijtimoiy hodisa”, “O‘zbek tili – davlat tili”, “O‘zbek alifbosi” kabilar shunday matnlar sirasiga kiradi.

Ta’limiy-tarbiyaviy matnlar esa ham bilim berishni, ham tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Umumta’lim maktablari darsliklarida ***ma’lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matn*** ajratilgan. Ma’lumotnoma matnida bo‘lib o‘tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida shunchaki axborot beriladi, asosan, uslubiy betaraf so‘zlardan foydalaniladi. Ijodiy-tavsifiy matn voqea-hodisa, voqelikka so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bildirilgan munosabat asosida yuzaga keladi. Ma’lum voqea-hodisalarga, narsa-buyum va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, badiiy-tasviriyy vositalar, dalillar bilan ta’riflash, izohlash ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardir. Insho ijodiy-tavsifiy matn turi hisoblanadi.

O‘quvchilar tomonidan yaratiladigan matn ijodiy xarakterda bo‘ladi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning hosil qilingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llab, matn yaratishlari, berilgan mavzu asosida kichik insho yozishlari nutqiy kompetensiyani shakllantirishda ahamiyatlidir.

INSHO HAQIDA NAZARIY MA’LUMOT

O‘quvchini kasbga yo‘naltirish, muayyan sohalar haqida tasavvur va bilim hosil qilish har bir fan o‘qituvchisining burchi hisoblanadi. Yosh avlodni kasbga tayyorlovchi asosiy omil ona tili va adabiyot fanlaridagi matnlar, mashqlar va albatta, “Kim bo‘lsam ekan?”, “Men tanlagan kasb” kabi mavzulardagi dastlabki insholardir. *Insho* arabcha so‘z bo‘lib, “tashkil etish”, “yaratish”, “qurish”, “barpo qilish”, “ijod”, “bayon”, “tahrir” ma’nolarini anglatadi. Insho muallifning ma’lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turidir.

Insho muallif tomonidan ijod etiladi, yaratiladi. Insho yozishda muallifdan fikr-mulohazalarini faktik material asosida mantiqan izchil va badiiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon etish talab qilinadi.

Insho tez fursatda o'rganiladigan yoki o'zlashtiriladigan yozma ish turi emas. Insho yozish ko'nikmalariga qisqa muddatda ega bo'lish qiyin, albatta. Yaxshi, har tomonlama maqsadga muvofiq insho ko'p yillik faoliyat mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, ko'p mutolaa qilish, imlo lug'atlari, izohli lug'atlardan boxabar bo'lish, atroflicha bilimga ega bo'lish talab darajasida yoziladigan insholarga zamin yaratadi.

Insho belgilangan maqsadga ko'ra ikki xil bo'ladi: ta'limiy insholar va sinov insholari.

Ta'limiy insholar sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi. Bunday insholarda biror yozuvchi yoki shoir ijodi, asarlari mazmuni, mavzu doirasi, badiiy ahamiyatini o'zlashtirish, o'quvchida fikrlash ko'nikmalari, qaror qabul qilish tezligi, voqelikka, shaxslarga, narsa-hodisaga baho berish malakasini shakllantirish maqsadi qo'yiladi. Ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin bunday insholar bilimni aniqlashga emas, bilim berishga yo'naltiriladi.

Sinov insholari o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash hamda baholash uchun muayyan mavzular tugagandan so'ng, choraklar yoki o'quv yili oxirida nazorat ishi sifatida, davlat attestatsiyalarida, olimpiadalarda, ijtimoiy-gumanitar sohalarga doir tanlovlarda o'tkaziladi. Sinov insholari olingan bilim, ko'nikma va malakani baholashga xizmat qiladi.

Insholar mazmun-mohiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Adabiy mavzudagi insho ta'lim dasturida qayd qilingan, dars jarayonida o'tilgan mavzular asosida yoziladigan, darslar va darsliklardagi ma'lumotlarga o'quvchining munosabati, shaxsiy fikrlari ifodalanadigan, ijodiy yondashuv asosidagi yozma ishdir. Adabiy mavzudagi inshoda muayyan yozuvchi, shoirning hayoti va ijodi, qahramonlar xarakteri, fe'l-atvori, faoliyati, taqdiri tahlil qilinadi, ijodkor faoliyati, asarlariga doir umumiy ma'lumotlar bayon etiladi, badiiy asar mazmuni, g'oyasi hamda undagi qahramonlar xarakterini, taqdirini yoritishda, tahlil qilishda o'quvchining mustaqil

yondashuvi aks etadi. Ijodiy yondashuv, mustaqil fikr inshoning zarur shartlaridan biridir. Ta'lim jarayonida adabiy mavzudagi insholar keng qo'llanadi. Adabiy mavzudagi insholar matn asosidagi insholar, deb ham yuritiladi.

Adabiy mavzudagi insholardan ona tili va adabiyot darslarida keng foydalanish, reyting tizimining oraliq va yakuniy nazoratlarini insho ko'rinishida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Adabiy mavzudagi insholar o'quvchining badiiy nutqini rivojlantiradi, unga o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a singari adabiy tasvir vositalaridan foydalanishni, oddiy so'zlar bilan ma'nosi kuchaytirilgan bo'yoqdor so'zlarni farqlash va qo'llay bilishni o'rgatadi. Shuningdek, yozuvchi uslubini tushunish, asar kulminatsiyasi va yechimidagi voqea-hodisalarni anglash, asar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini keng, aniq va izchil, erkin ravishda bayon qilish imkonini beradi.

Adabiy insholardan faqat adabiyot darslarida emas, balki ona tili mashg'ulotlarida ham keng foydalaniladi. Bunday insholar yozuvchi mahoratini aniqlashga, asar qahramonlari olamiga kirishga, ularni bir-biri bilan taqqoslab, yaxshilik va yomonlikning tub mohiyatini anglashga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda ona tili qoidalarini, badiiy uslub xususiyatlarini o'zlashtirishda ahamiyatlidir. Adabiy insholar o'quvchidan badiiy nutq ko'nikmasini talab etadi. Masalan, "Ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar" mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga yaxshilikni, insonning, ijobiy, ezgu fazilatlarini ifodalovchi so'zlarning qarama-qarshi ma'nolilarini toptirish, ma'lum bir asar misolida "Yaxshi fazilatlar – inson ziynati" adabiy inshosini yozdirish mumkin bo'ladi.

Adabiy insholar badiiy adabiyot namunalari asosida yaratiladi. O'quvchilar o'rganilayotgan til hodisalari bilan bog'liq holda badiiy asarlar, ulardagi qahramonlar, bayon qilingan qiziqarli voqea-hodisalarni tahlil qiladilar, o'z munosabatlarini bildiradilar.

2. Erkin mavzudagi insho adabiyot fani dasturida qayd etilmagan, ijtimoiy hayotning muhim masalalari, milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analar, davr mafkurasi, yoshlar faoliyati bilan bog'liq axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy mavzularda yoziladi. O'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi, ijodkorlik

qobiliyatini, his-tuyg'ularini namoyon qilishga qaratilgan insholar erkin mavzudagi insholardir.⁸

Badiiy adabiyotdan yaxshi xabardor o'quvchigina erkin mavzuda qiynalmay insho yozishi mumkin. Erkin mavzudagi insholar mavzusi va materiallari hayotning turli sohalariga oid bo'lishi mumkin. Bunday nazorat turi o'quvchidan hayotni yaxshi tushunish va bilishni, voqea-hodisalar haqida yetarli, ilmiy, aniq ma'lumotga ega bo'lishni, o'z fikr-mulohazasini bayon eta olishni, o'qilgan badiiy asarlar, teleko'rsatuvlarni, kinofilmlarni, teatr namoyishlarini muhokama qilib, mustaqil xulosa chiqarishni taqozo etadi. Shuning uchun erkin mavzudagi insholar adabiy insholarga qaraganda murakkabdir. Erkin mavzudagi insho o'ziga xos kichik nasriy asar bo'lib, unda o'quvchining o'zligi ko'proq namoyon bo'ladi.

Nazoratlarda "Mening sevimli qahramonim", "Ommaviy axborot vositalariga munosabatim", "Ustoz o'g'itlari", "Vatanga sadoqat" va shu kabi erkin mavzularda insho yozish mumkin.

Adabiy va erkin mavzudagi insholar bir-biridan, avvalo, asoslaniladigan manbasi bilan farq qiladi. Adabiy insholarning manbai adabiy asarlar bo'lsa, erkin insholarning manbai serqirra hayot, o'quvchilarning kuzatishlari va taassurotlari bo'lishi mumkin.

Umumta'lim jarayonida adabiy va erkin mavzudagi insho asosida davlat imtihoni o'tkaziladi.

Har qanday matn, shu jumladan, insho ham muayyan janr xususiyatlarini namoyon qiladi. An'anaviy insho adabiy-tanqidiy maqolaning analogiyasini o'zida aks ettiradi. Insho uchun eng maqbul janrlar sifatida adabiy-tanqidiy maqola, esse, ocherk, kundalik, maktubot janri, sayohatlar e'tirof etiladi. Bularning barchasini ham adabiy, ham ommabop mavzularda yozish mumkin. Turli janrdagi insholar ustida ishlash sermulohaza, savodli o'quvchini tarbiyalaydi, tildagi ma'no nozikliklarini fahmlash, badiiy did, obrazli fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchi ijodiy yondashuvi orqali yozma ishning o'ziga xos xususiyatini yaxshiroq anglaydi. Bunday insholar nisbatan mustaqil va turli-tuman bo'ladi. Ularning mohiyatini anglash uchun insho ta'limini muayyan tartibda olib borish kerak bo'ladi. Janrning o'ziga xosligini tushuntirish, nazariy bilish; turli

⁸Darslik va qo'llanmalarda insho turlari uch guruhga ajratilgan: 1. Adabiy mavzudagi insho. 2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insho. 3. Erkin mavzudagi insho. Adabiy mavzudagi va adabiy-ijodiy mavzudagi insholar mohiyatiga ko'ra yaqin bo'lgani bois ushbu metodik qo'llanmada birlashtirib berildi.

janrdagi badiiy asar yoki adabiy tanqidchilik namunalarini o'qish va tahlil qilish; turli mualliflarning bir asarga bag'ishlangan maqolalarini taqqoslash; badiiy asar yoki adabiy tanqidning janr xususiyatlarini o'zlashtirishga yordam beruvchi, o'quvchilarning ma'lum bir janrda insho yozishiga ko'maklashuvchi namunaviy savollar tuzish; yozma ishlarni bajarish va ularni tahlil qilish asosiy vazifalar hisoblanadi.

Adabiy-tanqidiy maqola, taqriz, esse badiiy asarlarni va ularda aks ettirilgan hayot hodisalarini baholash hamda izohlashga qaratilgan adabiy tanqid janrlari hisoblanadi. Adabiy tanqid ham zamonaviy, ham mumtoz adabiyotni o'rganadi, u estetika, adabiyot nazariyasi va tarixi bilan chambarchas bog'liq. Adabiy tanqid xususiyatlari vaqt o'tishi bilan yangilanib boradi, uning maqsad va vazifalari ham o'zgaradi.

Adabiy turdagi janrlardan ayrimlari uslub xarakteriga ko'ra inshoni eslatadi. Insho o'quv jarayoni, ta'lim bosqichlari, o'qitish, ta'lim berish, baholash tizimi bilan xarakterlanadi va shu jihatlari bilan yondosh adabiy janrlardan ajralib turadi. Inshoning inshominiatyura, muhokama-insho (esse), kartina bo'yicha insho, tavsifiy insho, mulohaza-insho, tasviriy insho, kundalik, maktub, rivoyat-insho, ertak-insho kabi ko'rinishlari ham qayd etilgan.

Muhokama-insho – inshoning muhim turidir. Inshoning bu turida o'quvchilardan qiyoslash, ma'lum bir voqea-hodisaga baho berish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, o'zining haqligini isbotlash kabilar talab etiladi.

Muhokama-insho induktiv yoki deduktiv usul asosiga qurilgan bo'lishi mumkin. Induktiv usulda yaratilgan insholarda avval ilgari surilayotgan fikrni asoslashga xizmat qiladigan dalillar, isbotlar keltirilib, so'ngida umumiy xulosalar beriladi. Deduktiv usulda esa xulosadan dalil va asoslarga boriladi.

Tavsifiy insholar muhokama inshoning bir ko'rinishidir. Tavsifiy insho – voqelik, narsa-hodisa mohiyati batafsil, ko'zga tashlanadigan belgilaridan tortib eng mayda, yashirin qirralarigacha atroflicha tahlil etiladigan yozma ish turidir. Tavsifiy insholar o'quvchidan o'qilgan badiiy asar, ko'rilgan kinofilm qahramonlari haqida shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon etishni talab etadi.

Tavsifiy insho ham kirish, asosiy, xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Kirish qismida tavsif predmeti va obykti, asosi bayon etiladi.

Asosiy qismda predmet, obyektning farqli belgilarini topish: shaxslar portreti, hayot tarzi, xatti-harakatlari, fe'l-atvori, asosiy mashg'uloti, kimlar bilan muloqotda bo'lishi, jonsiz narsalarda esa o'lchami, o'ziga xos belgilari, tashqi ko'rinishi, shuningdek, asosiy farqli jihatlari, predmet, obyektning xususiyatlarini yoritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qismida narsa-hodisa, voqelikning asosiy jihatlari umumlashtiriladi.

Mulohaza-insholar. Muhokama inshoning yana bir turi mulohaza insholardir. Mulohaza inshoning maqsadi o'quvchini aytilgan fikrga ishontirish, muayyan masala haqidagi qarashlarini o'zgartirish yoki mustahkamlashdan iborat. Shu sababli mulohaza inshoning asosini aniq shakllantirilgan, tushunarli va har tomonlama asoslangan bir asosiy fikr tashkil etadi. **Mulohaza yuritish** turli dalillar bilan asosiy fikrni tushuntirib yoki isbot qilib berishdir. Odatda, mulohazalardan so'ng xulosa chiqariladi.

Mulohaza insholarda isbotlanishi talab qilingan fikr aniq bo'lishi kerak.

To'liq mulohaza insholar uch qismdan tashkil topadi. Bular:

- tezis – isbotlanishi kerak bo'lgan fikr, mulohaza;
- dalil – fikrni isbotlashga xizmat qiluvchi faktik material;
- xulosa – mohiyatan tezisning ma'lum ma'nodagi takrori, biroq umumlashma tavsiyalar bilan yangi darajaga olib chiqilgan hukm.

Mulohaza-insholarning mavzusi ham munozara shaklida bo'ladi. Masalan, "Qaysi kasb muhim?", "Sharq madaniyat beshigidir", "Dilkash (Dilmurod, Nilufar v.h.) haqmi?", "Botir (Sohib, Olim v.h.) haqiqiy do'stmi?" kabi mavzularda yoziladigan matnlar shu tipdagi insholar bo'lib, o'quvchi qo'yilgan munozarali savolga shaxsiy munosabatini bildiradi va o'z nuqtayi nazarini asoslashga intiladi. O'qituvchi insho mavzusini sinf o'quvchilarining hayotidan, gazeta va jurnallarda e'lon qilingan munozarali maqola va xabarlardan tanlashi mumkin.

Mulohaza-insho muqaddimasi o'quvchini suhbatga jalb qilish, masalaning mohiyati va muhimligini aniqlash maqsadida belgilangan qismdir. Muqaddimani kiritish ixtiyoriy hisoblanadi.

Tasviriyl insholar – turmushdagi narsa-buyumlar, hayotdagi voqea-hodisalar, insonlar, jamiki jonli va jonsiz mavjudotning muhim belgilari, xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan insholardir. Inshoning bu turi uch ko'rinishga ega: 1) oddiy tasvir; 2) ilmiy tasvir; 3) badiiy tasvir.

Oddiy tasvir – hammaga tushunarli bo'lgan ifoda shaklidir. O'quvchi narsa, buyum, voqea-hodisani oddiy so'zlar bilan, hammaga tushunarli bo'lgan shaklda bayon qiladi. Bunday inshoda tasvirlanayotgan narsa-hodisaning hamma belgilari ketma-ketlikda ko'rsatiladi, unda muallifning munosabati ifodalanmaydi hamda badiiy tasvir vositalaridan foydalanilmaydi.

Ilmiy tasvirda turmushdagi narsa-buyum, voqea-hodisalarning eng muhim belgilari aniq dalillar asosida qat'iy ravishda mantiqiy izchillikda beriladi. Masalan, **suv, paxta, quyosh** v.h.larning ilmiy tasviri kabi.

Ilmiy tasvirda aks ettirilayotgan narsa-hodisa nomi, qo'llanish doirasi, nimadan tayyorlanganligi, qanday qismlardan iboratligi, shakli, hajmi ko'rsatiladi.

Badiiy tasvirda narsa-hodisalarning hamma belgilari emas, balki muallif uchun muhim va aniq bo'lganlarigina ajratib ko'rsatiladi. Bunday tasvirda o'quvchi o'xshatish, jonlantirish kabi vositalardan, badiiy so'z va iboralardan bimalol foydalana oladi.

Tasviriyl insho o'quvchi tomonidan yaratilgan mustaqil, kichik hajmli badiiy, ijodiy asardir.

Tasviriyl inshodan kundalik, oraliq nazoratlarda unumli foydalanish o'quvchilarning nutqini o'stirish, ayniqsa, badiiy tasvir vositalarini o'rinli qo'llash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Kundalik – birinchi shaxs tilidan hikoya qilinuvchi asar bo'lib, muallif o'z hayotidagi u yoki bu hodisa haqida yozishi mumkin. Badiiy adabiyotda qahramonlarning kundalik qaydlari uchraydi, bunday o'rinlarda kundalik badiiy nasrning bir janri sifatida yuzaga chiqadi. Kundalik mavzuni tanlashda erkinligi, keng kompozitsion imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Fikr va taassurotlarni erkin ifodalash, shuningdek, qahramonning xarakterini to'la va atroflicha ochib berish, qalbidagi nozik hislarni yetkazishda ham qulaylik tug'diradi.

Kundalik janrida muallifga namunaviy eslatmalar, mavzuni shakllantirish, maqsadni aniqlash muhimdir. Kundalikda hodisalar

to'la, chuqur va obyektiv ravishda yoritiladi, dalillar izohlanadi, insonlar xarakteri, ularning xatti-harakatlari ochib beriladi; mustaqil fikr, qarashlar, taassurotlar ifodalanadi; kerakli uslub tanlanadi.

Kundalik janrida insho yozuvchilarga eslatmalar:

- insho mavzusi shakllantiriladi;
- maqsad aniqlanadi;
- o'quvchiga ma'lum informatsiya beriladi;
- o'quvchi qalbida muayyan tuyg'ularni uyg'otishga harakat qilinadi;
- yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish rejalashtiriladi;
- salbiy illatlarni bartaraf etishga yo'naltiriladi;
- faktik ma'lumotlar va voqea-hodisalar ifoda etiladi;
- voqea- hodisalar tavsiflanadi;
- bildirilgan fikr-mulohazalarga munosabat ifodalanadi.

Epistolyar janr (maktub janri) kundalik yozishmalar orqali shakllantiriladi.

Maktublar asar qahramonlariga o'z ichki olamini ochishga imkon beradi. Bundan tashqari, maktublar fikrning asosliligi, ma'lumotning to'g'riligiga, ishonchli ekanligiga, haqqoniyligiga zamin yaratadi. Maktub shakli o'zbek adabiyotida doston, romanlar va qissalarda uchraydi. Epistolyar janrda insho yozishda qahramonlar tilidan hikoya qilish maqsadga muvofiq emas, chunki bunday yondashuv matnni talqin qilishni murakkablashtiradi.

Epistolyar janrda insho yozuvchilarga eslatmalar:

- mavzu shakllantiriladi, qahramonlar, yozishmalar mualliflari aniqlanadi;
- maktub muallifi nomidan xabar beriladi, uning fikrlari, qarashlari, taassurotlari ifodalanadi;
- insho matni muayyan uslubda bayon etiladi.

Rivoyat-insho ona tili mashg'ulotlarida keng qo'llanadi. Inshoning bu turi tasviriy inshodan mazmunan bir-biriga bog'liq voqea-hodisalar haqida fikr yuritilishi bilan farq qiladi. Shuning uchun bu insho "kichik hikoya", deb ham yuritiladi.

Ertak-insho ham ona tili mashg'ulotlarida keng qo'llanadigan insho turlaridandir. Ertak-insho muallifning xayolot dunyosini tasvirlash imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan adabiy janrlarning xususiyati insho belgilarini aks ettirgani bois *insho* deb nomlangani ko'rinib turibdi.

Insho termini semantik jihatdan torayib, faqat ta'lim jarayoni va tanlovlarda o'tkaziladigan yozma ish turini ifoda etadi.

Pedagogik maqsadiga ko'ra insholar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

1. **Ta'limiy insholar.**
2. **Nazoratga qaratilgan insholar.**
3. **Ko'rik-tanlov insholari.**

Insholarning asosiy qismini **ta'limiy insholar** tashkil etadi. Bunday insholar, asosan, o'qitishga qaratilgan, o'rgatishni maqsad qilgan insholardir. Til hodisalaridan amalda foydalanishga o'rgatish, o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish kabi zarur malakalar, asosan, ta'limiy insholar orqali shakllantiriladi. Bu insholarning qoralama va oq nusxalari bo'lmaydi. Ular, odatda, o'quvchilarning mashq daftarlarida bajariladi. Shuning uchun matndagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni takomillashtirish maqsadida qabul qilingan shartli belgilardan o'quvchi o'z inshosida bema'lol foydalanishi mumkin.

Nazoratga qaratilgan insholar, odatda, katta bo'limlar o'rganilgandan keyin yoki chorak va o'quv yili so'ngida o'tkazilishi mumkin. Ular, asosan, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Shuning uchun insho mavzusi oldindan e'lon qilinmaydi. Bu insholar avval qoralama nusxada bajarilib, keyin takomillashtirilgach, oqqa ko'chiriladi. Odatda, nazorat maqsadini ko'zlagan insholarga ikki soat vaqt ajratiladi.

Nazoratga qaratilgan insholar til o'qitish amaliyotida va reyting tizimida ham katta bo'limlar, mavzular o'rganilganidan so'ng yoki chorak oxirida, ya'ni oraliq nazorat va yakuniy nazoratda o'tkaziladi. Ular, asosan, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish, sinash maqsadida tashkil qilinadi. Bunday insholar o'z mavzusiga ko'ra ilmiy, adabiy va erkin insho ko'rinishida bo'ladi.

Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar sinf yoki maktab doirasidagi ko'rik-tanlov, ma'lum bir nomdagi tanlov g'oliblarini aniqlash maqsadida, fan olimpiadalari bosqichlarida o'tkaziladi. Ona tilidan insho mavzulari dasturi oldindan e'lon qilinadi; o'quvchilar ko'rik-tanlov shartlari bilan tanishtiriladi. Shubhasiz, g'olib

o'quvchilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan bunday ko'riklar ijodiy ishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Inshoning bu turlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ta'limiy insholar ayni vaqtda nazorat uchun ham xizmat qiladi. Har qanday nazorat qilishga qaratilgan insho ta'limiy maqsadni ko'zlaydi. Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar ham ta'limiy maqsad, ham tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'ladi.

Mavzu tanlash, asosiy g'oyani belgilash, material yig'ish, reja tuzish, shu asosda to'plangan materialni saralash, fikrni muayyan izchillikda bayon qilish, yozilgan matnni qayta ishlash va takomillashtirish kabi vazifalar barcha turdagi insholar uchun xosdir.

Yuqorida tilga olingan insho turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular ustida ishlash usullari ham bir-biridan farq qiladi. Matn yaratishning ham o'ziga xos usullari, darajalari, yuzaga kelish sabablari mavjud. Tabiat tasvirini yaratish insonning tashqi qiyofasini tasvirlashdan tamomila farq qiladi. Har bir insho turining alohida o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish lozim bo'ladi.

Insho mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijod mahsuli bo'lib, o'quvchi faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi.

Inshoda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga, o'zgalarga, jamiyatga munosabati, axloqiy-ma'naviy saviyasi, mustaqil turmushga tayyorlik darajasi aks etadi. Boshqacha aytganda, insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Bu ko'zgu orqali u nafaqat o'zini ko'radi, balki boshqalarga o'zligini tanitadi, munosabatini ifoda etadi, qalb tuyg'ularini, fikr-o'ylarini, ichki kechinmalarini bayon qiladi.

Insho o'quvchining ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarashi, adabiy til me'yorlarini nutqiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini belgilovchi asosiy mezondir.

INSHO MAVZUSINI SHAKLLANTIRISH VA TANLASH

Mavzu arabcha “joylashtirilgan”, “to‘qib chiqarilgan”, “tema”, “syujet” ma’nolarini ifodalaydi. “Ilmiy tadqiqot, badiiy asar, fikr-mulohaza yuritish, suhbat, ma’ruza va sh.k. uchun tanlab olingan obyekt” tushunchasini aks ettiradi (O‘TIL, II, 517).⁹

Insho mavzusi o‘qituvchi tomonidan yoki muvofiqlashtirilgan kengash, o‘quv-uslubiy birlashma tomonidan tanlangan va muhokama qilib tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Insho mavzusini tanlashda quyidagilarga e’tibor berish lozim.

1. Adabiy mavzudagi insholarda yozuvchi, shoir faoliyatining asosiy jihatlari qamrab olinadi. Erkin mavzular esa davrning muhim masalalariga bag‘ishlangan, o‘quvchilar qalbida ezgulik tuyg‘ularini shakllantirishga, yovuzlikka, jaholatga nafrat, yaxshilikka muhabbat uyg‘otishga qaratilgan bo‘lishi talab etiladi.

2. Mavzu har qanday subyektiv yondashuvdan xoli bo‘lmog‘i kerak.

3. Mavzu o‘quvchilarning yoshiga, saviyasiga mos bo‘lishi, ularning orzu-umidlari, qiziqishlarini aks ettirishga xizmat qilishi lozim.

Insho mavzuni to‘g‘ri belgilashdan boshlanadi. To‘g‘ri tanlangan mavzu inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun tashlangan ilk qadamdir. Mavzu tanlashga o‘rgatish boshlang‘ich sinflardayoq amalga oshiriladi. Berilgan matnni bir necha mustaqil qismga ajratish, ularning har biriga sarlavha topish, bir matnga bir necha sarlavha tanlash kabi jarayonlar faqat boshlang‘ich sinflarda emas, balki keyingi bosqichlarda ham davom ettiriladi.

Inshoda yoritilgan fikrlar mavzuga muvofiq kelishi va uning mazmunini to‘la qamrab olishi lozim. Kuzning shirin-sharbat mevalari xususida fikr yuritib, uning sarlavhasini “Polizda” yoki “Qovun pishdi” deb atab bo‘lmaydi. Bu mazmunni “Kuz saxovati”, “Kuz ne’matlari” kabi sarlavhalar orqali yoritish mumkin. O‘quvchi mavzu talabini to‘g‘ri anglashi ham kerak. Masalan, insho mavzusi “Ta’til kunlarining birida” deb nomlangan bo‘lsa, o‘quvchi butun ta’til haqida, bahorgi yoki yozgi ta’til haqida fikr yurita olmaydi. Mavzu

⁹ O‘TIL - O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-V. -T., 2006-2008.

“Mening sevimli qahramonim” deb nomlangan bo‘lsa, o‘qilgan asarlardagi barcha qahramonlar haqida fikr yuritib bo‘lmasligi aniq.

Insho yoki har qanday matnning mohiyati mavzuga mos bo‘lishi lozim. Inshoda, albatta, mavzuga mos ravishda asos, ziddiyat, taqqoslash, misol, isbot bo‘lishi talab etiladi.

Insho mavzusi turli yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin. Adabiy mavzulardan tashqari tabiat tasviri, rassomlarning asarlari bo‘yicha hamda turli ijtimoiy-siyosiy, badiiy mavzularda ham yaratilishi mumkin.

Insho yozishda muayyan uslub tanlanadi (publitsistik, badiiy yoki mavzu talabi va mazmundan kelib chiqqan holda ularning birlashgan ko‘rinishidan foydalanish mumkin).

Sinov maqsadida, davlat attestatsiyalarida o‘tkaziladigan insholarda o‘quvchilarga turli variantlar tarqatiladi. Bu holat insholarning xilma-xil bo‘lishini ta‘minlaydi, ko‘chirishning oldini oladi, albatta. Lekin turli variantlar o‘quvchilar qobiliyati, iqtidorini teng baholashga monelik qiladi. Negaki kimdir erkin mavzuda, kimdir adabiy mavzudagi insholarni yaxshi yozish ko‘nikmasiga ega. Mumtoz manbalar tahliliga doir mavzularda har kim ham insho yozavermaydi. Ba‘zi o‘quvchilarga berilgan variant unga notanish bo‘lishi yoki murakkab tuyulishi mumkin. Sinovdan o‘tayotgan barcha o‘quvchilarga tanlash asosida bir xil mavzuda insho yozdirish yozma ishlarni to‘g‘ri baholashga imkon beradi.

INSHO REJASINI TUZISH VA TEZIS SIFATIDA SHAKLLANTIRISH

Insho mavzusi aniqlab olingach, mazkur mavzu asosida insho rejasi tuziladi. **Reja** – ish-faoliyatni tartibga solish, amalga oshirish rejimidir. **Reja** forscha-tojikcha “kir yoyiladigan ip”, “arqon”; “saf”, “qator” ma‘nosidagi so‘z bo‘lib, biror ishni tartibi bilan va o‘z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo‘ljal, belgili tartib, qoida, o‘lchovni bildiradi (O‘TIL, III, 369).

Tuziladigan reja insho mazmunini o‘zida to‘la-to‘kis namoyon qilib turmog‘i, izchillik asosida mavzudan chetga chiqmagan holda tuzilmog‘i dardkor.

Reja inshoning tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Yaxshi tuzilgan reja inshoning izchilligini ta‘minlaydi, o‘quvchi reja asosida

qayd etilgan fikrdan keyin nima haqida bayon qilishni aniq his qilib turadi. Insho rejasi ikki xil: sodda va murakkab ko‘rinishda bo‘ladi.

Odatda, erkin va ijodiy mavzulardagi insholar yozilayotganda yoki aniq bir yozuvchining ijodiga baho berilayotganda sodda shakldagi insho rejalaridan foydalaniladi. Bunda rejadagi har bir band qisqa va sodda gaplardan iborat bo‘ladi. Sodda shakldagi insho rejasi tuzilayotganda mavzuga har tomonlama mos keladigan materiallardan, xalq maqollaridan va ibratli gaplardan, hikmatli so‘zlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘zida insho mavzusining barcha jihatlarini yaqqol aks ettirib turgan reja namunalari insho mazmunining ixchamlashtirilgan shakllaridir. Yaxshi tuzilgan rejalar inshoning yo‘nalishi, tarkibiy qismlari, mavzuning izchilligi haqida aniq bir tasavvur beradi. Bunday tipdagi insho rejalaridagi tartib arab raqamlari bilan belgilanadi va reja bandlari oxirida nuqta qo‘yiladi.

Sodda ko‘rinishdagi rejalar

Sodda ko‘rinishdagi insho rejaları tuzilayotganda, undagi gaplar tarkibini 1), 2), 3) ... shaklida arabcha raqamlar bilan belgilash va ulardan keyin yarim qavs qo‘yish, shuningdek, ularni a), b), d) tarzida belgilash tavsiya etilmaydi. Tartibni belgilashning eng maqbul yo‘li arab raqamlarini qo‘yib, ulardan so‘ng nuqta ishlatishdir.

«Izoh ma’nosidagi so‘zlardan keyin ikki nuqta qo‘yiladi», degan qoidaga asosan **reja**dan keyin ikki nuqta qo‘yiladi. Har qanday reja umumlashtiruvchi so‘z, tarkibidagi gaplar esa rejaning izohi, uning maqsadiga yo‘naltirilgan mantiqiy davomidir.

Sodda ko‘rinishdagi reja namunalari

Mavzu: «Do‘st bilan obod uying...»

Reja:

1. “Do‘st bilan odod uying, gar bo‘lsa u vayrona ham...”.
2. Do‘st boshga kulfat tushganda bilinadi.
3. Do‘stlik rishtalarini mustahkamlovchi omillar.
4. “Do‘st bo‘lsang yonimda tur...”.

Mavzu: Mustaqillik – xalqimizning asriy orzusi

Reja:

1. Ozodlik va erk uchun kurash – ona xalqimiz jasorati.
2. Mustaqillik muborak, ona O‘zbekistonim!
3. Istiqlol va istiqbol – mushtarak tushunchalar.

Mavzu: Boburnoma – jahon memuarining nodir namunasi

Reja:

1. «Boburnoma»ning qomusiy tabiati.
2. Asardagi tarixiy joylar tasviri.
3. «Boburnoma»da shaxslar surati va siyrati tasviri.
4. Asarda moziyga aloqador faktlarning bayon etilishi.
5. «Boburnoma» matnining uslubiy xususiyatlari.

Mavzu: Muhammad Yusuf lirikasida ona – Vatan madhi

Reja:

1. Muhammad Yusuf lirikasining g‘oyaviy yo‘nalishlari haqida.
2. Muhammad Yusuf she‘rlarida go‘zal tabiat tarannumi.
3. Shoir she‘riyatida vatandoshlarimizga xos bo‘lgan sifatlar ifodasi.
4. Muhammad Yusuf ijodida milliy qadriyatlarning ulug‘lanishi.

Murakkab ko‘rinishdagi rejalar

Insho yozishda sodda ko‘rinishdagi rejalar bilan bir qatorda, mavzuning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkab ko‘rinishdagi insho rejalarini tuzish mumkin. Murakkab ko‘rinishdagi reja namunalari sodda rejalaridan o‘zining «Kirish», «Asosiy qism», «Xulosa» tarzida tarkibiy bo‘limlarga ajratilishi bilan keskin farqlanib turadi. Bundan tashqari, har bir qismning o‘zi alohida bandlarga bo‘linadi.

Reja mavzuga mos bo‘lishi va maqsadga muvofiq tuzilishi kerak. Masalan, “**Alisher Navoiy she‘riyatining badiiy xususiyatlari**” mavzusidagi insho quyidagi murakkab reja asosida yozilishi mumkin:

Reja:

I. Kirish. Alisher Navoiy lirikasining badiiy xususiyatlari.

II. Asosiy qism:

1. Alisher Navoiy gʻazallaridagi badiiy sanʼatlar.
2. Alisher Navoiy ruboiylarida badiiy tasvir.
3. Alisher Navoiy qitʼalari va tuyuqlarida majoz haqiqati.

III. Xulosa. Alisher Navoiy sheʼriyatidan olgan taassurotlarim.

Adabiy mavzudagi insholarni murakkab, erkin mavzularni sodda reja asosida yoritish maqsadga muvofiq.

Mavzu: **Boburnoma – jahon memuarining nodir namunasi**

I. Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur – mahoratli ijodkor.

II. Asosiy qism:

1. “Boburnoma” – qomusiy asar.
2. “Boburnoma”da shaxs surati va siyratining haqqoniy ifodasi.
3. “Boburnoma”da madaniy munosabatlar tavsifi.

III. Xulosa. “Boburnoma” – voqelik esdaliklar tarzida yoritilgan asar.

Bunday tipdagi reja tuzilayotganda oʻquvchilar insho mavzulariga alohida diqqat-eʼtibor bilan yondashmoqlari lozim, chunki adabiy xarakterdagi insholarning aksariyati voqealarga boy, rang-barang timsollar galereyasiga ega boʻlgan, gʻoyaviy hamda badiiy jihatdan mukammal asarlarning mazmuniga asoslangan boʻladi. Bu esa murakkab insho rejasini tuzishda oʻziga xos yondashuvni talab etadi.

Koʻrinib turibdiki, yuqoridagi insho rejalarida tinish belgilarining ishlatilishi sodda koʻrinishdagi rejalariga qaraganda qiyinroq. Murakkab rejalarda tinish belgilarining qoʻllanilishiga ham eʼtibor qilish kerak. Bunda “Reja”, “Asosiy qism”dan keyin ikki nuqta, “Kirish”, “Xulosa”dan keyin nuqta qoʻyiladi. “Asosiy qism” uch va undan ortiq, “Kirish”, “Xulosa” qismlari bir band asosida yoritiladi.

MURAKKAB KOʻRINISHDAGI REJA NAMUNALARI

Mavzu: **«Alisher Navoiy lirikasida insonparvarlik va adolatning ulugʻlanishi»**

Reja:

I. Kirish. Alisher Navoiy lirikasining umumiy tavsifi.

II. Asosiy qism:

1. Alisher Navoiy lirikasida insoniy fazilatlarning ulugʻlanishi.

2. Alisher Navoiy she'rlaridagi insonparvarlik aks etgan misralar sharhi.

3. Alisher Navoiy lirikasida adolat g'oyalari tarannumi.

III. Xulosa. Buyuk mutafakkir qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati.

Mavzu: «**Mehrobdan chayon**» romanidagi Anvar obraziga tavsif»

Reja:

I. Kirish. Abdulla Qodiriy – dastlabki o'zbek romannavisi.

II. Asosiy qism:

1. Anvar timsolida ilm-ma'rifatning ulug'lanishi.

2. Anvar – o'z so'zida sobit turadigan sadoqatli do'st.

3. Anvar timsolida vafodorlik va pokdomonlik tuyg'ularining ulug'lanishi.

4. Anvar timsoli orqali ijtimoiy tuzumdan norozilik kayfiyatlarining ifodalanishi.

III. Xulosa. Anvar obrazining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati.

Mavzu: **Abdulla Oripov she'riyati va zamonamiz**

Reja:

I. Kirish. Abdulla Oripov she'riyati haqida ma'lumot.

II. Asosiy qism:

1. Abdulla Oripov she'rlarida ona O'zbekiston go'zalliklarining ulug'lanishi.

2. Shoir she'riyatida zamondoshlarimiz obrazi.

3. Abdulla Oripov she'rlarida istiqlol mavzusining yoritilishi.

III. Xulosa. Abdulla Oripov she'riyatidagi umuminsoniy qadriyatlar.

Yuqoridagi insho rejalarining sxemasini quyidagicha ko'rsatish mumkin.

Mavzu: « _____ »

Reja:

I. Kirish. _____ .

II. Asosiy qism:

1. _____ .

2. _____ .

3. _____ .

III. Xulosa. _____ .

«Asosiy qism»dagi bandlarning tartibi 1, 2, 3 singari arab raqamlari bilan belgilanadi, ulardan keyin nuqta qo'yiladi. Bundan tashqari, insho rejaları matn mohiyatini to'laroq aks ettirishi uchun «Asosiy qism»dagi arab raqamlari bilan belgilangan har bir band o'z ichida mayda qismlarga bo'linishi mumkin. Agar bandlar yana bo'limlarga ajratilsa, raqamlar: 1), 2), 3) yoki a), b), d) kabi harfiy shakllar bilan belgilanib, ulardan keyin yarim qavs, shunga muvofiq ravishda gaplarning oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi. Oxirgi bandda kelgan gapdan keyin nuqta qo'yiladi.

Mavzu: «**Nodira ijodiga tavsif**»

Reja:

I. Kirish. Nodiraning adabiy merosi haqida qisqacha ma'lumot.

II. Asosiy qism:

1. Nodira ijodida insoniy fazilatlarning ifodalanishi.

a) shoira ijodida insoniy mehr ifodasi;

b) Nodira she'riyatida adolatning ulug'lanishi;

d) ishq-muhabbat – shoira she'rlarining asosiy mavzusi sifatida.

2. Shoira she'rlarida xalqparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi.

3. Nodira - vafodor yor va sevimli ona.

III. Xulosa. Nodira she'riyatining tarbiyaviy ahamiyati.

Sxemasi:

Mavzu: «_____»

Reja:

I. Kirish. _____.

II. Asosiy qism:

1. _____:

a) _____;

b) _____;

d) _____.

2. _____:

a) _____;

b) _____;

d) _____.

III. Xulosa. _____.

Reja bandlarining belgilanish tartibini quyidagicha modellashtirish mumkin: **I>1.>1); // a);**.

Ba'zan, o'quvchilar she'riy yo'l bilan reja tuzishga harakat qilishadi. Bunday rejalarni tuzish oson emas, albatta. Lekin har bir reja bandining she'riy tarzda berilishi aniqlikka, maqsadning to'g'ri ifodalanishiga monelik qiladi. Reja bandlaridan bir-ikkitasinigina mavzuga mos she'riy misralar orqali ifodalash mumkin.

Mavzuga mos holda tuzilgan reja insho matnini mantiqiy izchillikda bayon etishga yordam beradi, insho qismlarining mutanosibligini ta'minlaydi. Shuningdek, ortiqcha takrorlar, mavzudan chetga chiqish hollariga yo'l qo'ymaydi. Rejaning har bir bandiga javob yozishda mavzuni yoritish uchun misollar va sitatalar keltirish o'rinli bo'ladi. Sitatalar insho matnida o'rtaga tashlangan fikrlarni dalillaydi.

Xulosa qilib aytganda, insho rejasini tuzishda mavzu mohiyatini anglagan hamda o'zbek tilining imlo qoidalariga rioya qilgan holda ish tutish lozim.

Tezis yunoncha *thesis* “qoida”, “isbot” ma'nolaridagi so'z bo'lib, “ilmiy asar, maqola, ma'ruza va sh.k.dagi asosiy g'oyalarning qisqa va lo'nda bayoni”; “haqiqat ekanligi isbotlanishi lozim bo'lgan hukm, mulohaza, fikr”ni anglatuvchi birlik sifatida qayd etilgan. (O'TIL, IV, 52)

Tezis mavzuning yoki matnning asosiy mohiyatini aks ettiruvchi qisqa ifodalar bo'lib, masalaning keng yoritilishini ta'minlovchi, yo'naltiruvchi xarakterga ega bo'lgan umumlashma fikrlardir.

Tezis maqsadga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Matn mazmunini yorituvchi tezis (bunday tezislarning mohiyati “Qanday masalalar yoritilgan?” savoli mazmun-mohiyati bilan izohlanadi). Masalan, konferensiyadagi ma'ruza matnining qisqacha mazmuni shu tipdagi tezisga misol bo'ladi.

2. Matn tuzishga yo'naltiruvchi tezis (bunday tezislarning mohiyati “Qanday masalalar yoritiladi?” savoli mazmun-mohiyati bilan izohlanadi).

Insho tezisi ikkinchi turga mansub bo'lib, muallif fikrini jamlash, aniq ifodalashga, izchillik maqsadiga xizmat qiladi. Insho tezisi reja bandlari asosida shakllantiriladi. Reja bandlari insho

mazmuniga qanchalik mos bo'lsa, tezis ham shu darajada mukammal bo'ladi.

Tezislar butun insho mazmuniga yo'naltiradi, shu bilan bir qatorda yaxshi insho yozishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Fikrlar tezisi – bu inshoda siz isbotlashga urinayotgan munozarali nuqtayi nazarlardir.

Tezislarning aniq bo'lishi talab etiladi. Masalan, “O'lim ular uchun fojia emas, balki azobli hijrondan qutqarguvchi xaloskor, pirovard maqsadlari bo'lmish Yaratganning vasliga noil qiluvchi vosita edi”.

Ba'zan tezisda fikrlar borasida ma'lumot berish kerak bo'ladi va bu bilan o'quvchi maqsadga yo'naltiriladi: “Navoiy Laylining o'limi, otasining qahrini va ikki oila o'rtasidagi nizolar tasvirini keltirib, yurak va aql doim turlicha harakat qilishini namoyon qiladi”.

Demak, inshoning yuzaga kelish jarayonini quyidagicha modellashtirish mumkin: *mavzu* → *reja* → *tezis* → *matn*.

INSHOGA EPIGRAF TANLASH

Insho rejasi tuzib olingandan so'ng mavzuga har tomonlama mos keladigan muqaddima so'z (epigraf) tanlab olinadi.

Inshoning mazmuniga mos keluvchi hikmatli so'z, maqol, ibora yoki fikrlar *epigraf* deyiladi. **Epigraf** yunoncha *yepigraphe* “ustidagi”, “yozuv” ma'nosidagi so'z bo'lib, butun adabiy asar yoki asar qismining boshida berilgan va uning mazmunini ifodalaydigan sitata, ibora, maqolni ifoda etadi (O'TIL, V, 43).

Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o'ng chetiga yoziladi. Epigraf sifatida keltirilgan matndan so'ng mazmunga ko'ra nuqta, so'roq, undov belgilaridan biri qo'yiladi, muallif qavs ichida ko'rsatiladi, qavsdan keyin tinish belgisi qo'yilmaydi. Inshoda epigraf keltirilishi qat'iy talab emas, ixtiyoriydir. Inshoni epigrafsiz ham yozish mumkin. Shu bois epigrafni baholash mezonlariga kiritish ham maqsadga muvofiq emas. Shuni ham nazarda tutish lozimki, mavzuni yoritishga xizmat qiluvchi, mazmunni tavsiflovchi epigraflar asosiy mohiyatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi, muallif mahoratini namoyon qiladi.

Epigraf to'g'ri tanlanishi va maqsadga muvofiq bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga epigraf keltirilgan asarlar,

insholarning mohiyatini tushuntirishi, epigrafga yuklangan mazmun haqida tushuncha berishi lozim. Masalan, epigraf borasida yozuvchi Abdulla Qahhorning ijodkorlik mahoratini namuna sifatida keltirish kifoya. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasiga **Otning o‘limi – itning bayrami** maqoli epigraf qilib olingan. **Ot** timsoli Qobil boboni, uning o‘limi ho‘kizning o‘g‘irlanishi bilan bog‘liq baxtsizlikni, **it** timsoli Qobil bobo atrofidagi poraxo‘r, vaziyatdan unumli foydalanadigan amaldorlarni, **bayram** esa ular uchun yuzaga kelgan imkoniyatni ifoda etadi. “Bemor” hikoyasiga epigraf sifatida tanlangan **Osmon uzoq – yer qattiq** maqoli esa “ilojsizlik” tushunchasini ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Yoki Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romaniga epigraf sifatida keltirilgan **Hamal keldi – amal keldi** maqoli inson umrining gul fasli, yaxshi kunlarga, asar nomidagi *kunduzga* ishora qilganini ta’kidlash mumkin. Epigraf muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr-mulohazalarning asosiy mohiyatini aks ettiradi.

Insho mavzusidagi yetakchi g‘oya epigraf orqali ifodalanadi. Nasriy yoki she’riy asar matnidani; yozuvchining xatlari, kundaligidan; tanqidiy maqolalardan olingan fikrlarni yoki maqol, aforizm, matallarni epigraf sifatida keltirish mumkin. Masalan, “Alisher Navoiy – she’riyat mulking sultoni” mavzusiga Abdulla Oripovning

“Besh asrkim, nazmiy saroyini

Titratadi zanjirband bir sher” misralarini epigraf sifatida tanlash mumkin.

Odatda, insho yozayotgan o‘quvchi o‘zining keng mulohazaga, teran fikrga, aniq bir dunyoqarashga egaligini anglatish uchun mavzuga har tomonlama mos keladigan, unga ohangdosh tarzda jaranglovchi hikmatli so‘z hamda gaplardan, maqol va matallardan epigraf sifatida ustalik bilan foydalanadi.

Yarim yoki bir sahifalik epigraflar inshoning mazmuniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy.

Aksariyat holatlarda ular qo‘shirnoqqa olinmaydi, biroq undan so‘ng epigraf olingan manba yoki muallifning ism-familiyasi, albatta, ko‘rsatilishi shart. Masalan: «Avaz O‘tar ijodida ozodlik, ilm-fan va madaniyatning targ‘ib qilinishi», degan mavzu uchun quyidagi fikrni epigraf sifatida tanlash mumkin: **Ilm baxt keltiradi** (xalq maqoli).

Epigraf mavzuga g‘oyaviy nuqtayi nazardan mos kelmog‘i lozim. Yaxshi topib yozilgan epigraflarning o‘ziyoq o‘quvchining

qanday dunyoqarashga ega ekanligidan, uning bilim va malakalari o'lchovidan yaqqol dalolat berib turadi.

INSHOGA MATERIAL TO'PLASH

Muayyan mavzuda insho yozishdan oldin shu mavzuga oid adabiyotlarni chuqur o'rganish, ma'lumotlarni umumlashtirish, xulosalash, mavzu mohiyatini anglash talab etiladi. Inshoga material to'plash ham mavzuni to'g'ri yoritishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchi inshoga material to'plashi, tartibga solishi, uni muayyan izchillikda berishi va mavzu talabini to'g'ri anglashi lozim. Insho uchun suhbat, hikoya asosidagi taassurotlar, o'qilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari va kinofilmlar, shaxsiy kuzatish va tajribalar, kundalik hayot voqealari boy material bo'lib xizmat qiladi.

Har bir o'quvchi borliqni, undagi narsa-buyum, voqea-hodisalarni, tevarak-atrofni, odamlarni, badiiy asar qahramonlarini o'z nigohi bilan ko'radi. Demak har bir o'quvchi inshoga o'zicha material to'playdi. Insho uchun asosiy material bu, avvalo, hayotning o'zi, uning kitoblardagi, san'atdagi ifodasidir. Shuning uchun har bir o'quvchida kuzatuvchanlik xususiyati to'la shakllangan bo'lishi lozim. Kuzatish bevosita o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

O'quvchi insho yozish uchun borliqni kuzatar ekan, nimalar haqida fikr yuritish lozimligini o'ylaydi va shunga muvofiq keladigan materiallarni yig'adi. O'quvchiga o'zi o'qigan, kuzatgan, bilgan narsalar yoki voqea-hodisalar xususida yozish ancha oson kechadi.

Insho uchun material to'plashda manba muhim ahamiyatga ega.

Masalan, rasm asosida material to'plash borliqni kuzatish yoki badiiy asar asosida material to'plashdan farq qiladi. Rasm asosida material to'playotganda ko'proq rassomning maqsadi, unda tasvirlangan narsa, voqea-hodisalar, ranglarning tanlanishi, tasvirning diqqatga sazovor tomonlari va kamchiliklari singarilarga ko'proq e'tibor qaratilsa, badiiy asar asosida material to'playotganda yozuvchining maqsadi, asarda ishtirok etgan shaxslar, yozuvchi yoki shoirning obraz yaratish mahorati, asar mazmunidan chiqariladigan xulosa kabilar markaziy o'rinni egallaydi.

To'plangan materialni tartibga solish va uni muayyan izchillikda bera olish ham o'quvchi uchun o'ta zarur malakalardan biri

sanaladi. Tartibga solish, avvalo, to‘plangan materialni saralab, uning ichidan yoritilayotgan mavzu uchun zarurini ajratish, ularni mantiqiy izchillikda joylashtirish demakdir. Bu ishda o‘quvchiga puxta o‘ylab tuzilgan reja yaxshi yordam beradi.

INSHO YOZISH TALABLARI

Ta’kidlanganidek, insho yozish ko‘nikmalarini egallashga boshlang‘ich ta’lim jarayonidan e’tibor berish kerak. Talab darajasidagi insholarni shakllantirishning bir qator omillari keltirilgan:

1. O‘quvchilarning adabiyot fani asoslarini o‘zlashtirish manbalaridan hisoblangan darslik.

2. Mazkur darslikdagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazish yo‘llarini ko‘rsatuvchi metodik qo‘llanmalar.

3. O‘quvchilarga fan asoslarini tushuntiruvchi o‘qituvchi.

4. Bevosita o‘quvchilarning o‘zlari. Insholardagi o‘xshashliklarning ko‘pligi, bir xil quyma fikrlarning takrorlanishi, mustaqil yondashuv kamligi shu omillarga amal qilmaslik natijasi ekanligi ta’kidlangan: “Bu to‘rt omilning birortasi talab darajasida bo‘lmasa, o‘qish-o‘qitish jarayonida nomuvofiqlik vujudga keladi. Ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish mushkullashadi. Vaholanki, hozirgi kunda na maktab darsligi, na metodik qo‘llanmalarimiz, na o‘quvchilarning adabiyot darslariga bo‘lgan qiziqishlarini qoniqarli, deb bo‘lmaydi. Hatto o‘qituvchilar ham o‘z vazifalariga mas’uliyat bilan qaramoqdalar, deyish qiyin”.¹⁰ Afsuski, o‘n olti yil oldin aytilgan bu fikrlar hozirgi voqelik uchun ham begona emas.

Inshoda o‘quvchining ona tili va adabiyotdan olgan bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyati, yozma nutq malakalari to‘la namoyon bo‘ladi.

Og‘zaki nutq tovushlar vositasida ifoda etiladigan nutq bo‘lib, ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Og‘zaki nutqda ko‘proq sodda gaplardan foydalaniladi. O‘quvchi tinglovchiga axborot beradi, ma’lumot uzatadi, his-hayajoni, munosabatini ifodalaydi.

Yozma nutq harf va so‘zlarning ma’lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzatslar,

¹⁰ Мадаев О. Иншо қандай ёзилади? Ўрта махсус ўқув юртларининг ўқитувчилари учун методик қўланма.-Т.:Ўқитувчи,1991.-Б.3.

paragraflar va gaplar orqali fikrni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilishdir. Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham monologik, dialogik va polilogik shakllarga ega.

Monologik nutq bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi bo‘lib, ma’lumot uzatish, xabar berish, o‘qilganni qayta so‘zlab berish shaklida namoyon bo‘ladi. Insho matni monologik nutq tarzida namoyon bo‘ladi.

Yozma nutq ustida ishlash og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayondir. Bunda o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurish, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalash, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarish talab etiladi. Yozma nutq imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi.

Yozma nutq tekshiriladi, tuzatiladi, takomillashtiriladi, bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. Yozma nutqdagi imlo va tinish belgilari ustida ishlash matn mazmuni ustida ishlash bilan yaxlit birlik hosil qiladi.

Yozma nutqqa qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi.

Nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash. **Nutq vaziyati** deganda nutq yaratilayotgan paytda so‘zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Nutq vaziyati muloqot jarayonidagi narsa-buyum, harakat-holat, muloqot ishtirokchilarining bilim saviyasi, kasb-kori, so‘zlovchining maqsadi va imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Turli makonlarda bo‘lgan so‘zlovchi va tinglovchi yozma nutq (xat, maktub) vositasida fikr almashishi mumkin.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so‘zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir. Xalqimiz qadimdan bunga juda katta e’tibor bergan. Shuning uchun “So‘zni aytgin uqqanga” maqolida nutqni tinglovchilarga tushunarli qilib bayon etish zaruriyati ta’kidlangan. Alisher Navoiyning “Boqma so‘zchi holiga, boq so‘z holiga”, “Kim aytganiga emas, nima haqida

aytilganiga e'tibor ber" mazmunidagi aforizmlari ham shunga da'vat qiladi.

Mazmundorlik o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablardan biridir. O'quvchining shaxsiy kuzatishi, taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritilgan fikrigina o'zgalar diqqatini tortadi. Mazmunsiz fikr na shaxsning o'ziga, na o'zgalarga yoqadi.

Badiiylilik. O'quvchi nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab matnning badiiyligini ta'minlashdir. O'zbek tili leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan unumli foydalanishda, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, aforizmlardan, ko'chirmalardan, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag'a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so'roqlardan unumli tarzda istifoda etishda namoyon bo'ladi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri **fikrning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil** bo'lishidir.

Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil tartiblash, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytariq fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Nutq mantiqiy fikrlash mahsulidir. U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog'langan.

Nutqning mantiqan to'g'riligi fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog'langanligi, mavzudan chetga chiqmaslik, mazmunda mantiqiy ziddiyatlar va g'aliz jumlar bo'lmasligini, hukm va xulosalar asosli, ishonarli bo'lishini talab etadi.

Nutqning aniqligi faqat narsa, voqea-hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa voqea-hodisa uchun xos bo'lgan belgilarni aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni tanlashdan ham iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog'langan.

Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilishi ham unga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. O'quvchi so'z, so'z birikmasi

va gaplarni bir-biriga bog‘lash, kelishik va egalik qo‘shimchalarini o‘rinli qo‘llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Nutqqa qo‘yiladigan yana bir muhim talab uning **soddaligi va sofligidir**. Sodda nutq, avvalo, tushunarli bo‘ladi. Nutqning tushunarli bo‘lishi, bir tomondan, fikrni qisqa, aniq bayon qilish, tushunarli bo‘lmagan g‘aliz jumalardan saqlanishda namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liqdir. Demak, o‘quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilishi lozim.

Nutqning sofligi, avvalo, uning tozaligi demakdir. Ma’lumki, o‘quvchilar nutqida har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlar, o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lmagan so‘zlar ko‘p uchraydi. Nutqni bunday so‘zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish muhimdir.

Insho o‘quvchini ijod qilishga, fikr yuritishga undashi, aqliy mehnatga qiziqish uyg‘otishi zarur. Shunga ko‘ra, o‘quvchining yozgan ijodiy ishi - inshoga bir qator talablar qo‘yiladi. Insho yozishdagi asosiy talablar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Dastavval, insho husnixat bilan bitilishi lozim. Bunda harflarning aniq va to‘g‘ri yozilishi talab etiladi.

2. Insho matni mavzuga mos reja asosida bayon qilinishi kerak. Insholarda rejaning mavzuga mos emasligi, ayrim hollarda mazmunning rejaga muvofiq emasligi kuzatiladi. Sinov insholarida ko‘p kuzatiladigan bir holat: o‘quvchi qo‘yilgan balldan norozi bo‘lib, apellyatsiyaga ariza yozadi, hajm jihatidan talab darajasida, xatosiz insho yozganini ma’lum qiladi. Masalan, *“Xamsachilik an’anasi”* mavzusidagi inshoga o‘quvchi quyidagicha reja tuzgan:

Reja:

1. Alisher Navoiy – g‘azal mulkning sultoni.
2. Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni.
3. “Xamsa” dostonlarining g‘oyaviy-badiiy mazmuni.
4. Xulosa.

Rejada xamsachilik an’anasi emas, Alisher Navoiy “Xamsa”si haqida so‘z borgan. Umumlashtiruvchi xarakterdagi mavzu o‘rnida xususiy mavzu yoritilgan. Reja sodda bo‘lsa-da, xulosa qismi keltirilgan. Bunga ham mayli, deydigan bo‘lsak, unga muvofiq tarzda kirish qismi ham keltirilishi kerak edi. Umuman, kirish va xulosa qismlari sodda reja bandlarida keltirilmagani ma’qul. Lekin

o'quvchining inshosi mazmunida bu qismlardan foydalanishi ijobiy ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, adabiy mavzudagi insholarning murakkab reja asosida yozilishi maqsadga muvofiq.

Ba'zi hollarda o'quvchi inshoni rejaning har bir bandiga javob tarzida raqamlar qo'ygan holda shakllantiradi. Bu o'quvchining oddiy insho yozishdagi oddiy talabni ham bilmasligini ko'rsatadi. O'z navbatida, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining e'tiborsizligini ham namoyon qiladi. Negaki o'quvchi umumta'lim partasidan hech bo'lmaganda insho yozish texnikasini o'rganib chiqishi kerak. O'qituvchi, albatta, inshoning reja bandlariga muvofiqligi raqamlar bilan emas, abzaslar bilan belgilanishini uqtirishi lozim.

Bir qator insholarda rejaning to'g'ri yoritilishiga amal qilinmaydi. Insho boshidan oxirigacha rejaning birinchi bandiga bag'ishlanadi. Rejaning qolgan bandlari yoritilmay qoladi. Ayrim insholarda esa reja bandlarini yoritishda izchillikka amal qilinmaydi. Reja bandlari yoki aralash holatda, yoki o'rnini almashtirgan holda bayon etiladi. Rejaning to'g'ri tuzilishi maqsadning to'g'ri qo'yilishi, mazmunning mavzuga mos tarzda ifodalanishini ta'minlaydi.

3. Insho yozma ijodiy ish sifatida matnning asosiy belgisi bo'lgan mazmuniy butunlikka ega bo'lishi darkor. Insho matnining o'zaro bog'liqligi, izchilligi hamda mantiqiyligini ta'minlash asosiy o'rin tutadi. Buning uchun, dastlab, qoralamada inshoning rejasini tuzish, shu rejaga mos matn yaratish va inshoni yozib tugatmaguncha, oqqa ko'chirmaslik tavsiya etiladi.

4. Inshoga qo'yiladigan asosiy talablardan biri – uslubiy birlik va ifodalilikdir. Bunga erishish uchun badiiy uslub talablariga amal qilish lozim. O'quvchi inshosiga chinakam ilmiy, ommabop va badiiy asarlar kabi qat'iy talab qo'yilmasa-da, matn adabiy me'yorlarga muvofiqlik nuqtayi nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

5. Fikrni ifodalash uchun so'zlarni aniq tanlash, jumlar soddaligi talab qilinadi. Inshoni yozishda o'quvchidagi yaqqol tasavvur, ma'lum bir tuyg'ular ifodasi hamda emotsionallik, faktik ma'lumotlarni keltirishdagi aniqlik muhim ahamiyatga ega.

6. Insho hajm jihatidan ham talab darajasida bo'lishi kerak. Odatda, insho o'rtacha 5-7 sahifa hajmida yoziladi. O'ta ixcham shakllarda yozilgan yoki mazmuni mavzuga aloqador bo'lmagan fikrlar bilan to'ldirilib yuborilgan katta hajmdagi insholar salbiy baholanadi.

7. Insho matnini mazmuniy qismlariga muvofiq ravishda abzaslarga ajratish va xat boshidan yozish talab etiladi.

Inshoda mavzuga doir masalalar mazmun-mohiyatini insho strukturasiga mos holda ochish vazifasi qo'yiladi. To'g'ri shakllantirilgan insho uch muhim – kirish, asosiy, xulosa qismlaridan tashkil topadi.

Buni foiz nuqtayi nazaridan quyidagicha ko'rsatish o'rinlidir.

Kirish	Asosiy qism	Xulosa
10—15%	70—80%	10—15%

Foiz nuqtayi nazaridan inshodagi qismlar o'rtasida nomuvofiqliklar uchrasa, xususan, kirish va xulosa qismi kengaytirilib yuborilgan bo'lsa-yu, asosiy qism hajmi kam bo'lib qolgan bo'lsa, bu holat inshoning mazmuniga jiddiy darajada putur yetkazishi mumkin. Inshoni baholayotganda, albatta, bular ham hisobga olinadi.

Kirish qismida o'quvchi insho mavzusiga oid dastlabki mulohazalarini bayon etadi. Odatda, inshoning «**Kirish**» qismida yozuvchining hayoti va ijodi bo'yicha umumiy, qisqa va aniq fikrlarni bitish maqsadga muvofiqdir, shuningdek, bu qismda ma'lum bir asarning yaratilish tarixi yoki g'oyaviy yo'nalishlari haqida ham yozish mumkin. Mavzuning dolzarbligi, uni izohlash, mavzuga murojaat qilishdan maqsad shu qismda aks etadi. Masalan, "Ona yurt tabiati" mavzusidagi inshoning kirish qismida ona tabiatning diqqatga sazovor jihatlari va ona yurt tabiatining go'zalligini asrab-avaylash masalasining dolzarbligi dalillar asosida yoritiladi.

«**Asosiy qism**» – inshoning eng muhim qismidir. Bu qismda mavzu mohiyati ochib beriladi, inshoning mazmuni bayon etiladi. "Ona yurt tabiati" mavzusidagi inshoning asosiy qismida tabiatning sehrli jilvalari, badiiy adabiyotdagi talqini haqida so'z yuritiladi. O'quvchi oddiy bayon yoki hikoya qilishdan qochib, tabiat go'zalligidan olingan eng yorqin taassurotlarini ta'sirchan ifoda etishi lozim bo'ladi. Tasavvurlarini yanada yaqqolroq aks ettirish uchun tabiatning so'lim, mo'jizakor go'shalariga xayolan sayr uyushtirishi, ko'z o'ngidagi voqelikni tavsiflashi, tabiatning inson ruhiyatiga ta'sirini, yil fasllarining inson hayotidagi ahamiyatini yoritishi talab etiladi.

Inshodagi «**Asosiy qism**» ishning butun mazmunini, g'oyaviy yo'nalishlarini, o'quvchilarning dunyoqarashini, fikrlash doirasini o'zida yaqqol ifodalab turuvchi bo'lim sanaladi.

Asosiy matnda o'quvchining ma'lum bir insho mavzusi yuzasidan mulohazalari, fikrlari o'z aksini topmog'i darkor bo'ladi, shuning uchun ham insho yozayotgan shaxslarga o'zlari uchun aniq bo'lmagan, mavhum mavzular bo'yicha yozma ish yozish tavsiya etilmaydi. Shunisi qiziqki, aksariyat o'quvchilar adabiyot tarixida muhim o'rin tutgan mashhur asarlarni o'qimasdan turib ham ulardagi timsollar yoki asarning mazmuni haqida insho yozishga kirishaveradilar. Natijada ular asar mazmun-mohiyatini yaxshi anglamaganliklari uchun ko'plab chalkashliklarga, noaniqliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday salbiy holatlarga duch kelmaslik uchun o'quvchilar, birinchi navbatda, darsliklardagi materiallardan yaxshi xabardor bo'lishlari lozim. Shundagina o'quvchilar inshoning asosiy qismida mavzu yuzasidan o'zlarida hosil qilingan bilim va ko'nikmalarni qiynalmasdan, batafsil bayon qila oladilar.

Xulosa qismida ijodiy ishning natijasi aks etadi. Insho mavzusi bo'yicha xulosalar chiqariladi. Xulosa qismi qisqa, lekin asosli bo'lishi lozim. Insho matnini aniq, ravshan va ishonchli tarzda yakunlash talab etiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan "Ona yurt tabiati" mavzusidagi inshoning xulosa qismida ona yurt tabiatining asosiy xususiyatlari qayd etiladi, tabiatning inson hayotidagi qiymati ta'kidlanadi. Inshoning mazkur qismida o'quvchining insho mavzusi bo'yicha umumiy xulosalari, mazmunning hozirgi davr bilan bog'liq jihatlari, asarning tarbiyaviy ahamiyati, timsollarning zamondoshlarimiz uchun namunaviy tomonlari haqida fikr yuritiladi.

Yozuvchining ijodi bo'yicha fikr va mulohazalar bildirilayotganda, timsollarga tavsif berilayotganda shoshma-shosharlik bilan ish tutish, chala fikrlarni bayon etish yaramaydi. Aytilayotgan fikrlar she'riy va nasriy parchalar bilan asoslangan taqdirdagina insho mazmuni risoladagidek bo'lishi mumkin.

Har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash, og'zaki so'zlashuv uslubiga va shevaga xos so'zlardan qochish, adabiy til me'yorlariga rioya qilish inshoning qimmatini oshiradi.

Yozilayotgan har bir gapda o'quvchining ijodkorligi, mustaqil fikrlashi barq urib turmog'i kerak.

Xullas, insho yozish o'quvchidan, birinchi navbatda, bilim va malaka, e'tibor, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlikni talab qiladi.

8. Insho matni imlo qoidalariga muvofiq holda aks ettirilishi talab etiladi. Yozma ish adabiy til me'yorlariga asosan shakllantiriladi.

Imlo qoidalariga, uslubiy me'yorlarga amal qilinmagan hollarda matnda xatolarga yo'l qo'yiladi. Xatolarning quyidagi turlari bor: *imlo xatolari*, *punktuatsion xatolar*, *uslubiy xatolar*, *mantiqiy xatolar*.

Imlo xatolari – kirill va lotin alifbosi asosidagi yozuv qoidalarini farqlamaslik, so'zlarni yozma tarzda ifodalashda, qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yozishda, tutuq belgisini qo'llashda yo'l qo'yiladigan xatolar.

Inshoda alifbodan va alifbo asosidagi imlo qoidalaridan foydalanish tartibiga rioya qilish lozim. Hozirda ikki xil yozuvdan foydalanilmoqda. Bu yozuvlarni ifoda etishda imlo qoidalarini qorishtirib yubormaslik kerak. Kirill yozuvi asosidagi «O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalarini» 1956-yilda O'zbekiston Oliy Kengashining Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, 72 paragrafdan iborat.

Davriy nashrlarda, reklama, e'lonlar matnida kirill va lotin alifbosi imlo qoidalarini farqlamaslik hollari kuzatilmoqda. Masalan, *апрел, факультет, альбом* yoki *ob'ekt*, Yu.Hakimov kabi imlo xatolari ko'p uchraydi. O'rni kelganda shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, ayrim gazeta va jurnallar tahririyati, nashriyotlardagi mutaxassislar davr talablaridan kelib chiqqan holda ko'plab rus-baynalmilal so'zlarini shakliy yozuv qoidasi asosida emas, fonetik tamoyilga ko'ra, qanday aytilsa, yozuvda shunday shaklda ifodalashmoqda. Bundan tashqari, nomlarning – atamalarning ishlatilishida xilma-xilliklar kuzatilmoqda. Bunday paytlarda o'quvchilarda, qaysi biri to'g'ri: «*Klassik adabiyotmi, mumtoz adabiyotmi?*», «*Samolyot deb yozsak to'g'ri bo'ladimi yoki tayyora?*», «*Internatsional o'rniga baynalmilalni qo'llasak, tog'rimi?*» degan qator savollar paydo bo'lishi tabiiy.

Tilimiz uchun qayg'urayotgan, uning mavqeyi uchun jon kuydirayotgan hamyurtlarimizning til borasidagi har qanday xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash kerak. Lekin ular tomonidan tavsiya qilinayotgan holatlar hali mutaxassislar tomonidan imlo qoidalariga muvofiq ravishda qonunlashtirib berilganicha yo'q. Shuning uchun ham o'quvchilar matbuotda yo'l qo'yilayotgan nuqsonlarni takrorlamasliklari, o'z insholarida hozirgi imlo qoidalariga asoslanishlari lozim.

1940-yil 8-may kuni qabul qilingan farmonga ko'ra arman, gruzin, Boltiqbo'yi aholisidan tashqari bir qator xalqlar rus (kirill)

yozuvi asosidagi alifboga o'tdilar. 1940-yildan boshlab amaldagi rus grafikasiga o'zbek tiliga xos **o', q, g', h** harflari kiritildi.

Rus grafikasi asosidagi o'zbek alifbosida o'ttiz uchta harf va ikkita maxsus belgi bor. O'zbek yozuviga rus tiliga xos **ы, и** harflaridan tashqari barcha harflar qabul qilingan. **III** tovushi o'zlashgan so'zlar imlosida **иу** bilan, **ы** tovushi **i** bilan ifodalanadi.¹¹

Oo harfi ham ikki vazifani bajarib kelmoqda. Bir tomondan, o'zbek tiliga xos, lablanmagan, keng, til orqa **a (o)** fonemasini ifodalasa, ikkinchi tomondan, rus-baynalmilal so'zlardagi lablangan, til o'rta **o (o')** fonemasini aks ettiradi.

O'zbek shevalarining aksariyatida unlilar soni sakkiz-to'qqiz atrofida. Shunga qaramasdan, o'zbek alifbosida unlilar olti harf bilan ifodalanadi.

Turkiy tillarning asosiy qismi uchun xos bo'lgan uyg'unlashuv qonuniyati (singarmonizm) so'zda faqat old qator unlilari yoki orqa qator unlilarining kelishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi o'zbek tilida umumturkiy [o] va [ö] unli tovushlari bir [o] harfi bilan ifodalanadi, [u] i [ü] unlilari - [u] bilan, a [ı] i [i] unlilari - [i] harfi bilan beriladi.

Unlilar singarmonizmi elementlari qipchoq shevalaridagina saqlanib qolgan. Bu, asosan, ko'pgina hollarda umumturkiy [a] ning [o]ga o'tishi bilan belgilanadi.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi. Ma'lumki, yozuv masalasi xalqning, millatning ma'naviy madaniyati hisoblanadi. Yozuv almashuvi ham davr taqozosi tufayli yuz beradi.

O'zgargan shakldagi lotin alifbosiga qaytish tilni, uning tabiiy holatini saqlash va rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan. Bu harakat millatning o'zligini asrash va rivojlantirish demakdir, zero, til millat mavjudligining birinchi shartidir.

Hozirgi o'zbek alifbosi lotin yozuviga asoslanganligi tufayli *lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi* deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasi (1993- yil 2-sentabr) "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" Qonun qabul qildi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish dunyo fani va texnikasiga

¹¹Ma'lum davrlarda *помещик, ямщик, мецан* kabi sanoqli so'zlardagi *иу* ifodasi uchun *иу* harfiy birikmasi olingan edi: *помещчик, ямщик, мецчан*. Lotin alifbosida bu tovush *shsh* tarzda ifodalanishi qoidalashtirildi: *meshshan*. Bu holat so'zning talaffuzi va imlosida ham nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi. Hozirgi vaqtda mazkur tovushni ifodalashga, deyarli, hojat yo'q.

yaqinlashish, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini to'laroq va aniqroq ifodalash maqsadida amalga oshirildi. "Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940- yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi".¹² Mazkur qonunga muvofiq lotin alifbosi o'ttiz bitta harf va bitta tutuq belgisi (apostrof)dan iborat, deb belgilandi. Qonunning 2-moddasida lotin yozuvi asosidagi o'zbek yozuvini joriy etish bilan birga O'zbekiston xalqining milliy iftixori bo'lmish bebaho ma'naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirilitsani o'rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinishi ta'kidlandi.

1995- yilning 6- mayida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra:

1) 1-moddadagi «31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof) dan» so'zlari «26 harf va uchta harflar birikmasidan» so'zlari bilan almashtirildi;

2) *Ss, Jj* harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarildi;

3) *Ō ō* harfi *O'o'* shaklida, *Ğ ğ* harfi *G'g'* shaklida, *Ş ş* harfi *Shsh* shaklida, *Ç ç* harfi *Chch* shaklida, *Ñ ñ* harfi *Ngng* shaklida, *Q* harf belgisi *q* shaklida ifodalandi;

4) *Aa, Ii, Gg, G'g', Qq, O'o', Zz* harflari va *Ch ch* harflar birikmasining yozma shakli tegishli tarzda ifodalandi.

Yangi o'zbek alifbosi amaldagi kirill alifbosidan harflar tartibi, ayrim harflarning o'zgartirilgani bilan ham farqlanadi. Kirill alifbosidagi yo-lashgan unlilar (*е, ё, ю, я*) quyidagicha ifodalanadi:

kirill alifbosidagi yo-lashgan unlilar tovush ifodalashiga ko'ra ikkita harf bilan ifodalanadi:

е → *ye*: *ел* –*yel*, *елкан* –*yelkan*;

е → *e* (bu unli bir harf bilan ham ifoda etilishi ham mumkin):
келин –*kelin*, *теп* –*ter*;

ё → *yo*: *ёрқин* –*yorqin*, *ёш* –*yosh*

¹² Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey o'quvchilari uchun darslik.-T.,2013

ю→ **yu**: юлдуз –*yulduz*, ютук –*yutuq*;

я →**ya**: яшил –*yashil*, яхши –*yaxshi*;

yo-lashgan unlilarning bosh shakli imlosidagi xatolar ko‘p kuzatiladi. Ё.Жумаев, Ю.Эрматова kabi ism-shariflar lotin yozuvida **Yo**. *Jumayev*, **Yu**. *Ermatova* tarzida xato yozilmoqda (aslida: **Y**. *Jumayev*, **Y**. *Ermatova* tarzida yozilishi to‘g‘ri).

Kirill alifbosidagi «**u**» harfi quyidagicha ifodalanadi:

so‘z boshi, oxirida, so‘z o‘rtasida (undoshdan keyin) **s** harfi bilan aks ettiriladi: цирк–*sirk*, центнер–*sentner*, концерт–*konsert*, акцент –*aksent*, абзац–*abzas*, шприц–*shpris*, кварц–*kvars*.

So‘z o‘rtasida unli tovushdan keyin **ts** yoziladi: лицей–*litsey*, милиция–*militsiya*, конституция – *konstitutsiya*.

Rus-baynalmilal so‘zlaridagi **ъ** (ayirish), **ь** (yumshatish) belgilari tovush ifodalamaydi.

Yumshoqlik (**ь**) belgisi yangi o‘zbek alifbosi asosidagi yozuvda tushirib qoldiriladi: альбом–***albom***, июнь –***iyun***, рельс–***rels***. Faqat ayrim so‘zlar imlosida **ь** yumshatish belgisi **y** ga almashtiriladi: почтальон – *pochtalyon*, батальон – *batalyon*. **ъ** (belgisi) tushiriladi va undan keyingi **yo**-lashgan unlining so‘z boshidagi shakli yoziladi: субъект–*subyekt*, объект–*obyekt*.

Kirill alifbosi asosidagi yozuvda arabcha so‘zlarda uchraydigan **ъ** belgisi o‘rnida tutuq belgisi yoziladi. Tutuq belgisi rus-baynalmilal so‘zlaridagi **ъ** belgisi o‘rnida yozilmaydi. Demak, *ob’ekt* tarzida yozish xatodir.

Tutuq belgisi tovush ifodalamaydi, arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda *ayn* **ع** o‘rnida qo‘llanib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

‘ (tutuq belgisi) unli tovushdan keyin kelsa, unlini cho‘ziqroq talaffuz etish uchun xizmat qiladi: *ma’no*, *ma’rifat*, *ta’limot*, *a’lo*, *ta’lim*, *e’lon*, *fe’l*;

‘ (tutuq belgisi) undoshdan keyin kelsa, keyingi bo‘g‘inni yoki unlini ajratish uchun xizmat qiladi: *mas’ud*, *jur’at*, *sun’iy*, *in’om*, *mas’ul*.

‘ (tutuq belgisi) *ma’no* farqlash uchun ham xizmat qiladi:

sher (hayvon) – *she’r* (ijod mahsuli), *qala* (ish harakat) –*qal’a* (qarorgoh),

tana (vujud) – *ta'na* (minnat), *nasha* (o'simlik) – *nash'a* (zavq), *sanat* (fe'l) – *san'at* (ot), *surat* (tasvir) – *sur'at* (tezlik), *tarif* (toifa) – *ta'rif* (sifatlash), *ayon* (sifat) – *a'yon* (ot).

ʻ (tutuq belgisi) **s** va **h** ni **sh** harf birikmasidan farqlash uchun ham ishlatiladi: *as'hob*, *Is'hoq*.

Yangi alifbodan bir tovushni harfga belgi qo'shib, ikki harfni qo'shib ifodalash usuliga asoslangan harflar (*o'*, *g'*, *sh*, *ch*, *ng*) o'rin oldi. Natijada yangi o'zbek alifbosi 29 harf va bir belgidan iborat bo'lib, 31 tovushni ko'rsatishga xizmat qiladi.

J j harfi har ikki alifboda ikki vazifani bajaradi: til oldi, portlovchi qorishiq **j** undoshini ifodalaydi: *juma*, *janub*, *jo'ja*, *jiyan*; arab va rus tillaridan o'zlashgan so'zlardagi til oldi, sirg'aluvchi tovush ifodasi uchun ishlatiladi: *jurnal*, *ajdar*, *jyuri*.

Har ikki alifboda ham o'zbek tiliga xos bo'lgan jarangli, til orqa **h** burun tovushini ifodalash uchun *n* va *g* harfiy birikmasidan foydalaniladi: *n+g*: *sen+ga*, *tun+gi*; **ng** → **h**: : *de-ngiz*, *ko'-ngil*, *si-ngil*, *to-ngi*.

1995-yil 24-avgustda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari (lotin yozuvi asosida)» qabul qilindi. Qoidalar 82 band, 7 bo'limdan iborat.

Insho matnida uchraydigan imlo xatolarining aksariyati quyidagi qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi.

Unlilar imlosi. Urg'usiz bo'g'inlarda o tovushi **a** tarzida aytiladi: *kanstitutsiya*, *arfografiya*, *fanetika*. Lekin *konstitutsiya*, *orfografiya*, *fonetika* yoziladi. Rus va yevropa tillaridan kirgan so'zlarning oxirgi urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi qisqa i tarzida eshitiladi, lekin har doim *direktor*, *traktor*, *rektor*, *konduktor*, *irrigator*, *diktor* (va b.) tarzida yoziladi.

Yonma-yon keladigan unlilar orasida talaffuzda **y** tovushi aytilsa ham yozilmaydi: *shoir*, *shariat*, *maishat*, *doim*, *oila*, *teatr*, *diagnoz*, *material*, *filial*, *million*, *aerodrom*, *aloe* kabi.

Mo'jiza, *mo'tadil*, *mo'tabar* kabi so'zlarda tutuq belgisi qo'yilmaydi.

Undoshlar imlosi. Insholarda ko'zga tashlanadigan imlo xatolari orasida eng ko'p kuzatiladigan nuqson **x** va **h** imlosi bilan bog'liq xatolardir. Ko'p hollarda *xalq*, *axloq*, *ruxsat*, *ro'yxat*, *hodisa*, *nusxa*,

sahna, tuhmat kabi soʻzlarning yozilishi bilan bogʻliq xatolar uchraydi.

Xx va **Hh** undoshlari alohida fonemalardir. Xx va Hh tovushlari paydo boʻlish oʻrniga koʻra ham, aytilishiga koʻra ham bir-biridan farq qiladi. Xx – chuqur til orqa jarangsiz sirgʻaluvchi undosh: *xabar, paxta, shoʻx, taxt, baxt, xulq, axloq, xalq*. Hh – jarangsiz sirgʻaluvchi boʻgʻiz undoshi: *behi, holva*.

x va h ayrim soʻzlarda maʼno farqlashga xizmat qiladi:

xol (dogʻ) - *hol* (ahvol) ; *xam* (egik) - *ham* (yuklama);

shox (daraxt shoxi) - *shoh* (podshoh); *rux* (modda) - *ruh* (arvoh); *xush* (yoqimli) - *hush* (aql).

i bilan boshlanuvchi soʻzlarning birinchi boʻgʻinida **x** yoziladi: *ix-tiyor, ix-cham, ix-los, ix-tisoslik*; qolgan boʻgʻinlarida **h** yoziladi: *il-hom, i-ho-ta, is-loh*;

e bilan boshlanuvchi arabcha soʻzlar tarkibida **h** yoziladi: *ehson, ehtirom, ehrom, ehtiyot, ehtiyoj*.

Bu harflar imlosida arabcha oʻzakdosh soʻzlardagi undoshlarga asoslanish mumkin: *hukm-hokim-hakam-hokimiyat-mahkama-mahkum; rahm-rahmat-rahim; hurmat-marhamat-rahmat; xalq-xaloyiq-xoliq-maxluq; muhsin-tahsin; hibs-mahbus, muxlis-ixlos*.

Birlikdagi ot va ularning siniq koʻplik shaklini bilish ham bu harflarni toʻgʻri ifodalashga yordam beradi: *xabar-axborot, saxiy-saxovat, hol-ahvol, ruh-arvoh*.

Bulardan tashqari, x va h ishtirok etgan soʻzlar imlosini yodda saqlash lozim boʻladi.

Oʻzak va qoʻshimchalar imlosi. *Parvo, obroʻ, mavqe, mavzu, mavzu* kabi soʻzlarga I, II shaxs egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda, oʻzakdan soʻng **y** qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, obroyim, mavqeyim, mavzuyim, avzoyim*. Shu soʻzlarga III shaxs egalik qoʻshimchasi **-si** shaklida qoʻshiladi: *parvosi, avzosi* kabi.

Shuni ham taʼkidlash kerakki, unli bilan tugagan soʻzlarga III shaxs egalik shakli qoʻshilishida ikki xil imlo kuzatiladi: *manbai* (kirill yozuvida: *манбай*) – *manbasi, mavzuyi* (kirill yozuvida: *мавзуй*) – *mavzusi*. Bu holat oʻzlashgan soʻzlar imlosida uchraydi. Imloda bir xillikni taʼminlash uchun mazkur oʻzlashma soʻzlarning asl shakliga asoslanish kerak: agar soʻz ayn **غ** bilan tugasa, **-yi** (kirill alifbosida: **и**) yoziladi: *manbai* (kirill yozuvida: *manбай*); agar soʻz **و**

vov, *hoyi havvas* • bilan tugasa, -si shaklida qo'shish to'g'ri bo'ladi: *mavzusi, orzusi*.

k va **q** undoshlari bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda g undoshi **k** va **q** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yurakka, qishloqqa, toshloqqa* kabi. Xuddi shunday o'zaklarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zak oxiridagi **k** undoshi **g** ga, **q** undoshi **g'** ga aylanadi va shunday yoziladi: *tilagi, yuragi, bulog'i, qishlog'i*. Bir qator so'zlarda tovush o'zgarishi sodir bo'lmaydi: *ittifoqi, idroki, toki, ocherki, tasdiqi, tatbiqi*.

-ta, *tacha* lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchasi bilan kelgan so'zlarni ba'zan qo'shib (5ta), ba'zan ajratib (5 ta) yozish hollari kuzatiladi. Son bilan yozganda imkon qadar hisob so'zlaridan foydalangan ma'qul: *77 dona, 5 nafar* kabi (qiyos: 1-sentyabr 1chi sentyabr tarzida yozilsa, xato bo'lar edi). -ta, *tacha* qo'shimchalarini raqam emas, so'z ko'rinishidagi sonlarga qo'shish to'g'ri bo'ladi: *o'nta, beshtacha*. Lekin shunday hollar bo'ladiki, narsa-hodisa, voqelik miqdorini ta'kidlab ko'rsatish kerak bo'ladi. Shunday hollarda qo'shimchani, garchi mantiqqa zid bo'lsa-da, ko'rinish talabiga muvofiq raqamdan ajratib yozish kerak: 5 ta, 7 ta.

Qoshma va juft so'zlar imlosi. *Har, hech, bir, u, shu, o'sha, hamma* kabi so'zlar o'zi birikib kelgan birlikdan ajratib yoziladi: *har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, osha joyda, hamma vaqt* kabi

Hamma, har, hech, u, bu so'zlari bilan yasalgan olmosh va ravishlar: *hamma vaqt, har kim, hech qanday, u yerda, bu vaqt*; birinchi so'zi *bir, har, hech* olmoshlaridan iborat bo'lgan qo'shma so'zlar ajratib yoziladi (*birpas, biryo'la, birvarakay* so'zlari bundan mustasno).

Sifatlar oldidan *to'q, jiqqa, tim, liq* kabi so'zlar kelsa, ajratib yoziladi: *to'q sariq, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la* va b;

Belgining ortiqlik hamda uzviylik darajasini ko'rsatuvchi: *ko'pdan ko'p, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, uzundan uzun, yildan yilga, kundan kunga* kabi birliklar ajratib yoziladi.

Bilan va uchun ko'makchilarining qisqargan -la va -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: *onam-la, sen-chun* singari.

Dardi bedavo, bodi sabo kabi izofali birikmalar ham ajratib yoziladi.

Izofali birikmalarni qo'shish uchun unlidan so'ng kirill yozuvidagi **i** o'rniga (*ойнаи жаҳон, таржимаи ҳол, нуқтаи назар*,

pyŷu замун) **yi** yoziladi: *oynayi jahon, tarjimayi hol, nuqtayi nazar, ro‘yi zamin.*

Juft so‘zlar chiziqcha bilan yoziladi: *yaxshi-yomon, erta-kech, qishin-yozin.*

Juft so‘zlar orasida *-u, -yu* yuklamalari qo‘llansa, yuklamalar birinchi so‘zga chiziqcha bilan birikadi; ikkinchi so‘z ajratib yozilaveradi: *yer -u osmon, yor-u do‘st, kecha-yu kunduz, past-u baland* (kirill yozuvida chiziqcha qo‘yilmaydi, yuklama birinchi so‘zga qo‘shib yoziladi: *яхшию ёмон, еру осмон, дёкту ёр*).

So‘zlarga chiziqcha bilan yoziladigan yuklamalar qo‘shilganda morfologik yozuv qoidasiga amal qilish maqsadga muvofiq: “*Kim edik-u, kim bo‘ldik?*”, *Ko‘p o‘qidik-u, lekin hali ko‘p uqnamiz.*

Qisqartma so‘zlar imlosi. So‘zlarning birinchi harflarini biriktirish yo‘li bilan yasalgan qisqartma so‘zlar bosh harf bilan yoziladi: *BMT, MDH*. Qisqartmalardagi harflar o‘rtasiga nuqta qo‘yilmaydi. Insholar matnida B.M.T., A.Q.Sh. tarzida xato yozishlar ko‘p uchraydi. Shaxs ismi va otasining ismi, familiyalari yoki ularning bir qismi qisqartirilishi mumkin: *H.O., A.O.; N.Jumayev, G.Jahonova*. Mumtoz ijodkorlarimiz ismi-sharifi, taxallusini qisqartirmay yozgan ma‘qul: *Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur*. Negaki hozirgi ism-shariflar qisqartmasi shaxs ismi va otasining ismini bildiradi: *F.X.Arziqulov*. Mumtoz ijodkorlarimiz ismi-sharifi, taxallusi har doim ham bu mezonga mos kelavermaydi. Odatda, taxalluslar ham qisqartirilmaydi: *Cho‘lpon, Sakkokiy, Julqunboy, Hijron, Nihoniy*.

Bosh harflar imlosiga doir qoidalarni ham yaxshi o‘zlashtirish lozim. Hurmat ma‘nosida qo‘llangan olmoshlar, ta‘kidlab aytilgan so‘zlar bosh harf bilan yozilishi mumkin: *Siz va O‘zingiz, Birinchi Prezident, Prezident, Vatan, Respublika*.

Bayramlar va tarixiy kunni ifodalagan birikmalarning birinchi so‘zi: *Navro‘z bayrami, Mustaqillik kuni, Xotira va qadrlash kuni;*

oliy tashkilotlar va faxriy unvonlar, mamlakat nomlarining har bir so‘zi bosh harf bilan yoziladi: *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Qahramoni*.

Orden va medallarning nomi bosh harf bilan *orden* va *medall* soʻzlari kichik harf bilan yoziladi: «*Mustaqillik*» ordeni, «*Doʻstlik*» medali.

Universitet, institut, fakultet, kafedra nomlarining birinchi soʻzi bosh harf bilan, qolganlari kichik harf bilan yoziladi: *Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti*, *Toshkent moliya instituti*, *Toshkent davlat sharqshunoslik instituti*, *Oʻzbek filologiyasi fakulteti*, *Til nazariyasi va amaliyoti kafedrası*. Bu tipdagi nomlanishlarda “atab qoʻyish”ga nisbatan “umumning bir qismi” semasi koʻproq aks etgani bois qoʻshtirnoqqa olinmaydi.

Nomlar tarkibidagi *Milliy* sifatlovchisi bosh harf bilan yoziladi: *Oʻzbekiston Milliy universiteti*.

Mashhur shaxslar ismi bilan yuritiladigan muassasalar *nomidagi* (*nomli* emas) izohlovchisi bilan qoʻllanadi: *Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*.

SH, *CH*, *NG* harfiy birikmalarining bosh shakllari qisqartma soʻzlarda standart shaklni taʼminlashda qoʻllanadi: masalan, “*TONG*” ishlab chiqarish birlashmasi. Oddiy hollarda harfiy birikmalarning ikkinchisi kichik shaklda yoziladi: *Shohruh*, *Charos*.

Boʻgʻin koʻchirish qoidalari. Soʻz boʻgʻinlarga boʻlinadi. Eng kichik boʻgʻin bir unidan iborat boʻladi: *u* (olmosh), *o-ta*, *o-na*, *e-kin* va h. k. Har bir boʻgʻinda bir unli tovush ishtirok etadi.

Bir unidan hosil boʻlgan boʻgʻin birinchi yoʻlda qoldirilmaydi, yonidagi boʻgʻin bilan birga koʻchiriladi: *o-na* emas, *ona*. *Mudofaa*, *mutolaa* kabi soʻzlardagi oxirgi boʻgʻin – bir *a* ning oʻzi koʻchirilmaydi.

Bir tovushni ifodalagan ikki harf (*sh*, *ch*, *ng*) birgalikda koʻchiriladi: *mash-hur*, *pi-choq*, *si-ngil*, *pe-shana*, *so-chiq*, *koʻ-ngil*; yoki oldingi qatorda qoldiriladi: *tong-da*, *sing-li-si*. *Ng* harfi ishtirokidagi soʻzlarda boʻgʻin koʻchirish muammosini bartaraf etish uchun *ng* bir tovushni ifodalaydigan soʻzlarni eslab qolish kerak: *ing+ramoq*, *soʻng-gi*, *o-ta-ngiz*, *mung-li*, *sing-moq*, *teng-dosh*, *teng-la-ma*.

Ism-shariflar qisqartirilsa, familiyadan ajratilib koʻchirilmaydi: *S.V.Rahimov*, *A.G.ʻulomov*.

“*Navroʻz – 2016*”, “*Eʼtirof – 2017*” kabi tanlov nomlari ham ajratilmaydi.

Juft soʻzlar boʻgʻin asosida koʻchirilganda keying satrga ham chiziqcha qoʻyish maʼqul. Birinchi chiziqcha boʻgʻin koʻchirish belgisi boʻlsa, ikkinchi chiziqcha juft soʻzlar imlosiga tegishlidir: asta-sekin.

Fonetik oʻzgarishlarni farqlamaslik, ayrim tovush oʻzgarishlarining faqat talaffuzda yuz berishi, yozuvda aks etmasligi haqida muayyan bilimga ega boʻlmaslik ham imlo xatolariga sabab boʻladi.

Orfoepiya meʼyorlari asosidagi tovush oʻzgarishlari yozuvda aks etmaydi:

- nutq tovushlarining oʻzaro taʼsiri, birining ikkinchisini oʻziga moslashtirishi: *ket-di – ketti, ayt - di –aytti, uch soʻm – ussoʻm, tuz-sin – tussin, yigit-cha – yigichcha;*

- ikkita bir xil (oʻxshash) tovushdan birining boshqa (nooʻxshash) tovushga aylanishi: *zarar – zaral; zarur –zaril, kissa – kista; koridor – kolidor;*

- undosh tovushlarning oʻrin almashish hodisasi: *daryo-dayro; tebratmoq-terbatmoq; yamlamoq – yalmamoq; tuproq – turpoq; oʻrganmoq – oʻgranmoq; toʻgʻramoq – toʻrgʻamoq;*

- ikki undosh yonma-yon kelganda, ular orasida talaffuzda **i** yoki **u** orttirilishi: *fikr – fikir; hukm – hokum;*

- oʻzak oxiridagi tovushning tushishi: *doʻst – doʻs; xursand – xursan, rost – ros, gʻisht – gʻish;*

- til oldi **n** ning lab-lab **m** ga oʻtishi: *manba – mamba, shanba – shamba, yonbosh – yombosh, sunbula – sumbula, tanbur – tambur.*

Ayrim soʻzlar talaffuzidagi oʻzgarishlar yozma meʼyorga aylangan: *bir, biror* soʻzlariga *-ta* qoʻshimchasi qoʻshilganda **r** tovushi **t** ga aylanadi va shunday yoziladi: *birta-bitta, birorta-bironta.*

Unli bilan tugagan va unli bilan boshlangan ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida tovushlardan biri tushadi va oʻzgarish yozuvda aks etadi: *bora oladi – boroladi; borar ekan – borarkan.*

Tinish belgilari xatosi – tinish belgilarini qoʻllash bilan bogʻliq xatolar. Maqsad, fikr ogʻzaki nutqda maʼlum ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali aks ettiriladi. Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda aks ettiruvchi zaruriy vositadir. Soʻzlovchining maqsadini tinish belgilari orqali bilib olish mumkin: *Mehmon keldi. Mehmon keldi! Mehmon keldi?* Bu uch

gapdagi xabar, his-hayajon, so‘roq mazmuni gaplardan so‘ng qo‘yilgan tinish belgilari orqali ifodalanadi.

Tinish belgilari mazmun, ohang va gapning grammatik qurilishiga ko‘ra qo‘llanadi.

Tinish belgilarining qo‘llanishi gap tuzilishi va mazmuniga ta’sir qiladi: *O‘qi, o‘qi bobong kabi, nodon bo‘lma - O‘qi, o‘qi, bobong kabi nodon bo‘lma*. Birinchi holatda bobo o‘qimishli ekanligi, ikkinchi gapda esa o‘qimaganligi ifodalangan.

O‘zbek tilida o‘nta tinish belgisi mavjud bo‘lib, insholarda ko‘p kuzatiladigan punktuatsion xatolar quyidagi tinish belgilariga oiddir.

Qavs misol yoki ko‘chirmaning manbaini ko‘rsatadi: *Oh, Hirot, Hirot!(0.) «Turkona uslub» (Navoiy) turkiy tillarga xos uslubdir*. Ajratilgan bo‘laklar, kiritmalarda qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul) qavsdan keyinga ko‘chiriladi: *Erkaklarning biri – markaziy gazetaning muxbiri, ikkinchisi – injener (Mavlonbek uni Fyodor Mahkamovich der edi. U qiz esa Moskvada institutni bitirib, hozir shu injenerning qo‘lida tajriba ko‘rib yurgan ekan).* (A.Q.)

Ko‘p nuqta fikr tugallanmagan yoki qisqartirilgan o‘rinlarda, aytish noo‘rin bo‘lgan vaziyatlar ifodasida qo‘yiladi.

Tire quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1) ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalangan ega bilan bog‘lamasiz kesim orasida: *Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra;*

2) ega bilan kesim *bu, u, mana bu* so‘zlari bilan ajratilganda ham ega va kesim orasida tire ishlatiladi, tire so‘zlardan oldin qo‘yiladi. Masalan: *Tinchlik – bu sevinchdir, hayotda lazzat, Tinchlik – bu totuvlik, har ishda orom;*

3) gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, kesim tarkibida kesimlik qo‘shimchasi yoki bog‘lama bo‘lmaganda: *Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat. Maqsadim – o‘qimoq;*

4) ega ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalanganda: *Bu – siz uchun katta sinovdir;*

5) eganing ma’nosi ta’kidlab ko‘rsatilganda: *Men – mana shu minglarning biriman.*

Eslatma: agar ega bilan ot kesim orasida ham yordamchisi bo‘lsa, tire qo‘llanmaydi: *Bular ham a’lochi. Mening opam ham talaba. Nazokat ham to‘quvchi.* Kesim sifat va tartib son bilan ifodalanganda ot kesim va ega orasida tire qo‘yilmaydi: *Vatanimiz*

go‘zal. Bino katta. Qizilqum sahrosi bepoyon. Bu qovun shirin. Ko‘ylakning rangi sariq. Bizning guruhimiz birinchi;

6) uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin: *Suv, yer, elektr – bular hayot bahoriga yangi go‘zallik va yangi nash’a bag‘ishlovchi kuchlar edi. (O.)*

7) muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida: *«Nega buncha kech golding, Manzura!» – dedi Aziz mehribon tovush bilan. (Asq. M.)*

9) dialog tipidagi ko‘chirma gaplarda ishlatiladi.

Tireni juft va takror so‘zlar o‘rtasida, yuklamalardan oldin qo‘yiladigan chiziqcha (defies)dan farqlab yozish kerak.

Ikki nuqta quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1) shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan so‘ng: *Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o‘tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman;*

2) uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin: *O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog‘i, Davlat Gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi (P. T.);*

3) ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng: *Otam birdan samovarchiga buyruq beradi: – Musavoyga joy solib ber, ozodaroq yostiq qo‘y (O.);*

Quyidagi ma‘nolarni ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda:

1) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko‘rsatsa: *«Men u yil dehqonchilikdan hech narsa ololmadim: kuzgi bug‘doyning boshhoqlari shira olayotgan vaqtda havoda ola bulut paydo bo‘lib, boshhoqlar kuyib, qovjirab ketdi». (S. A.);*

2) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko‘rsatsa: *Xo‘ja G‘iyosiddin Hirotdagi ba‘zi mashhur zotlarni go‘zal taqlid qildi: o‘tirganlar o‘rinlaridan qo‘zg‘ololmay qoldilar. (O.);*

3) agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to‘ldirsa yoki izohlasa: *Qosimmurod aytardi: agar qo‘rqmasang, eng odamxo‘r daryo ham hech nima qilolmaydi – suvning o‘zi qirg‘oqqa chiqarib qo‘yadi. (O.);*

Nuqtali vergul bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar tugal fikrni anglatib, bir-biriga mazmunan bog‘lanmagan

hollarda qo'yiladi: *Mehnat, ijod, odam sharafi; Dil yorug'i, hayot quvonchi – Hammasining asli, manbai – Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi.*

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmuni voqealar bir-biriga qiyoslanganda ishlatiladi: *Yaxshini yomon dema, olising bo'lsa ham; Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.*

Uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin nuqtali vergul qo'yiladi: *Gerb rangli tasvirda bo'lib, humo qushi kumush rangda; quyosh, boshloqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuv tilla rangda; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog'lar havo rangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda; O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda beriladi.*

Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida nuqtali vergul qo'yiladi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun qo'yiladi;

kinoya bilan aytilgan so'z yoki so'z birikmalari qo'shtirnoqqa olinadi: - *Rahmat, "juda xursand qildingiz..."* .

Badiiy asarlar, ayrim uyushma, korxonalar nomi, orden va medall nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: *«Layli va Majnun» dostoni, «Mustaqillik ordeni», «Yulduz» ishlab chiqarish birlashmasi.*

Qo'shtirnoqqa olingan so'z turlovchi qo'shimcha bilan kelsa, bu qo'shimcha qo'shtirnoqdan keyin qo'yiladi:... *erining «kirdikori»dan xabardor bo'lganday o'smoqchiladi Shakarxon.* (H.N)

Gaplar qo'shtirnoqqa olinganda so'roq, undov belgilari qo'shtirnoq ichida, nuqta, vergul qo'shtirnoqdan tashqarida qo'yiladi.

So'roq va undov belgilari, so'roq belgisi va ko'p nuqta, undov belgisi va ko'p nuqta birikkan holda qo'llanadi: *Ayb kimda?... Uyatni bilasizmi!...*¹³

Ikki nuqta bilan tire ayrim hollarda bir xil vaziyat hosil qiladi. Masalan, bir o'rinda ham ikki nuqta, ham tire qo'yish mumkin bo'ladi: *To'rt mashina sement yubordik: guruhlarga teng taqsimlansin. To'rt mashina sement yubordik – guruhlarga teng taqsimlansin.* Bunday holda mazmun o'zgarmasa ham, uslubiyatda

¹³ Tinish belgilari mazmuni akademik litsey darsliklari materiallari asosida yoritildi.

farq seziladi: ikki nuqta qo'yilganda izoh, tire qo'yilganda ta'kid ifodalanadi. Bunday holat boshqa tinish belgilari bilan bo'lgan munosabatda ham namoyon bo'ladi. Ya'ni bir gap mazmunidagi qaysi uslubiy jihat ustunligiga qarab, vergul, ikki nuqta, tire qo'yiladi: *Suv keldi, qaqragan cho'llar obod bo'ldi. Suv keldi: qaqragan cho'llar obod bo'ldi. Suv keldi – qaqragan cho'llar obod bo'ldi.* Vergul qo'yilganda ketma-ketlik, ikki nuqta qo'yilganda natija, tire qo'yilganda ta'kid ma'nolari ifodalanadi. Shu bois bunday o'rinlarda qaysi tinish belgisi qo'yilishini qat'iy tarzda qoidalashtirib bo'lmaydi. Tinish belgisi maqsad va nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda qo'yiladi.

Uslubiy xatolar – so'z tanlash, sinonim, paronimlarni, qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq xatolar.

Adabiy nutq – muayyan tarixiy bosqichlarda ishlangan, qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir. Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashtirilgan, bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan ko'rinishlari – uslublari mavjud.

Nutqning ijtimoiy vazifasiga qarab uslub turlari har xil bo'ladi: har bir ijtimoiy qatlam, toifaning o'z nutq uslubi bo'ladi. Shunga ko'ra, uslub, avvalo, so'zlashuv va yozma nutq uslublari bo'linadi. Jamiyat vakillarining o'zaro og'zaki muloqot jarayoni, sheva ko'rinishlari so'zlashuv uslubini tashkil etadi. Og'zaki nutq keng imkoniyatlarga ega. Og'zaki muloqot jarayonida fonetik, paralingvistik vositalardan unumli foydalanish mumkin. Og'zaki nutq so'zlovchining maqsadi, ruhiyati, suhbatdoshga munosabatini ifodalash xususiyatiga ega. Og'zaki nutqqa o'zgaruvchanlik, yozma nutqqa esa turg'unlik xos. Yozma nutq ma'lum bir fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarga asoslanadi. Yozma nutq fikrning adabiy til me'yorlari asosidagi ifodasidir. O'z navbatida, yozma nutq ruhiyatni, hissiyotlarni, orzu-umidlarni to'laroq aks ettirish imkoniyatiga ega. Ba'zan so'zlovchi og'zaki muloqotda ayta olmagan fikrlarini, orzu-o'ylarini yozma nutq orqali ta'sirchan, obrazli tarzda ifoda etadi.

O'zbek tilida quyidagi nutq uslublari mavjud: so'zlashuv, ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy uslub. Insho badiiy uslubda yoziladi. Badiiy uslub badiiy asarlarning ifoda ko'rinishi bo'lib, unda badiiylik, obrazlilik, ta'sirchanlik kuchlidir. Badiiy uslub boshqa uslub xususiyatlarini ham namoyon etadi. Qahramonlar muloqoti

so‘zlashuv uslubiga, ularning faoliyati bilan bog‘liq jarayonlar rasmiy va ilmiy uslubga, muallif nutqidagi ba‘zi o‘rinlar ommabop uslubga mansub bo‘ladi. Badiiy asarlar tilida arxaizm, istorizm, neologizm, varvarizm, vulgarizm, argo, jargonlar ham uchraydi. Badiiy uslub o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi, voqea-hodisani obrazli ifodalarda, ta’sirchan vositalar orqali aks ettiradi. *Obrazlilik va estetik ta’sir* etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

Risoladagidek insho yozish uchun o‘quvchi nutq uslublarini yaxshi o‘zlashtirishi kerak. Undan badiiy uslubning o‘ziga xos jihatlari, boshqa uslublardan, jumladan, ilmiy uslubdan farqini yaxshi anglash talab etiladi. Uslub xususiyatlarini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi tushunchalarni ilmiy va badiiy uslubda ta’riflay bilishi lozim. Masalan, *lola* so‘zini ilmiy uslubda ta’riflaydi: *Piyozguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o’simlik. Qir-adirlarda, tog‘larda o’sadi. Qizil, sariq ranglarda bo‘ladi;*

badiiy uslubda ta’riflaydi: *Ayni bahor fasli. Atrofni lolalarning alvon gilami qoplagan. Lolalar quyoshga tutilgan qadah singari yal-yal tovlanadi. Alvon gilamlarda quvnab, yayrab yugurgin keladi kishi. Yoki lolaning shoir Furqat misralaridagi obrazli ifodasini anglash lozim: Yomg‘ir suvi to‘lganda tog‘ lolani jom etsin...* Bunda o‘quvchi ilmiy uslubda terminlar, shartli belgilarning qo‘llanishi, so‘zlarning o‘z ma’nosida kelishi, ko‘chma ma’nodagi so‘zlarning qo‘llanmasligi haqidagi bilimlarini yanada boyitadi. Badiiy uslubda obrazli tasvirning, ta’sirchan ifodaning mavjud bo‘lishi, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, emotsional-ekspressivlikning ustunligini anglaydi.

O‘quvchi leksikologiya sohasida muayyan darajada bilimga ega bo‘lishi zarur. So‘z ma’nosini, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi semantik ko‘chishlar mohiyatini yaxshi anglashi kerak. Metaforani o‘rganish jarayonida o‘quvchi o‘xshashlik haqida, metonimiyani o‘rganish jarayonida aloqadorlik, sinekdoxani o‘rganish jarayonida butun-qism munosabati haqida fikrlaydi. Semantik ko‘chish asoslari haqidagi ma’lumotlarni yodda saqlab qoladi. Natijada keltirilgan misollarga analogiya tarzida o‘zi ham yangi misollar topadi, o‘ziga xos ko‘chimlarni yuzaga keltiradi. Bu esa ijodiy matn yaratishda, fikrni ta’sirchan, obrazli ifodalashda muhimdir.

Insho matni talab darajasida bo'lishi uchun nutq uslublarini mukammal o'zlashtirish talab etiladi. Uslub turlari yaxshi o'zlashtirilmasa, insho matnida xatolarga yo'l qo'yiladi.

Uslubiy xatolar leksik, morfologik me'yorlarning buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Uslubiy xatolar sinonimlarni qo'llashda kuzatiladi: *bashara-afri-angor*. Uslubiy xatolarning ma'lum qismi so'z tanlash bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, insonga nisbatan *qulamoq*, narsa-buyumga nisbatan *yi qilmoq*, *ashulaga* nisbatan *chiroyli* so'zlarini qo'llash noto'g'ri. *Paxta gulladi* birikuvi ham uslubiy jihatdan xatodir.

Paronimlarni noto'g'ri qo'llash uslubiy xatolarni yuzaga keltiradi.

Paronimlar orfoepiya me'yorining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Aytilishi (talaffuzi) jihatidan o'xshash, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar paronimlardir: *yuvindi-yuvundi*, *kuyindi-kuyundi*, *fakt-pakt*, *abzal-afzal*, *yoriq-yorug'*, *quyulmoq-quyilmoq*, *arch-art*, *otalik-otaliq*, *borlik-borliq*, *yonilg'i-yoqilg'i*, *matal-ma'tal* (*mahtal*), *jodi-jodu*, *yondosh-yondash*, *bob-bop*, *bod-bot*, *tub-tup*, *tanbur-tambur*, *daha-daho*, *sira-sara*, *xiyol-xayol*, *sada-sado*, *juda-judo*, *qism-qisim*, *adl-adil*, *ahl-ahil*, *asr-asir*, *azm-azim*, *tuyilmoq-tuyulmoq*, *kift-kaft*, *yod-yot*, *darz-dars*, *ramz-razm*, *qarz-qars*, *qayd-qayt*, *naq-naqd*, *o'tkazmoq-o'tqazmoq*. Talaffuzi yaqin bo'lganligi uchun bunday so'zlarni bir-biri bilan almashtirib qo'yish ehtimoli bor. Paronimlar birining o'rnida ikkinchisi qo'llanib, bora-bora bir so'z shakliga aylanib ketgan holatlar ham uchraydi. Masalan, *tunamoq-to'namoq* paronimlarining har ikki o'rinda ham, aksariyat hollarda, *tunamoq* shakli qo'llanadi. Bir so'zning ikki xil yozilishi paronim hisoblanmaydi: *podsho-podshoh*, *gado-gadoy*, *kaptar-kabutar*, *nabira-nevara*. Bunday so'zlar dubletlar bo'lib, har ikki shakl ham xato hisoblanmaydi. Dubletlarning yuzaga kelishiga o'zlashgan so'zlarning asl holatidagi imlosi va o'zbek tili talaffuz me'yorlariga moslashgan ko'rinishi sabab bo'lgan. Keyingi paytda bunday so'zlar ko'paydi: *darvesh-darvish*, *fojea-fojia*. Bu imlo qoidalarini takomillashtirishga to'sqinlik qiluvchi salbiy holatdir.

Paronimlar og'zaki talaffuz me'yorlari bilan bo'g'liq bo'lib, bir qator uslubiy xatolarga sabab bo'ladi: Yaxshiga **yondosh** – yomondan qoch. Bu o'rinda *yondosh* paronimi *yondash* o'rnida qo'llangan. Buning ikki sababi bor: birinchidan, *yondosh* (sifat) – *yondash* (fe'l)

soʻzlarining talaffuzda oʻxshashligi, ikkinchidan, *qoch* soʻziga qofiyadoshlik talabi.

Onangni boshda tutsang, singlingni kaftingda tut maqolida *kift* soʻzining paronimi notoʻgʻri qoʻllangan. Shahrimiz koʻchalaridagi *poyafzal*, *yoqilgʻi quyish shahobchasi* mazmunidagi birikmalar, *Hush kelibsiz* undovi ham paronim bilan bogʻliq xatolarga misol boʻladi (aslida: *poyabzal*, *yonilgʻi quyish shahobchasi*, *Xush kelibsiz* shaklida boʻlishi kerak).

Uslubiy xatolar grammatik meʼyorlarning buzilishi natijasida ham yuzaga keladi. Uslubiy xatolarning maʼlum qismi *-li* */-lik*; *-ni/-ning* qoʻshimchalarini qoʻllash bilan bogʻliq.

-li mavjudlikni bildiruvchi sifat yasovchi qoʻshimcha. *-li* qoʻshimchasi shaxsning mavjudligini (*bolali*), shaxslararo munosabat mavjudligini (*oilali*), belgi-xususiyatning kam darajada mavjudligini (*yogʻli qoʻl*), belgi-xususiyatning meʼyordan ortiq darajada mavjudligini (*yogʻli palov*) bildiradi.

-lik qoʻshimchasi mansublikni (*oʻzbekistonlik*), xoslikni (*bolalik*) bildiradi, mavhum ot yasaydi (*shodlik*). *Bolalik uy* – *bozor*, *bolasiz uy*– *mozor* maqolida *-lik* qoʻshimchasi *-li* oʻrnida notoʻgʻri qoʻllangan.

-ning qoʻshimchasi ot+ot tipidagi birikmalarni shakllantiradi: *uzumning sharbati*, *doʻstimning suhbat*. Hokim soʻzdagi egalik shakli *-ning* qoʻshimchasi qoʻshilishini koʻrsatuvchi asos boʻladi.

-ni ot+feʼl tipidagi birikuvlarni yuzaga keltiradi: *kinoni koʻrmoq*, *suvni ichmoq*. Soʻzlashuv jarayonida koʻp hollarda *-ning* oʻrnida *-ni* notoʻgʻri qoʻllanadi: *choʻlni qovuni*, *hayotini mazmuni*, *soʻzni qudrati* kabi.

Mantiqiy xatolar – jumla mazmuni, mantiq bilan bogʻliq xatolar.

Shunday mantiqiy xatolar borki, ularni har doim ham ilgʻash qiyin. Masalan, *Momaqalldiroq guldurab*, *chaqmoq chaqdi va sharros yomgʻir quya boshladi*; *Chaqmoq chaqib*, *momaqalldiroq gumburladi* jumlasida *momaqalldiroq*ning *gumburlashi* va *chaqmoqning chaqishi* ketma-ket roʻy beradigan hodisa sifatida ifoda etilmoqda. Aslida bu ikki jarayon bir vaqtda sodir boʻlib, yorugʻlik tezligi tovush tezligidan katta boʻlgani sababli dastlab *chaqmoq chaqib*, keyin *momaqalldiroq gumburlagandek* tuyuladi.

Quyosh chiqdi, *kun tikkaga keldi* kabi birikuvlar ham mantiqiy jihatdan xatodir.

9. Insho mavzusini yoritishda faktik materiallardan foydalanish talab etiladi. Faktik materiallar insho matnining aniqlik, ishonarlilik darajasini orttiradi. Qabul imtihonlarida faktik materiallardan foydalanilmagan holatlar bo'ladi. O'quvchi "Hayrat ul-abror"ning tarbiyaviy ahamiyati haqida insho yozar ekan, yozma ishida shu asardan bir satr ham keltirmagan. Asardagi biror maqolatni keltirib, tahlil qilmagan. Ammo bu asarning mazmuni, ahamiyati haqida umumiy ma'lumotlar bergan. Insho hajmi talab darajasida. Reja mavzuga mos tuzilgan. O'quvchi shularni nazarda tutib, qo'yilgan balldan norozi holda qayta baholashlarini so'rab, apellyatsiya komissiyasiga ariza beradi. Bu o'rinda o'quvchining e'tirozi o'rinsiz. Faktik ma'lumotlarsiz insho matnining mantiqiylik, to'g'rilik, aniqlik talablari buziladi.

Insho mavzusini faktik jihatdan asoslashda xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol, matallardan, buyuk mutafakkirlarning fikrlari, aforizmlaridan, ko'chirmalardan foydalanish mumkin.

Faktik materiallardan noto'g'ri foydalanish, asar mualliflari, qahramonlar nomini xato ko'rsatish baholash natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Inshoda faktik materiallardan foydalanish me'yor darajasida bo'lishi kerak. Me'yordan ortiq faktik materiallarning berilishi quruq bayonchilikka olib keladi. Badiiy uslub imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga imkon bermaydi.

10. Inshoda mustaqil yondashuv, muallif fikr, munosabat aks etishi lozim. O'quvchi muayyan mavzu asosida insho yozar ekan, dastavval, o'zi o'qigan materiallarga, ma'lumotlarga asoslanadi. O'qigan manbalari asosidagi mulohazalarini bayon etadi. Shuning barobarida insho o'quvchining qo'yilgan masalaga bevosita munosabati, mustaqil yondashuvi asosida shakllantirilmog'i kerak. Zero, insho so'zining lug'aviy ma'nosi ham shuni taqozo etadi.

INSHO YOZISH KO'NIKMALARINI EGALLASH SHARTLARI

Insho yozish talablarini to'liq egallashning zarur shartlari quyidagilardan iborat.

1. Fikrni yozma tarzda ifodalash ko'nikmalarini hosil qilish muhimdir. Fikrni to'g'ri tartibga keltirish, ichki nutq holida shakllantirish talab qilinadi. Buning uchun esa boshlang'ich sinfdan,

qolaversa, bog'cha yoshidan o'quvchilarni og'zaki jumla tuzishga va uni yozma tarzda aks ettirishga (yozuvni o'zlashtirganidan keyin) o'rgatib borish lozim. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi "Do'stlik" mavzusida matn tuzing, "Rasm asosida hikoya yozing", "Mehmondo'stlik haqida o'zaro suhbat tashkil qiling" tipidagi topshiriqlar insho yozish ko'nikmalarini shakllantirishda muhimdir.

2. So'z semantikasi, so'zlarni semantik muvofiqligiga ko'ra birlashtirib, birikmalar hosil qilish va gap tuzish haqidagi topshiriqlar insho yozish ko'nikmalarini shakllantiradi. So'z semantikasini tahlil qilish, matn tuzishga oid topshiriqlarni o'quvchi yoshi, saviyasiga qarab bosqichma-bosqich berib borish ahamiyatlidir.

Inshoni yanada mukammal yozish uchun, dastlab, bog'lanishli matn tuzishni o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu matnlarni yaratish uchun kam vaqt, masalan, 5-15 daqiqa, berilishi lozim. Ana shunda zehn, diqqat, xotira, tezkorlik, tez fikrlash, topqirlik kabi sifatlar ham faollashtiriladi.

So'z tuzish, so'z tahlili, matn yaratishga doir topshiriqlarning turli ko'rinishlari bor. Jumladan:

fonemalar asosida so'z tuzish. Masalan, faqat jarangli undoshlar ishtirokida so'z tuzish: *javlon, jadval, maydon, nodon, roman, guldor, mardona* kabi; faqat jarangsiz undoshlar ishtirokida so'z tuzish: *paxta, ko'kat, shafqat, shashka, shaxta, shasht*; faqat sonorlar ishtirokida so'z tuzish: *ro'mol, marmar, norin, malol, mo'l, rom*;

bir leksema ichida yashiringan so'zlarni aniqlash. Masalan, shuhratparastlik leksemasida o'n to'rtta so'z yashiringan: *ruh, sut, hur, past, lak, para, sara, shart, kar, sil, sharpa, sila, hut, rak*;

berilgan so'zlardan o'z va ko'chma ma'noli birikmalar hosil qilish: *tulki, kitob, yengil, og'ir, qora, katta, shirin, achchiq, chuqur, oqlamoq, o'ymoq, ulamoq* kabi;

berilgan so'zlarning sinonimlarini yozish: *falak, go'zal, katta, kulmoq, tashrif buyurmoq, botir, tinch, keng, sabr, do'st*;

berilgan so'zlar asosida matn tuzish: *hayo, armon, gul, imkon, ifor, inson, orzu, tafakkur, mulohaza, aqlli, yashash tarzi, qadr-qimmat, qadriyat*. Bunda dastlab mazmunan bir-biriga aloqador so'zlar beriladi, masalan, *bahor, gul, iliq, shabada, yoqimli*. Bu so'zlar tuzilayotgan matnning qaysidir o'rnida qatnashishi shart. O'quvchi-talabalar mazmunan bir-birini to'ldiruvchi so'zlar yordamida matn

tuzishni o'rganib olganlaridan so'ng mazmunan bir-biriga ma'no jihatidan yaqin bo'lmagan so'zlar asosida matn tuzish topshirig'i beriladi, masalan, *to'qson to'qqiz, qahraton, dars, bobojon* yoki *sharshara, 1-para, Prezident, jazirama, mukofot* va hokazo. O'quvchi ana shu turli mavzudagi so'zlar o'rtasida bog'lanish nuqtasini topib, matn tuzishi kerak bo'ladi;

berilgan so'z, masalan, *quyosh* so'zi asosida matn tuzish;

bir qator pedagog-xodimlar qo'llayotgan "uch so'z" usulidan foydalanish: berilgan uch so'z, masalan, *hayot, jilg'a, mahzunlik* lug'aviy birliklari asosida matn tuzish;

maqollar asosida matn tuzish. Bunda maqollar mazmuniga mos ravishda matn tuziladi. Maqollar soni o'quvchi-talabalarning yoshiga qarab belgilab beriladi. O'quvchi bir maqol yoki bir necha maqolni sharhlashi lozim bo'ladi. Xalq maqollari va hikmatli so'zlar hikoya uchun yaxshi mavzu bo'la oladi. Ammo ularni hikoya mavzusiga singdirish uchun ma'lum bir voqea bilan bog'lashni unutmaslik lozim;

topishmoqlar asosida matn tuzish. Bunda shunday matn tuzish kerakki, topishmoqlar matn mazmuniga singdirilgan holda qo'llangan bo'lishi lozim. Topishmoqlar soni o'quvchi-talabalarning yoshiga qarab belgilanadi¹⁴;

iboralar asosida matn tuzish. Bunda iboralar izohlanadi. Iboralar soni o'quvchi-talabalarning yoshiga qarab belgilanadi;

hayotiy voqealar asosida matn tuzish. Bunda hayotiy voqea hikoya qilinadi, unga munosabat bildiriladi;

biror shaxs yoki narsa-hodisani ta'riflash. Bunda asar qahramonlari yoxud o'quvchi-talabaning o'zi real deb tan oladigan fazilatli yoki, aksincha, salbiy xarakterli inson ta'riflanadi;

rasmlar asosida matn yaratish. Bunda har xil rasm turlari (peyzaj, natyurmort, portret, syujetli tasvir va h.k.)dan foydalaniladi va o'quvchi-talaba rasmga mos badiiy matn yaratadi;

she'riy matnlarning nasriy bayonini yaratish. Bu o'rinda syujetli she'rlar, shu jumladan, dostonlar tanlanishi maqsadga muvofiq. Masalan, Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonida keltirilgan rivoyatlar va h.k;

televideniya namoyish etilgan ko'rsatuvlar yuzasidan mulohazalarni bayon etish;

¹⁴ Bunday matn ko'rinishlaridan ayrimlari ilova qilindi.

“Munojot”, “Tanovar”, “Dilxiroj” yoki jahon musiqasidan V.A.Motsart, L.V.Betxoven, Bax, Chaykovskiy kabi musiqachilarning kuyi eshittiriladi va shu asosda “Kuy sehri” mavzusida matn yaratiladi;

antonim, omomim, paronimlardan unumli foydalanilgan holda ham matn yaratish mumkin. Bu tarzda matnlarni yozishni o‘rgangan o‘quvchi inshoni mukammal tarzda ifodalashga qiynalmaydi.

3. **Narsa-hodisalarni, voqelikni tasvirlash usulidan** foydalanish mumkin. Ona tili mashg‘ulotlarida narsa-buyum, hayvonlar, voqea-hodisalar; insonning tashqi qiyofasi, tabiat manzarasi, ma’lum bir joyning (mas., sinf xonasi, darsxona), tasvirini yaratishga doir topshiriqlar berilishi mumkin. O‘quvchilar *qish, bog‘* haqida og‘zaki va yozma matnlar yaratishga juda qiziqadilar. Topshiriqlar quyidagi mazmunda bo‘lishi mumkin:

– **alohida narsa-buyumlarni tasvirlash.** Turmushdagi alohida narsa-buyumlarni og‘zaki tasvirlash maktabgacha bo‘lgan davrda shakllana boshlaydi. Bu muhim topshiriq boshlang‘ich sinflarda ham amalga oshiriladi va ona tilining izchil kursini o‘rganish jarayonida davom ettiriladi. O‘quvchilar ona tili mashg‘ulotlarida istalgan narsa-buyum (masalan, kitob, kundalik, yozuv stoli, deraza, chizg‘ich, chinor, dastro‘mol kabilar)ning oddiy, ilmiy va badiiy tasvirini yaratishlari mumkin. Bunday matnda o‘quvchi o‘xshatish, jonlantirish kabi tasviriy vositalarni, badiiy so‘z va iboralarni, sifatlash, mubolag‘a kabi usullarni qo‘llay olishi kerak bo‘ladi. Tasviriy insho yaratishdan bog‘lanishli nutqni o‘stirishda, she’riy matnlarni tahlil qilishda, masalan, Oybekning “Na’matak” she’rini, A.Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she’ridagi voqelikni tasvirlashda foydalanish mumkin.

Narsa-buyum tasvirini yaratishda tabiiy ashyolardan unumli foydalanish tavsiya etiladi:

– **hayvonlar tasvirini yaratish.** Ma’lumki, o‘quvchilar hayvonlarni juda yoqtirishadi. Shuning uchun ularga hayvonlar haqida fikr yuritish nisbatan qulay. Yozma topshiriqning bu turi, avvalo, tasvirlanayotgan hayvon haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lishni, uning qayerda yashashi, tuzilishi, rangi, harakatlari, nimalar bilan oziqlanishi kabilarni bilishni talab etadi. Ayniqsa, o‘quvchi o‘zi ko‘rgan, kuzatgan hayvonlarni tasvirlashni xush ko‘radi.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning orzu-umidlari aks etgan insholardan ham foydalaniladi. "Agar men sehrgar bo'lsam", "Sinf doshim Oybek 20 yildan so'ng", "Men maktabimizni kelajakda qanday tasavvur qilaman?", "Men me'mor (o'qituvchi, shifokor) bo'lganimda...", "O'zbekiston XXI asr o'rtalarida" kabi mavzularda yoziladigan insholar o'quvchilarni ertangi kun haqida xayol surishga, o'ylashga da'vat etadi;

– **muayyan maskanni tasvirlash.** Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar shahar, qishloq, dala, sahro, cho'l kabi joylar tasvirini yaratishlari ham mumkin. Har bir joy o'ziga xos tasvirni talab etadi. Masalan, shahar yoki qishloq tasviri haqida fikr yuritilar ekan, uning umumiy ko'rinishi, diqqatga sazovor joylari, xalqi, ularning urf-odatları, sevimli mashg'ulotlari haqida fikr yuritiladi. Sahro haqida so'z borganda ko'proq unda yashaydigan hayvonot va o'simliklar olami haqida to'xtalishga to'g'ri keladi;

– **binoni tasvirlash.** Bino tasviri kuzatish asosida yaratiladi. Binoni tasvirlashning oddiy, ilmiy va badiiy shakllari mavjud. Binoning oddiy tasviri axborot tarzida bo'lib, asosan, uning hajmi, xonalarning yorug'lik darajasi, balandligi, uy jihozlari va ularning joylashtirilishi kabilar ko'rsatiladi. Ilmiy tasvirda bu belgilar ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Badiiy tasvir o'quvchi tafakkur imkoniyatlarini va estetik didini namoyon etadi;

– **tabiatni tasvirlash.** O'quvchilar 1-sinf dan boshlab "Atrofimizdagi olam" o'quv fanini o'rganadilar va tabiat tasvirini aks ettirishda qiynalmaydilar. Ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytiribgina qolmay, balki shu mavzuda tasviriy matn yaratish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Tabiat tasvirini yaratishda matn namunalari dan foydalanish mumkin. Chunonchi, mashhur so'z ustalari, yozuvchi va shoirlarning asarlaridan tabiat tasviriga oid o'rinlarni o'qib berish, matn namunalari ustida ishlash, ularning til xususiyatlarini tahlil qilish kabilar o'quvchilarning shu tipdagi matn yaratishlariga keng yo'l ochib beradi.

Ona tili mashg'ulotlarida, ayniqsa, tabiatning badiiy tasvirini yaratishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bunday insholar badiiy nutq imkoniyatlaridan unumli foydalanishni talab etadi.

Kuzatish tabiat tasvirini yaratishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan kuzatishlar

tasviriyl insho uchun boy material beradi. Bundan tashqari, suhbat o'tkazish, tabiat tasviriga oid rasmlar, diafilmlar, kinofilmlar va diapozitivlardan foydalanish ham inshoning bu turi uchun yetarlicha ma'lumot beradi;

– **insonning tashqi qiyofasini tasvirlash.** Ona tili mashg'ulotlarida portret tasviridan ham keng foydalanish mumkin. Tasvirning eng murakkab ko'rinishlaridan biri insonning tashqi qiyofasini aks ettirishdir. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi ota-onasi, aka-ukalari, sinfdoshlari, tanish-bilishlari, o'qigan badiiy asari, ko'rgan kinofilmi qahramonlarining tashqi qiyofasini tasvirlashi mumkin.

Tashqi qiyofa ifodasi ham tasviriyl inshoning boshqa turlari kabi ilmiy va badiiy ko'rinishlarga ega. Ilmiy tasvirda odamning yoshi, yuz tuzilishi, ko'zi, qulog'i, burni, sochining rangi, bo'yi, gavdasi kabilar aniq faktlarga asoslangan holda ko'rsatiladi. Badiiy tasvirda esa o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a kabi usullardan foydalaniladi;

– **harakatni tasvirlash.** Harakat tasvirini yaratish ham inshoning muhim turlaridan biridir. Bunday insholar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan ish-harakat mazmunini bayon qilishni talab etadi. Shu jihati bilan bunday insholar hikoya janriga yaqin turadi. Ammo bu insholarda tasviriyl hikoyaga qaraganda ustundir. Ilmiy insholarda harakatni tasvirlash uchun ko'proq axborotdan foydalaniladi. Bunday matnlarda maslahat, tavsiya, ta'kid kabilar asosiy o'rinni egallaydi. Badiiy insholarda ana shu harakatlarga badiiy bo'yoq beriladi. O'quvchi ba'zan hikoya usulidan foydalanib, o'zining ichki kechinmalarini ham, bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ham ifodalaydi.

Harakat tasvirining murakkabligini hisobga olib, avvalo, ishni o'quvchilarga tanish jarayonlarni tasvirlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Shubhasiz, kichik yoshli o'quvchilar dars tayyorlash, o'yin, maktab atrofini ko'kalamzorlashtirish, suzish kabi jarayonlarni tasvirlasalar, katta yoshli o'quvchilar murakkab ishlab chiqarish jarayonini tasvirleydilar.

Harakat tasviriga oid insholarning muhim qismini reportajlar tashkil etadi. Biror kundalik voqea-hodisa, ishlarning borish tafsilotini dalillar, jonli tasvirlar asosida yorituvchi kichik badiiy asar reportaj sanaladi. Unda voqea sodir bo'lgan joy, manzara, ishtirokchilar tasvirlanadi.

Ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilarni kichik reportajlar tayyorlashga oʻrgatib borish lozim. Ular sport musobaqalari, xalq sayllari bayramlaridan olib boriladigan kichik reportajlar tayyorlashlari mumkin. Reportaj mavzusi oʻquvchilar tomonidan tanlansa, u yanada qiziqarli boʻladi.

Tasviriy insholar ona tili mashgʻulotlarida keng tarqalgan insho turlaridan biri boʻlib, nutqni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi.

Oʻquvchilarning badiiy adabiyot ustida ishlashlari, hayotni, turmushni, tevarak-atrofni, odamlarni, hayvonot olamini doimiy ravishda sinchkovlik bilan kuzatishlari, oʻz taassurotlarini boyitib borishlari tasviriy insho yozishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Tasviriy insholarning aksariyati ijodiy xarakterda boʻladi. Ijodiy tasviriy insholar yaratishda kishilarning turlicha tasvirini ifodalovchi ijobiy boʻyoqli soʻzlar lugʻatini tuzish, sinfdoshining xatti-harakatini baholab maqola yozish kabi yozma topshiriqlar berilishi joizdir. Masalan, “Doʻstning tashqi qiyofasini tavsiflash”, “Men yaratgan bogʻ”, “Oʻzbekistonning yangi inshootlari” kabi mavzularda ijodiy-tasviriy insholar yozish mumkin.

4. Ertak, hikoya yozish. Maʼlumki, oʻquvchilar juda koʻp ertaklarni biladilar, ammo oʻzlari ertak yaratishga qiynaladilar. Bu ijodiy-amaliy ish turi oʻquvchilarning tasavvur olamini kengaytiradi, ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantiradi, ularni gʻaroyib voqea-hodisalar olamiga olib kiradi. Shuning uchun oʻqituvchi ona tili mashgʻulotlarida ijodiy ishning bu turidan unumli foydalanishi lozim. Oʻquvchilarni ertak yaratishga oʻrgatish, avvalo, ularni bu janrning oʻziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bolalar ertakda voqeaning tuguni, rivojlanish nuqtasi va yechimi qanday tugashini bilishlari, uning til xususiyatlaridan xabardor boʻlishlari, mubolagʻa, oʻxshatish, jonlantirish, kichraytirish kabi tasviriy vositalarni oʻz oʻrnida qoʻllash malakalariga ega boʻlishlari kerak. Boshlanish qismi berilgan ertaklarni davom ettirish, berilgan rasmlar asosida ertak yaratish, qahramonlar nutqi tushirib qoldirilgan oʻrinlarni toʻldirish kabilar oʻquvchilarning matn yaratish mahoratini oshiradi.

Hikoya kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etilgan nasriy asar sanaladi. Bu asar uch tarkibiy qismdan iborat: a) tugun; b) voqea-hodisaning rivojlangan nuqtasi; v) yechim.

Tugun – harakat boshlanadigan hodisalarning rivojlanishiga turtki boʻladigan voqeadir. **Voqea**-hodisaning rivojlangan nuqtasi ish-

harakat va kurashning keskinlashgan, avj olgan o'zni sanaladi. **Yechimda** bayon qilinayotgan voqea-hodisa o'z xotimasini topadi.

O'quvchilarga hikoya yaratishni o'rgatishning muhim shartlaridan biri voqea-hodisani tanlashga o'rgatishdir. Ular ko'pincha hayotda juda ko'p voqea-hodisalarga duch kelsalar-da, nimalar haqida yozish kerakligini bilmaydilar. Shuning uchun ko'proq o'quvchilar hayotidan olingan va rivoyat-inshoga material bo'la oladigan voqea-hodisalar ustida ishlash maqsadga muvofiqdir. Boshdan kechirilgan sarguzashtlar, eshitilgan, ko'rilgan, kuzatilgan voqea-hodisalar rivoya-insho uchun boy material bo'lib xizmat qiladi.

Maktabda o'quvchilar yaratadigan hikoyalar tur jihatidan xilma-xildir. Ana shulardan biri **sarguzasht-hikoya** sanaladi. Boshdan kechirilgan voqealar asosida hikoya yaratish, ayniqsa, 5-6-sinflarda ko'p qo'llaniladi. Bu hikoyalarda har bir o'quvchi o'z boshidan kechirgan voqea-hodisalar haqida fikr yuritadi. Masalan, "Yozning issiq kunlaridan birida", "Men ko'rgan voqea", "Ma'murjonga qanday yordam berdim?", "Yong'in bartaraf etildi" kabi mavzularda yoziladigan insholarda o'quvchilar ko'proq o'z sarguzashtlarini hikoya qilishlariga to'g'ri keladi.

Hikoya yozishning eng samarali usullaridan biri berilgan g'oya asosida matn tuzishdir. O'qituvchi va o'quvchilar tomonidan o'rta tashlangan g'oya insho uchun asosiy material bo'ladi. Muallif (o'quvchi) berilgan g'oyani kengaytiradi, voqea ishtirokchilarini tanlaydi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning orzu-umidlari aks etgan matnlardan ham foydalaniladi. "Agar men sehrgar bo'lsam...", "Yurtim kelajagi", "Men shifokor bo'laman" kabi mavzularda yoziladigan insholar o'quvchilarni ertangi kun rejalarini belgilashga o'rgatadi.

O'qituvchi o'z ijodkorligini ishga solib matn yaratishning yana boshqa turlarini ham o'ylab topishi mumkin. Matn bilan ishlashning afzalligi shundaki, unda o'quvchi-talabaning yozma va og'zaki nutqi rivojlanadi, nutq jarayonida so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olishga o'rgatiladi, ya'ni so'zning izohi, ma'no qirralari tahlil qilinadi, uslubiy jihatlari yoritiladi.

5. **Ko'p mutolaa qilish** yozma nutqni shakllantirish va takomillashtirishning muhim omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob

mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha Komissiya tuzish to'g'risida"gi №F-4789 sonli Farmoyishi kitob o'qish masalasidagi ijobiy natijalarni ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kitob mutolaasi, ayniqsa, badiiy asarlarni o'qish o'quvchi dunyoqarashini kengaytirishga, tafakkur darajasini oshirishga yordam beradi. Badiiy asar o'qish jarayonida o'quvchi voqea-hodisalar, qahramonlar haqida mulohaza yurita boshlaydi, bir vaqtning o'zida assotsiativ tafakkur imkoniyatlaridan foydalanib, analiz, qiyoslash, induktiv, deduktiv tahlillarni amalga oshiradi. Natijada o'quvchining tafakkuri rivojlanadi, fikrlash tezligi ortadi.

Har bir insho o'quvchi tomonidan yaratiladigan ijodiy ishdur. Ona tili va adabiyot darslarida hamda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos asarlarni tanlab o'qitish, qayta hikoya qildirish, rejalar tuzdirish o'quvchining xotirasini mustahkamlaydi. Shu bilan bir vaqtda ma'naviy jihatdan komillikka yetaklaydi. O'quvchi o'zi o'qib, reja tuzib, mustaqil ravishda insho yozadi. Buning uchun dastlab kichik-kichik ertaklar, hikoyalar o'qib berish, reja asosida qayta hikoya qildirish yaxshi natija beradi. O'quvchida atrofni kuzatish, tabiat hodisalariga munosabat bildirish, axloqiy fazilatlar va illatlarni ajrata olish tafakkuri shakllanishini nazorat qilib borish darkor.

O'quvchilarning voqealarni eslash, rasmlarga qarab hikoya tuza olish, o'qigan asarlari, ulardagi timsollarga tavsif berish, badiiy ifoda vositalaridan o'rinli foydalanish qobiliyat va imkoniyatlarining yuzaga chiqishi, albatta, izlanishi va ko'p o'qishi yordamida amalga oshadi.

She'r yod olish o'quvchi so'z boyligini orttirishga, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. She'rni ikki xil tarzda yodlash mumkin. Birinchisi, quruq yodlash, ya'ni ma'no-mazmunga e'tibor bermagan holda eslab qolish; bunda so'zning shakliy xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu tartibda yodlangan she'r tezda esdan chiqib ketadi. Ikkinchisi, so'z ma'nolari, misralar mazmuni asosida yod olingan she'r. Bu tartibdagi she'r yodlashda o'quvchi so'zlarni xotirada saqlab qolish uchun ma'nosiga, jumalarning mazmuniga ahamiyat beradi. She'rni yodlash davomida fikrlash jarayoni faol bo'ladi. Misralar ichki nutqqa aylantirilib, tafakkurga joylanadi. Insho yozish ko'nikmalarini hosil qilishda ikkinchi tartibdagi she'r yodlash usuli samarali hisoblanadi.

Maktub ham yozma nutq ko'nikmalarini hosil qilishda ahamiyatlidir. Samimiy yozilgan maktublar insonning suhbatdosh bilan o'zaro yuzlashganda ayta olmagan qalb so'zlarini izhor etishga imkon yaratadi. Texnika asrida SMS xabarlar ommalashib, deyarli, hech kim maktub yozmay qo'ydi. Shuni ta'kidlash kerakki, SMS xabarlarida imlo qoidalariga amal qilmaslik holatlari ko'p kuzatiladi. SMS xabarlarining bosh maqsadi ma'lumot uzatishdir. SMS matnlari orqali ko'ngil izhorlari bayon qilingan holatlar ham kuzatiladi. Lekin bunday matnlarda his-tuyg'u, qalb tug'yonlari to'liq aks etmaydi. Ruhiyatni, qalb-tug'yonlarini aks ettirishda maktublarning ahamiyati katta. Yosh bolaning qorboboga maktub yozayotgandagi holatini kuzatganimizda uning ruhiyatidagi quvonch, umid ifodasini his qilamiz. Bolaning shu holatini ezgulikka bo'lgan ishonchning ilk namunasi sifatida baholash mumkin. Shu tartibdagi maktub yozish tarzini, yozma tabriklarni davom ettirish maqsadga muvofiq: *masalan, ota-onaga bayram tabrigi, badiiy asar qahramoniga maktub, qorxat yozish, sevimli insonga maktub yoki bayram, tug'ilgan kun munosabati bilan tabrik nutqi* tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jonsiz narsalarga xat yozish (kitobga, telefonga, qisqasi, istalgan adresatga maktub yozish)da o'quvchi-talaba obyektga xuddi insonga murojaat qilayotgandek munosabatda bo'ladi, natijada obrazli tafakkur shakllanadi.

Mavhum tushunchalar (iymon, muhabbat, nafrat...)ga xat yozishda o'quvchi-talaba abstrakt tafakkurni jonlantiradi, reallashtiradi. Bunda o'quvchilarda tasvirlash ko'nikmalari takomillashadi.

O'quvchilarda o'z fikrini tinglovchining saviyasi, yoshi, mavqeyini hisobga olgan holda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun o'quvchilar bilan ayni bir fikrni o'zidan kichiklarga, tengqurlarga, o'zidan kattalarga, yaqinlarga, yaqindan tanish bo'lmagan shaxslarga ifodalash ustida muntazam ishlashlari kerak bo'ladi. Bolalarni maktublar yozishga o'rgatish ayni bir fikrni turli kishilarga turli xilda bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchi inshoni mustaqil yozishi, inshoning asosiy mazmunini yozishdan avval unga kirish so'zlari va yakunlashda bayon qilingan fikrlardan xulosa qila olishi lozim.

Insho orqali o‘tkaziladigan nazoratda o‘quvchining yozma nutqi silliq, ravon, ta’sirchan, ifodali va sheva elementlaridan xoli bo‘lmog‘i kerak.

Insho o‘quvchining ona tilidan egallagan bilimlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Til hodisalari insho orqali o‘quvchining ijodiy-amaliy faoliyatiga ko‘chadi. Shuning uchun ona tili o‘qituvchilari darsda mustaqil ishning bu muhim turiga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Inson hamma fikrini ham qog‘ozga tushira olavermaydi. Miyaning nutq mexanizmini boshqaradigan qismi faolligi ham yozma topshiriqlarning sifati bilan bog‘liq. Yozma va og‘zaki nutq rivoji miyadagi nutq mexanizmiga aloqador. Fikrlash tezligi, jummalarni tez fursatda, maqsadga muvofiq tuza olish yillar davomidagi mashqlar natijasida shakllanadi.

INSHO YOZISH UCHUN TAVSIYALAR

Insho savodxonlik darajasini tekshirishning sinalgan usullaridan biri sanaladi. Yaxshi insho yozish uchun yozuvchi bo‘lish shart emas. Insho yozish – bu ijodiy jarayon. Bu jarayonni bir necha qismlarga bo‘lib, insho yozishni ancha soddalashtirib olish mumkin. Aqlingizni ishga solib, asosiy g‘oyalarni aniqlash, ularni qoralamaga yozib qo‘yish va shu asosda ajoyib ijod namunasini yaratish mumkin.

Inshoga tayyorlanish uchun tavsiyalar

Insho rejasi, dastavval, qoralama nusxada tuziladi. Fikrlar izchillik asosida, aniq va ixcham shakllarda bayon qilinadi. Qoralama nusxani haddan tashqari bo‘yab, inshoni o‘ta e’tiborsizlik bilan yozish to‘g‘ri emas.

Qoralamangizni ovoz chiqarib o‘qing. Ishni baholash va uni tekshirishga yaroqliligini aniqlashning eng yaxshi usuli – o‘tirib olish va uni ovoz chiqarib o‘qishdir. Qaysi joyini o‘zgartirish, izohlash yoki tuzilishini o‘zgartirish kerak bo‘lsa, o‘qiyotgan vaqtingizda barchasini chetlab o‘ting. O‘qib bo‘lgach, orqaga qaytib, belgilab qo‘ygan joylaringizni to‘g‘rilab chiqing. Bu usul sinov, nazorat insholariga tayyorgarlik jarayonida amalga oshiriladi.

10 daqiqa to‘xtamasdan yozib ko‘ring. Muayyan mavzu borasidagi shaxsiy fikrlaringizni ifodalashdan tortinmang.

“Klaster” yoki “doiralar” mashqini qilib ko‘ring. Agar sizda g‘oyalar ko‘p bo‘lsa va nimadan boshlashni bilmayotgan bo‘lsangiz, u holatda fikrni ifodalash sxemasi sizga yordam beradi. Bu umumiydan xususiyga o‘tishingizga, har qanday inshoning asosiy qismini aniqlashga yordam beradi.

Oq qog‘ozga yoki doskaga sxemani chizing. Har bir masalani doira shaklida bering. Tayanch sxemada doiralar yetarli, deb hisoblamasangiz, ularni qo‘shib borishingiz mumkin. Qog‘ozning markaziga insho mavzusini yozing va uni doiraga oling. Masalan, mavzuingiz “Layli va Majnun” dostoni haqida. Markaziy doira atrofiga asosiy g‘oya yoki fikrlaringizni yozing. Sizni “Qaysning Majnunga aylanishi”, “Layli timsoli”, “Oilaviy nizolar” qiziqtirgan bo‘lishi mumkin. Asosiy g‘oyalarni qancha xohlasangiz, shuncha yozing. Yoki “Ruhlar isyoni” dostoni haqidagi mavzuni tanlasangiz, “Nazrul Islom timsoli”, “Abadiyat haqida rivoyat”, “Rivoyatlarning Nazrul Islom taqdiriga hamohangligi” kabi tezislarni belgilashingiz mumkin.

Har bir asosiy g‘oyaning atrofiga aniqroq masalalar yoki fikr-mulohazalaringizni yozing. Ularning aloqadorligini toping. Qayerda aloqadorlikni topgan bo‘lsangiz, bu doiralarni chiziqlar bilan birlashtirib chiqing. Yaxshi insho xronologik tartibda emas, balki asosiy g‘oyalar asosida yuzaga keladi. Asosiy g‘oyalarni shakllantirish uchun birlashtirib chiqilgan doiralardan foydalaning.

Inshoning qoralamasini yana bir bor o‘qib chiqing: unda mavzu yetarli darajada yoritilganmi? Rejada ko‘rsatilgan bo‘limlar to‘liq yoritilmagan bo‘lsa, ularni to‘ldiring. Bunda mavzu (sarlavha) bilan insho mazmunining mos kelishiga ahamiyat bering.

Inshoning tili (bayon uslubi)ga alohida e‘tibor bering. Sizning fikr-mulohazalaringiz qay tarzda ifodalangan: tilda badiiylik, ta’sirchanlik, ixchamlik va jozibadorlikka erishdingizmi? Yozilishi qiyin so‘zlarni «Imlo lug‘ati» asosida tekshirib chiqing. Zarur o‘rinlarda tuzatishlar kiriting va inshoni oqqa ko‘chiring.

Yaratilgan matnni belgilangan tartibda tahrir qilishingiz kerak. Har bir yozma ish tugallangandan so‘ng, uni ifodali tarzda boshqalarga yetkazishingiz, o‘zgalarning unga munosabat bildirishlari muhimdir. Insho matnini qat’iy tarzda tekshirishingiz va xatolar ustida

ishlashingiz lozim. Buning uchun sizdan doimiy ravishda imlo lug‘ati ustida ishlash talab etiladi.

Ma‘lumki, o‘quvchi o‘z ishidagi xatolarni aniqlashdan ko‘ra, o‘zgalar ishidagi xatolarni tezroq topadi. Shuning uchun nazorat insholaridan boshqa paytlarda ba‘zida bir-birlaringizning ishlaringizni tekshirishingiz ham mumkin.

Inshoni yozishda vaqt bo‘yicha hech qanday cheklov yo‘qligini unutmang, shuning uchun shoshilmasdan va tortinmasdan o‘z fikrlaringizni bayon eting.

Nazorat insholarini yozish uchun tavsiyalar

I. Dastlabki qadam.

1. Qaysi mavzu bo‘yicha insho yozishingizni puxta o‘ylab oling. Insho mavzusini diqqat bilan o‘qing. Inshodan nima kutilayotganini aniq bilib oling va quyidagilarni nazardan chetda qoldirmang:

- insho mavzusining maqsadi;
- inshoning asosiy yo‘nalishi; adabiy yoki erkin mavzuda ekanligi;

- insho hajmiga qo‘yiladigan talablar.

2. Fikrlaringizni shakllantirish uchun reja tuzing. Reja tuzishda mavzu bo‘yicha asosiy g‘oya va dalillardan foydalaning.

3. Reja asosidagi fikrlaringizni tezis sifatida shakllantiring. Insho bo‘yicha eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlarni yig‘ib chiqing.

4. Insho mavzusini yoritish uchun o‘zingizga ma‘qul kelgan usulni tanlang.

5. Insho yozayotganda fikrlarning izchilligiga, insho materiallarining aniq va qisqa shakllarda berilayotganligiga alohida e‘tibor berib boring. Insho mavzusiga oid materiallarni, masalan, ijodkor, uning hayoti va faoliyati, yozgan asarlari, siz insho yozmoqchi bo‘lgan asar, uning yozuvchi ijodida tutgan o‘rni, asarning mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishlari, bosh obrazlar, asardagi voqealar, asar qahramonlarining xarakteri yuzasidan insho yozish uchun birinchi navbatda kerak bo‘ladigan holatlarni eslang, so‘ngra ularni qog‘ozga tushiring.

II. Qoralamadan unumli foydalaning.

Insho quyidagi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi.

1. Inshoning qoralama (xomaki) nusxasini tayyorlash.

2. Matnni oqqa ko‘chirib yozish.

O'quvchilar insho yozish uchun berilgan vaqt mobaynida tavsiya qilingan insho mavzularidan birini tanlab, mazkur mavzu bo'yicha o'zlarining fikr va mulohazalarini qoralab olishlari kerak.

Inshoning qoralama nusxasi ishning dastlabki bosqichi bo'lganligi uchun unda o'chirilgan, so'zlarning tartibi almashtirilgan, jumlar tuzatilgan o'rinlarning bo'lishi tabiiy. Qoralama nusxadagi bunday tuzatishlar ish tekshirilayotganda hisobga olinmaydi. Insho tekshiruvchi, ba'zi hollarda oq nusxadagi jumlalarining g'alizligini aniqlashtirish maqsadida qoralama nusxaga solishtirishi ham mumkin. Bu esa amaldagi qoidalarga muvofiq bo'ladi.

Inshoning qoralama nusxasi tayyor bo'lgach, uni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qiyotganingizda quyidagi holatlarga e'tibor qiling. Insho mavzusi yetarlicha yoritilganmi? Inshoning mazmuni talabga javob beradimi? Inshoda ortiqcha so'z va gaplar yo'qmi? Agar shunday so'z va gaplarga duch kelsangiz ularni insho matnidan chiqarib tashlang, bo'sh ko'ringan o'rinlarni to'ldiring.

Insho mavzusini yoritishda iloji boricha o'rinsiz so'z va iboralardan qochish, mujmal hamda noaniq fikrlarni bayon qilmaslik lozim. Sodda va ixcham so'zlardan, gaplardan foydalanish, bayon qilingan fikr va mulohazalarni dalillar bilan isbotlash inshoning qadr-qimmatini oshirish uchun xizmat qilishi tabiiy. Inshodagi fikrlar, albatta, xulosalanishi shart. Inshoni baholash paytida oq nusxadagi mazmun va savodxonlik hisobga olinadi.

Sinov, nazorat insholarini yozish muayyan vaqt ichida amalga oshadi. O'quvchi berilgan mavzuga doir fikrlarni jamlab, tartibga solib, keyin qog'ozga tushiraman, desa, vaqt yo'qotishi mumkin. Shuning uchun qoralamadan unumli foydalanishi kerak. Qoralama nafaqat inshoning xomaki matnini tuzish uchun, balki fikrni jamlash uchun ham zaruriy vositadir. Mavzu haqida ruchkani qo'yib, qo'l qovushtirgancha fikrlash u qadar maqbul emas. Negaki bu tarzda o'ylash uzoq davom etishi, insho uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, ruchkani qo'ldan qo'ymagan holda yozib fikrlash lozim. Bunday holda "keraksiz" deb baholangan jumlar o'quvchi uchun zarur fikrga yo'l ochadi.

Ba'zan tug'ilayotgan fikrlar reja bandlari tartibiga mos kelmasligi mumkin. Shunga qaramay, mazkur fikrni yozma nutqda aks ettirish zarur, tahrir jarayonida, oqqa ko'chirish davomida izchillikni tiklash mumkin.

Miyaga kelgan (aslida shakllangan) fikr shaxsning o'ziga tegishli bo'lgani uchun doim yodida turadigandek tuyuladi. Ammo aksariyat fikrlar chaqmoqqa o'xshab yarq etadi-yu, yo'q bo'ladi. Bunday fikrlarni shu ondayoq qog'ozga tushirish lozim. Shu ma'noda, ijodkorlarning mudom qog'oz-qalam bilan yurishi ohori to'kilmagan fikr, g'oyalarning yozma nutqda aks etishini ta'minlaydi.

3. Xayolingizga nima kelsa, barchasini yozing yoki ba'zi g'oyalaringsizni qog'ozga yozib qo'yish uchun jurnal tuting. Agar siz birinchi marta insho yozishga urinayotgan bo'lsangiz, mavzuni yoritishning eng yaxshi yo'li o'ylayotgan barcha fikrlaringizni qog'ozga tushiring. Buni hech kim ko'rmasligi lozim, shuning uchun o'z fikrlaringizni erkin bayon eting va natijaga e'tibor bering.

4. Beshlik qoidasi. Ba'zi o'qituvchilar insho yozish uchun "beshlik qoidasi" yoki "besh xatboshi"ga asoslanadi. Ya'ni inshoda quyidagi 5 qismning bo'lishini yoqlashadi:

- Kirish qismi, unda mavzu tavsiflanadi va masala umumlashtiriladi, dalil namoyish etiladi.

1-asosiy paragraf. Bu qismda birinchi dalil ifodalanadi va isbotlanadi.

2-asosiy paragraf. Bu qismda ikkinchi dalil ifodalanadi va isbotlanadi.

3-asosiy paragraf. Bu qismda oxirgi dalil ifodalanadi va isbotlanadi.

- Xulosalovchi paragraf. Dalillar umumlashtiriladi.

Bu qat'iy qoida emas va siz aniq "5" sonida to'xtab qolishingiz shart emas, lekin bu usul dalillarni yozishda va o'z fikrlaringizni shakllantirishingizda foyda berishi mumkin. Inshoda o'zingizning asosiy dalilingizni isbotlash uchun kamida 3 xil nuqtayi nazarni kiritishga harakat qiling.

5. Asosiy g'oyalaringsizni ikki xil isbot usuli bilan mustahkamlang. Tezis dalillarga asoslanishi lozim. Har bir fikr isbotning ikki usuli – dalillar va faktlar bilan mustahkamlanish talab etiladi. Faktlar siz yozayotgan insho bo'yicha kitobdagi aniq sitatalarni o'z ichiga oladi. Masalan, Majnun timsoli xarakterini yoritish kerak bo'lganida uning so'zlaridan sitata keltirish va tavsif berish lozim. Dalillar sizning mantiq va mulohazangizga asoslanadi. Qaysning ruhiyati qaysi o'rinlarda namoyon bo'lgan? Uning nutqidagi

qaysi jihatlarga e'tibor berish lozim? O'z nuqtayi nazarinigizni mantiq asosida tushuntiring va siz mustahkam isbotga ega bo'lgan dalilni namoyon qilasiz.

6. Javob berish lozim bo'lgan savollar haqida o'ylang. Insho yozuvchilarning keng tarqalgan shikoyati shuki, ular aniq mavzu bo'yicha fikr yuritishni bilishmaydi. O'quvchi berishi mumkin bo'lgan savollarni o'zingizga berib ko'ring, qoralamada bu savollarga javob yozing va shu tarzda oldindan material to'plab qo'ying.

Masalan, Laylining o'limi tasviri qanday berilganligi haqida o'zingizdan so'rang. Bunga boshqa personajlarning munosabati qanday? O'quvchi o'zini qanday his qilishi lozim? Nima uchun Navoiy qahramonini o'z erkiga qo'yib beradi? O'ldirmasdan, tirik qoldirsa bo'lmasmidi? Qays nega o'lishi kerak? Dostonni uning o'limisiz yaratish mumkinmidi?

7. Juda aqlli bo'lib ko'rinishdan tortinmang. Insho yozuvchi ko'plab o'quvchi-talabalarning yo'l qo'yadigan xatolaridan biri shuki, ular so'zlarni soddaroq qo'llash uchun ko'p vaqt sarflashadi.

8. Qoralama nusxani shakllantirishda obdon o'ylab, fikrlar nihoyasiga yetgach, qoralama nusxadagi matnni shoshmasdan, husnixat bilan oqqa ko'chirib yozish tavsiya etiladi. Oqqa ko'chirish jarayonida amaldagi husnixat qoidalariga va insho yozishning o'ziga xos tartiblariga qat'iy rioya qilish kerak.

Agar talaba tomonidan maqsadli ravishda yuqoridagi qoidalarga amal qilinmagan bo'lsa, maxsus belgilar qo'yilgan bo'lsa, bunday insholarga «qoniqarsiz» baho qo'yiladi. Inshoning oq nusxasida o'chirilgan va ustiga yozib qo'yilgan joylar bo'lmasligi lozim. Insho yozilgan daftar muqovasiga ham turli xil belgilar qo'yilmaydi.

Inshoning sarvarag'iga o'quvchining ism-sharifi yoki unga aloqador bo'lgan so'zlar amaldagi tartib-qoidalar asosida yozib qo'yilishi shart.

Insho yozib bo'lingandan so'ng u o'quvchi tomonidan diqqat bilan o'qib chiqiladi va har ikkala nusxa sarvara bilan birgalikda topshiriladi.

O'quvchilarga belgilab berilgan insho mavzularidan tashqariga chiqish, insho mavzularini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish, o'zlari xohlagan mavzu bo'yicha insho yozish huquqlari berilmaydi.

III. Tahrir qilish

1. Ishingiz borasidagi mulohazalarni eshiting. Yetarli hajmdagi matnni yozgach, uni tugatdim, deb hisoblash to'g'ri emas. Bir muddat ishingizni to'xtatib, qaytib yana unga murojaat qilganingizda endi boshqa nigoh bilan qaraysiz. Shubhasiz, inshoga ba'zi o'zgartirishlar kiritishni xohlaysiz.

Qoralamaga yozib, uni muddatiga qarab o'qituvchingizga o'qishga berib ko'ring. Bergan barcha izohlarini hisobga oling va zarur bo'lgan o'zgartirishlarni kiriting.

2. O'zgartirishlar kiritishga tayyor bo'ling. Yaxshi yozma ish tezda tayyor bo'lmaydi. "Tekshirish" so'zi "yana bir marta sinchiklab qarab chiqish"ni anglatadi. Aksariyat o'quvchi-talabalar *tekshirish* deganda orfografik va punktuatsion xatolarnigina tushunadilar. Bu tekshirishning bir qismi sanalsa-da, hech bir muallif bir urinishdayoq ko'ngildagidek matn yarata olmasligini bilish lozim. Sinab ko'ring:

- insho strukturasi yanada yaxshilash uchun xat boshilarni o'zgartiring.
- qaytarilgan yoki mavzuga aloqador bo'lmagan jummalarni olib tashlang.
- fikringizni dalillashga xizmat qilmaydigan nuqtayi nazarlardan voz keching.

3. Umumiylikdan xususiylikka o'ting. Tekshirish vaqtida qoralamani yaxshilashning eng yaxshi usullaridan biri – umumiy xarakterga ega bo'lgan g'oyalarga aniqlik kiritishdir. Bu isbotlarning qo'shilishi – sitata yoki dalillarni keltirish yo'li bilan ifodalanishi mumkin. Shuningdek, tezisingizni yanada mustahkamlovchi umuman boshqa nuqtayi nazar va isbotlarni qidirish bilan ham bog'liq bo'ladi.

4. Oxirgi bosqichda tahrir qiling. Insho topshirishga tayyor bo'lmaguncha, tinish belgilari va imlo xatolaridan xavotirlanmang. Sintaktik muammolar, orfografik xatolarni mazmun tahriridan so'ng tuzating. Inshoning muhim qismlari – tezis, asosiy g'oyalar va dalillar sayqallangach, to'g'rilang.

Yozilgan inshoni mukammal holga keltirish uchun o'quvchi uni diqqat bilan o'qishi, mazmun, imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolar ustida ishlash bilan birga ularni tuzatish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Aziz o'quvchilar, inshoni yozish paytida quyidagi holatlarga e'tibor bersangiz, bularning sizga foydasi tekkan bo'lar edi:

1) tuzilayotgan jumalarning qisqa va aniq bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak. Uzun jumalar fikringizni chalg'itadi, xatolarga sabab bo'ladi;

2) insho mazmuni materiallarni bayon qilish uslubi bilan chambarchas bog'liq ekanligini unutmang;

3) insho mavzusi bilan bog'liq materiallarni bayon qilayotganingizda izchillikka qat'iy rioya qiling. Insho mavzusiga aloqador shaxslarning nomlarini, badiiy asarlardan olingan parchalarni, tarixiy faktlarni, toponimik atamalarni yozishda amaldagi imlo qoidalaridan kelib chiqqan holda ish ko'ring;

4) inshoni yuksak savodxonlik bilan yozishga harakat qiling;

5) tinish belgilarining ishlatilish o'rinlariga diqqat qiling. Ularning shakllari aniq va ko'rinarli bo'lsin.

6) insho husnixat qoidalariga muvofiq ravishda yozilishi lozim.

7) insho boshqalarga xalal bermasdan, umumiy tartib-intizomga rioya qilgan holda yoziladi;

8) tayyor yozilgan, trafaret usulidagi insholardan foydalanishga harakat qilmang. Ular sizni adashtiradi, fikrlaringizdan chalg'itadi.

Yuqoridagi aytilganlarga rioya qilsangiz, o'z mulohazalaringizni dadil va qo'rqmasdan bayon qilsangiz, yaxshi bahoga loyiq insho yoza olasiz.

Imtihon yoki sinov insholari belgilangan vaqtda yozilishi talab etiladi. Shuning uchun vaqtni to'g'ri taqsimlashingiz va undan unumli foydalanishingiz kerak bo'ladi.

INSHONI BAHOLASH MEZONLARI

Yozma ishni baholashda o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodkorligi, voqea-hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabati va savodxonligi hisobga olinadi.

Insho muayyan mezonlar asosida baholanadi.

Quyida inshoni **30, 75,6, 100** balli tizim asosida baholash mezonlari keltirildi:

30 balli tizim asosidagi baholash mezonlari

Insho matnining savodxonlik darajasini baholash mezonlari¹⁵

№	Insho matniga qo‘yiladigan savodxonlik talablari	Maksimal - 15 ball
1.	Insho matni adabiy til me‘yorlariga amal qilib, badiiy uslub talablari asosida yozilgan, sheva so‘zlari noo‘rin qo‘llanmagan bo‘lsa–	1 ball
2.	Matnda imlo xatolariga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa –	5 ball
Inshodagi imlo xatolari quyidagicha baholanadi: 1 ta imlo xatosiga– 4 ball; 2 ta imlo xatosiga – 3 ball; 3 ta imlo xatosiga – 2 ball; 4 ta imlo xatosiga – 1 ball. Imlo xatosi 5 ta va undan ortiq bo‘lsa– 0 ball qo‘yiladi.		
3.	Matnda uslubiy xato bo‘lmasa; fikr bayonida uslubga muvofiq bo‘lmagan takrorlarga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa –	4 ball
Inshodagi uslubiy xatolar quyidagicha baholanadi: 1 ta uslubiy xatoga – 3 ball; 2 ta uslubiy xatoga – 2 ball; 3 ta uslubiy xatoga – 1 ball. Uslubiy xato 4 ta va undan ortiq bo‘lsa– 0 ball qo‘yiladi.		
4.	Matnda tinish belgilari xatosi bo‘lmasa –	2 ball
Inshodagi tinish belgilariga oid xatolar quyidagicha baholanadi: 4 ta punktuatsion xatogacha – 1 ball. Tinish belgilari xatosi 5 ta va undan ortiq bo‘lsa– 0 ball qo‘yiladi.		
5.	Harflarning aniq, to‘g‘ri ifodalanishi talab darajasida bo‘lsa, insho matni husnixat bilan bitilgan bo‘lsa –	1 ball
6.	Fikr aniq, to‘g‘ri, maqsadga muvofiq ifodalangan bo‘lsa –	1 ball
7.	Insho hajmi talab darajasida bo‘lsa –	1 ball

¹⁵ Ushbu ballarni belgilashda Respublika fan olimpiadalari, qabul imtihonlaridagi ballar miqdoriga asoslanildi. Mazkur baholash mezonlari Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan (2017-yil 28-aprel, 9-sonli bayonnoma). Boshqa balli tizim insholarini baholashda ushbu mezondan ballar miqdorini o‘zgartirgan holda foydalanish mumkin.

Insho matnining savodxonlik darajasini baholash mezonlariga izoh:

o'quvchi bir so'zni (masalan, *axloq* so'zini) ikki yoki uch o'rinda xato yozsa, 1ta imlo xatosi hisoblanadi. Agar bir necha so'zni xato yozgan bo'lsa, xatolar bir xil tipda– **x** va **h** imlosi bilan bog'liq bo'lsa ham umumlashtirilmaydi. Negaki o'quvchining savodxonlik darajasi har bir so'zning yozilishi, mohiyatini bilishi nuqtayi nazaridan baholanadi. Demak, o'quvchi *ruxsat* so'zini *ruhsat*, *tahlika* so'zini *taxlika*, *mahorat* so'zini *maxorat* tarzida yozsa, uchta imlo xatosiga yo'l qo'ygan bo'ladi.

Tinish belgilari xatosini vergul, tire yoki ikki nuqta bilan bog'lab umumlashtirish ma'qul emas. Agar o'quvchi undalmadan keyin vergul qo'ymagan, kirish so'zni vergul bilan ajratmagan, uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'ymagan bo'lsa, tinish belgisi qo'yilishining uch holati bilan bog'liq qoidadan bexabar va uchta punktatsion xatoga yo'l qo'ygan hisoblanadi.

Bo'g'in ko'chirishda yo'l qo'yilgan xatolarni bir xato sifatida umumlashtirish mumkin.

Insho mazmunini baholash mezonlari

No	Insho matni mazmuniga qo'yiladigan talablar	Maksimal – 15 ball
1.	Reja mazmunan izchil, mantiqan mavzuga mos, mavzuning asosiy mohiyatini o'zida aks ettirgan bo'lsa –	1 ball
2.	Insho matni rejaga mos, reja asosida izchil, ravon bayon etilgan bo'lsa, reja bandlarining uzviyligi saqlangan bo'lsa –	2 ball
3.	Matn mazmuni mavzuga mos va batafsil yoritilgan, insho matni mantiqan kirish, asosiy, xulosa qismlari asosida shakllantirilgan bo'lsa, asosiy qism insho hajmining 70-80 foizini tashkil etsa, mavzudan chetga chiqilmagan bo'lsa–	3 ball
4.	a) adabiy mavzudagi inshoda asarnig milliy o'ziga xosligi va umuminsoniy mohiyati ochib berilgan bo'lsa–	2 ball

	b) erkin mavzudagi inshoda muallifning mustaqil fikri aks etgan bo'lsa, o'ziga xos yondashuv sezilib tursa –	
5.	Insho yozishda faktik materiallardan o'rinli foydalanilgan bo'lsa, ko'chirmalar, buyuk mutafakkirlar, taniqli shaxslar fikri keltirilgan, insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materiallar singdirilgan bo'lsa –	3 ball
6.	Matn mazmunining badiiyligini ta'minlash, ta'sirchanlik darajasini oshirish uchun obrazli ifodalar, iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlardan keng foydalanilgan bo'lsa –	2 ball
7.	Mavzu mantiqiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, faktik xatolar, noto'g'ri fikrlarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa–	1 ball
8.	Mavzu hozirgi davr bilan bog'lab yoritilgan bo'lsa –	1 ball

75,6 balli tizim asosidagi baholash mezonlari

Insho matnining savodxonlik darajasini baholash mezonlari

No	Insho matniga qo'yiladigan savodxonlik talablari	Maksimal - 37,8 ball
1.	Insho matni adabiy til me'yorlariga amal qilib, badiiy uslub talablari asosida yozilgan, sheva so'zlari noo'rin qo'llanmagan bo'lsa–	3 ball
2.	Matnda imlo xatolariga yo'l qo'yilmagan bo'lsa –	10 ball
Inshodagi imlo xatolari quyidagicha baholanadi: 1 ta imlo xatosiga– 9 ball; 2 ta imlo xatosiga – 8 ball; 3 ta imlo xatosiga – 7 ball; 4 ta imlo xatosiga – 6 ball; 5 ta imlo xatosiga – 5 ball; 6 ta imlo xatosiga – 4 ball; 7 ta imlo xatosiga – 3 ball; 8 ta imlo xatosiga – 2 ball;		

9 ta imlo xatosiga – 1 ball. Imlo xatosi 10 ta va undan ortiq bo‘lsa– 0 ball qo‘yiladi.		
3.	Matnda uslubiy xato bo‘lmasa; fikr bayonida uslubga muvofiq bo‘lmagan takrorlarga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa –	8 ball
Inshodagi uslubiy xatolar quyidagicha baholanadi: 1 ta uslubiy xatoga – 7 ball; 2 ta uslubiy xatoga – 6 ball; 3 ta uslubiy xatoga – 5 ball; 4 ta uslubiy xatoga – 4 ball; 5 ta uslubiy xatoga – 3 ball; 6 ta uslubiy xatoga – 2 ball; 7 ta uslubiy xatoga – 1 ball. Uslubiy xato 8 ta va undan ortiq bo‘lsa– 0 ball qo‘yiladi.		
4.	Matnda tinish belgilari xatosi bo‘lmasa –	9 ball
Inshodagi tinish belgilariga oid xatolar quyidagicha baholanadi: 1 ta punktuatsion xatoga – 8 ball; 2 ta punktuatsion xatoga – 7 ball; 3 ta punktuatsion xatoga – 6 ball; 4 ta punktuatsion xatoga – 5 ball; 5 ta punktuatsion xatoga – 4 ball; 6 ta punktuatsion xatoga – 3 ball; 7 ta punktuatsion xatoga – 2 ball; 8 ta punktuatsion xatoga – 1 ball. Tinish belgilari xatosi 9 ta va undan ortiq bo‘lsa– 0 ball qo‘yiladi.		
5.	Harflarning aniq, to‘g‘ri ifodalanishi talab darajasida bo‘lsa, insho matni husnixat bilan bitilgan bo‘lsa –	2,8 ball
6.	Fikr aniq, to‘g‘ri, maqsadga muvofiq ifodalangan bo‘lsa	3 ball
7.	Insho hajmi talab darajasida bo‘lsa –	2 ball

Insho mazmunini baholash mezonlari

№	Insho matni mazmuniga qo'yiladigan talablar	Maksimal - 37,8 ball
1.	Reja mazmunan izchil, mantiqan mavzuga mos, mavzuning asosiy mohiyatini o'zida aks ettirgan bo'lsa –	4 ball
2.	Insho matni rejaga mos, reja asosida izchil, ravon bayon etilgan bo'lsa, reja bandlarining uzviyligi saqlangan bo'lsa –	5 ball
3.	Matn mazmuni mavzuga mos va batafsil yoritilgan, insho matni mantiqan kirish, asosiy, xulosa qismlari asosida shakllantirilgan, insho mustaqil ijodiy fikrlash, dalillar asosida, ravon va savodli yozilgan bo'lsa, asosiy qism insho hajmining 70-80 foizini tashkil etsa, mavzudan chetga chiqilmagan bo'lsa–	10 ball
4.	a) adabiy mavzudagi inshoda asarning milliy o'ziga xosligi va umuminsoniy mohiyati ochib berilgan bo'lsa– b) erkin mavzudagi inshoda muallifning mustaqil fikri aks etgan bo'lsa, o'ziga xos yondashuv sezilib tursa–	4 ball
5.	Insho yozishda faktik materiallardan o'rinli foydalanilgan bo'lsa, ko'chirmalar, buyuk mutafakkirlar, taniqli shaxslar fikri keltirilgan bo'lsa– insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materiallar singdirilgan bo'lsa–	3,8 ball
6.	Matn mazmunining badiiyligini ta'minlash, ta'sirchanlik darajasini oshirish uchun obrazli ifodalar, iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlardan keng foydalanilgan bo'lsa –	4 ball
7.	Mavzu mantiqiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, faktik xatolar, noto'g'ri fikrlarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa–	3 ball
8.	Mavzu hozirgi davr bilan bog'lab yoritilgan bo'lsa –	4 ball

100 balli tizim asosidagi baholash mezonlari

Insho matnining savodxonlik darajasini baholash mezonlari

№	Insho matniga qo'yiladigan savodxonlik talablari	Maksimal - 50 ball
1.	Insho matni adabiy til me'yorlariga amal qilib, badiiy uslub talablari asosida yozilgan, sheva so'zlari noo'rin qo'llanmagan bo'lsa –	5 ball
2.	Matnda imlo xatolariga yo'l qo'yilmagan bo'lsa –	14 ball
Inshodagi imlo xatolari quyidagicha baholanadi: 1 ta imlo xatosiga – 13 ball; 2 ta imlo xatosiga – 12 ball; 3 ta imlo xatosiga – 11 ball; 4 ta imlo xatosiga – 10 ball; 5 ta imlo xatosiga – 9 ball; 6 ta imlo xatosiga – 8 ball; 7 ta imlo xatosiga – 7 ball; 8 ta imlo xatosiga – 6 ball; 9 ta imlo xatosiga – 5 ball; 10 ta imlo xatosiga – 4 ball; 11 ta imlo xatosiga – 3 ball; 12 ta imlo xatosiga – 2 ball; 12 ta imlo xatosiga – 1 ball. Imlo xatosi 13 ta va undan ortiq bo'lsa – 0 ball qo'yiladi.		
3.	Matnda uslubiy xato bo'lmasa; fikr bayonida uslubga muvofiq bo'lmagan takrorlarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa –	10 ball
Inshodagi uslubiy xatolar quyidagicha baholanadi: 1 ta uslubiy xatoga – 9 ball; 2 ta uslubiy xatoga – 8 ball; 3 ta uslubiy xatoga – 7 ball; 4 ta uslubiy xatoga – 6 ball; 5 ta uslubiy xatoga – 5 ball; 6 ta uslubiy xatoga – 4 ball; 7 ta uslubiy xatoga – 3 ball;		

8 ta uslubiy xatoga – 2 ball; 9 ta uslubiy xatoga – 1 ball Uslubiy xato 10 ta va undan ortiq bo‘lsa – 0 ball qo‘yiladi.		
4.	Matnda tinish belgilari xatosi bo‘lmasa –	12 ball
Inshodagi tinish belgilariga oid xatolar quyidagicha baholanadi: 1 ta punktuatsion xatoga – 11 ball; 2 ta punktuatsion xatoga – 10 ball; 3 ta punktuatsion xatoga – 9 ball; 4 ta punktuatsion xatoga – 8 ball; 5 ta punktuatsion xatoga – 7 ball; 6 ta punktuatsion xatoga – 6 ball; 7 ta punktuatsion xatoga – 5 ball; 8 ta punktuatsion xatoga – 4 ball; 9 ta punktuatsion xatoga – 3 ball; 10 ta punktuatsion xatoga – 2 ball; 11 ta punktuatsion xatoga – 1 ball. Tinish belgilari xatosi 12 ta va undan ortiq bo‘lsa – 0 ball qo‘yiladi.		
5.	Harflarning aniq, to‘g‘ri ifodalanishi talab darajasida bo‘lsa, insho matni husnixat bilan bitilgan bo‘lsa –	3 ball
6.	Fikr aniq, to‘g‘ri, maqsadga muvofiq ifodalangan bo‘lsa	4 ball
7.	Insho hajmi talab darajasida bo‘lsa –	2 ball

Insho mazmunini baholash mezonlari

No	Insho matni mazmuniga qo‘yiladigan talablar	Maksimal - 50 ball
1.	Reja mazmunan izchil, mantiqan mavzuga mos, mavzuning asosiy mohiyatini o‘zida aks ettirgan bo‘lsa –	4 ball
2.	Insho matni rejaga mos, reja asosida izchil, ravon bayon etilgan bo‘lsa, reja bandlarining uzviyligi saqlangan bo‘lsa –	10 ball
3.	Matn mazmuni mavzuga mos va batafsil yoritilgan, insho matni mantiqan kirish, asosiy, xulosa qismlari asosida shakllantirilgan, insho	12 ball

	mustaqil ijodiy fikrlash, dalillar asosida, ravon va savodli yozilgan bo'lsa, asosiy qism insho hajmining 70-80 foizini tashkil etsa, mavzudan chetga chiqilmagan bo'lsa–	
4.	a) adabiy mavzudagi inshoda asarnig milliy o'ziga xosligi va umuminsoniy mohiyati ochib berilgan bo'lsa– b) erkin mavzudagi inshoda muallifning mustaqil fikri aks etgan bo'lsa, o'ziga xos yondashuv sezilib tursa–	6 ball
5.	Insho yozishda faktik materiallardan o'rinli foydalanilgan bo'lsa, ko'chirmalar, buyuk mutafakkirlar, taniqli shaxslar fikri keltirilgan, insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materiallar singdirilgan bo'lsa–	5 ball
6.	Matn mazmunining badiiyligini ta'minlash, ta'sirchanlik darajasini oshirish uchun obrazli ifodalar, iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlardan keng foydalanilgan bo'lsa –	5 ball
7.	Mavzu mantiqiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, faktik xatolar, noto'g'ri fikrlarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa–	3 ball
8.	Mavzu hozirgi davr bilan bog'lab yoritilgan bo'lsa –	5 ball

Jami: 50 ball

INSHO YOZISH JARAYONINI TASHKIL ETISH

Sinov insholari, ijodiy imtihon sifatida o'tkaziladigan insho jarayonlari qat'iy tartib asosida tashkil qilinadi. Yozma ish belgilangan vaqtda boshlanadi. Insho uchun 4 akademik soat ajratilgan. Kech qolganlar yozma ish jarayoniga qo'yilmaydi. Negaki bunday holatlar boshqalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, fikrlashdan chalg'itadi. Yozma ish jarayonida telefondan foydalangan yoki tayyor ma'lumotni ko'chirgan o'quvchi sinov jarayonidan chetlashtiriladi. Yozma ish ijodiy xarakterga ega bo'lib, uni mustaqil yondashgan holda yaratish talab etiladi.

O‘z vaqtida kelmagan o‘quvchi yoki abituriyent boshqa guruh bilan yozma ish sinoviga kiritilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 18-iyundagi 118-son qaroriga 1-ilova sifatida keltirilgan **“Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to‘g‘risida”**gi Nizom hamda ushbu nizomga 1-ilova sifatida keltirilgan **“Oliy ta’lim muassasalarida yagona ko‘p balli baholash tizimi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi”** ning 8-bandiga ko‘ra **“jadval bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarga kelmagan abituriyentlar test sinovlariga qo‘yilmaydi”**.

TAVSIYA ETILADIGAN INSHO MAVZULARI

I. Adabiy mavzudagi insholar

O‘zbek mumtoz adabiyoti

1. “Avesto” – mumtoz adabiyot tarixidagi mushtarak manba.
2. “O‘rxun-yenisey yodgorliklari” – turkiy xalqlar tarixiga oid yozma manba sifatida.
3. “Qutadg‘u bilig” – ilk badiiy doston.
4. “Qutadg‘u bilig”dagi axloqiy-ma’rifiy qarashlar.
5. Ahmad Yassaviy hikmatlarining g‘oyaviy mazmuni.
6. “Hibbat ul-haqoyiq” – didaktik manba.
7. O‘rta Osiyo qomusiy olimlarining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o‘rni.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti

G‘afur G‘ulom she’riyatining asosiy xususiyatlari.

“Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasining g‘oyaviy mazmuni.

“Shum bola” – avtobiografik qissa.

Oybek romanlarining mavzuiy tasnifi.

“Alisher Navoiy” – biografik roman.

Abdulla Qahhor – mohir hikoyanavis.

“O‘g‘ri ” hikoyasida tamagirlik illatining qoralanishi.

II. Erkin mavzudagi insholar.

“O‘zbekiston kelajagi –yoshlar qo‘lida!”

“Bizdan ozod va obod vatan qolsin!”

“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot.... masalasi”

Ajdodlarimiz fazilati – ibrat namunasi.

“Dunyoda bir zot borki, biz undan hamisha qarzdormiz, u – ona!”

“Bilmaganin so‘rab o‘rgangan – olim...”

Kitob shuurimga so‘zlagay hikmat...

Badiiy asar – hayot darsligi.

She’riyat – ruhiyat ko‘zgusi.

BAYON

Matnlar uslub jihatidan rang-barangdir. Ona tili mashg‘ulotlarida badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy matnlardan foydalaniladi. Har bir uslub o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ma’lum bir me’yorni talab etadi.

Maktab ona tili ta’limining asosiy maqsadiga ko‘ra dars mashg‘ulotlari ta’lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda, to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilmog‘i kerak. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ona tili ta’limi jarayonida tashkil etiladigan turli yozma ishlar, xususan, bayonning o‘ziga xos o‘rni bor.

Bayon diktant va insho oralig‘idagi yozma ish turlaridan biridir. Bayon matn mazmunini, shuningdek, uning badiiy-uslubiy xususiyatlarini yetkazish, qabul qilish, fahmlashga qaratilgan yozma ish turidir.

Bayon arabcha “aniqlik”, “ravshanlik”, “tavsiflash”, “ifodalash” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, o‘qib yoki aytib berilgan biror matn asosida yozib chiqilgan ish; yozma ish (o‘quvchilar bilimini baholashning yozma shakllaridan biri)ni ifoda etadi. (O‘TIL, I, 138)

Bayon nazoratning yozma turlaridan biri bo‘lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini izchil, savodli, qayta bayon etishdan iboratdir. Ma’lumki, bayon yozish malakasi boshlang‘ich sinfdan shakllantirib boriladi. Yuqori sinflarda esa bu ko‘nikma va malakalar takomillashtiriladi.

Mavjud metodik adabiyotlarda bayon, asosan, ikki shaklda: og‘zaki va yozma bo‘lishi; yozma bayon o‘z navbatida, ta’limiy hamda tekshiruv tarzida o‘tkazilishi haqida ma’lumot beriladi.

O'quvchilarda yozma nutq malakalarini tarkib toptirish, mustaqil ijodiy fikrlash hamda o'zbek tilining boy ifoda vositalaridan o'rinli va unumli foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish; ularning lisoniy savodxonligini oshirish, tanlangan matnni adabiy-badiiy jihatdan aniq va puxta, mantiqiy izchil, ijtimoiy hayot va voqelik bilan bog'liq holda yoritishga o'rgatish maqsadida tez-tez bayon o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Bayon – yozma ishlarning asosiy turlaridan biri bo'lib, o'quvchining matn mazmunini o'z so'zi bilan yozma ravishda qayta bayon etishdan iborat ijodiy ishidir. Berilgan matndagi asosiy omillarga diqqat qilish, matnni qisqartirish yo'llarini bilish bayonning muhim xususiyatlaridan biridir. Ba'zi o'rinlarni kengaytirib yozish vaqtida qisqa gaplar tuzish, zarur sitatalar keltirish malakasi paydo bo'ladi. Bunday ish turi o'quvchilarni insho yozishga tayyorlaydi, matnlarga ijodiy munosabatni rivojlantiradi.

Bayon yozish jarayonida o'quvchilar asarning mavzusi, mazmuni hamda asosiy g'oyasini chuqur tushunib oladilar. Bu esa nutq malakasini takomillashtirishga ham yordam beradi. O'quvchilar grammatika va imlo yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etadilar, materialni mustaqil va izchil bayon etish qobiliyatiga ega bo'ladilar, ularning nutqida yangi-yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi. Shu jihatdan bayon o'quvchilarda yozma nutq malakasini hosil qilishda muhim o'rin tutadi.

Yuqorida qayd etilganidek, amaldagi Davlat ta'lim standartining bosh maqsadiga ko'ra o'quvchilarni ijodiylikka, mustaqil fikrlashga o'rgatishda bayonning o'рни beqiyosdir.

Ta'limiy bayonning murakkab turlaridan biri – ijodiy bayon tanlangan matn mazmuniga o'quvchining ijodiy yondashishi jihatidan bayonning boshqa turlaridan farq qiladi. Bunda o'quvchi matnga tasvir unsurlarini qo'shib yoki lisoniy hamda imloviy topshiriqlar asosida kiritilgan yoxud o'qituvchi boshlab bergan hikoyani davom ettirgan holda bayon yozishi mumkin. Ona tili ta'limi metodikasida ijodiy bayonning shaxsini o'zgartirib yozish, lisoniy topshiriqli bayon, tasvir unsurlarini kiritib bayon yozish, boshlab berish yo'li bilan bayon yozish turlari mavjudligi ta'kidlanadi.

Tasvir unsurlaridan foydalanib bayon yozishda o'quvchi matn mazmuniga bog'lab, mustaqil ravishda ayrim predmet, voqea-hodisalarni tasvirlaydi. Boshlab berish yo'li bilan bayon yozishda

boshlanishi berilgan hikoyani o'quvchilar ijodiy davom ettirib, uni to'liq hikoya shakliga keltiradilar.

Tekshiruv bayoni ona tili izchil kursining ma'lum bo'limlari o'tib bo'lingandan keyin o'quvchilarning o'zlashtirgan lisoniy bilim, malaka va ko'nikmalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

O'quvchi bayoni mazmun izchilligi va lisoniy qurilishi jihatidan talab darajasida bo'lishi bilan birga, savodli yozilishi kerak. Shuningdek, bayonning reja asosida yozilishiga erishish zarur. Aniq tuzilgan reja o'quvchi bayonining izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi.

Bayon o'quvchilarning nutqini o'stirish, to'g'ri yozish va fikrni uslubiy jihatdan to'g'ri tartiblash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun taqdim etilgan matnning og'zaki yoki yozma ravishda qayta bayon qilingan ifodasidir.

Bayon ta'limiy ish sifatida o'zida murakkablik darajasiga ko'ra uncha katta bo'lmagan matnlarni so'zma-so'z hikoya qilish, butun asarning qisqacha mohiyatini yetkazish xarakteriga ega bo'lgan og'zaki, shuningdek, yozma mashqlarni o'z ichiga oladi.

Bayon shaklidagi yozma ishning vazifalari quyidagicha:

- tinglangan mavzu ichiga kirish va asosiy fikrni aniqlash negizida matnni tushunish, eshitilganlarni mantiqiy izchillikda tartiblash;

- nutqning ifoda shakli va uslubini to'g'ri tanlash: hikoya qilish, tavsiflash, muallif uslubiga xos belgilarga asosan muhokama qilish;

- aniq faktlarni eslab qolish, ularning bayonda berilish ketma-ketligiga amal qilish;

- mavzuni tushunish, eshitganlarni nutq uslublarini hisobga olgan holda qayta yaratish;

- bayonni boshlanish va tugallanishiga ega bo'lgan alohida matn sifatida shakllantirish;

- bayonni berilgan matnda aks etgan asosiy fikrga tayangan holda takomillashtirish.

Matnning qayta yoritilish hajmiga ko'ra bayonlar batafsil, ixchamlashtirilgan yoki tanlama ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Batafsil bayonlar xotira mashqida yordam beradi, bayon matni detallariga va matn izchilligiga rioya qilishni talab etadi. Ixchamlashtirilgan bayon matndagi muhim o'rinlarni konspektlashtirishga o'rgatadi.

Matnda qo'llangan nutq tiplariga ko'ra bayon quyidagilarga ajratiladi: *Ma'lumot xarakteridagi bayon* – bayonning bu turida o'quvchilardan, eng avvalo, matnning asosiy voqealari yoki voqea-hodisalar ketma-ketligini to'g'ri bayon qilish talab qilinadi.

Tavsif xarakteridagi bayon – yozma ishning nisbatan murakkab bo'lgan ko'rinishi. Bunday matnlar qiyin o'zlashtiriladi va matnni qayta tiklashda obrazli tasvir vositalaridan unumli foydalanishni taqozo qiladi.

- *Muhokama bayon* – bu o'rinda matnning asosiy tezislarini ilg'ab olish va qayta hikoya qilishda mantiqiy jihatdan asoslash va fikrlar o'rtasidagi oraliq ifodani yetkazib berish talab etiladi.

- *Batafsil bayon* – yozuvchi uslubiga xos xususiyatlarni: xarakterli tasviriy vositalar, detallar, uslubiy-sintaktik xususiyatlarni, iboralarni saqlagan holda to'liq bayon etishni nazarda tutadi.

Odatda matnlarda bir necha tiplarning qorishiq holati ko'zga tashlanadi. Ma'lumotnoma xarakteridagi bayonlarda tavsifiy xususiyatlar, tavsifiy matnlarda muhokama, muhokama bayonlarda esa o'z navbatida tavsif va ma'lumot, xabar uchraydi.

Matnlar orasidan har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan bayonning u yoki bu tipini ajratib olish muhimdir.

Xabar, ma'lumot mazmunidagi yoki syujetli bayon – yozma ishning oddiy ko'rinishidir. Unda sodir bo'lgan voqea-hodisalar, xalq hayoti yoki mamlakatlar, shaharlar, qaysidir faoliyat turi haqida so'z borishi mumkin. Xabar odatda badiiy shaklda bo'ladi, sof informatsion xarakterda bo'lishi ham mumkin. Xabar mazmunidagi bayonlarda asosiysi voqea-hodisalarning galma-gal o'rin almashishidir.

Xabarning tipik xususiyati – bir xil tipdagi voqelikni aks ettirgan matnning ifoda etilishidir. Voqea-hodisani bayon qilishda va shaxsni tavsiflashda so'zlar takroriga yo'l qo'ymaslikka e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Fe'l shakllarining qo'llanishidagi aniq qonuniyatga amal qilish lozim. Voqea-hodisalarni berishda ketma-ketlikka, izchillikka amal qilish, zamon tasvirlarini muvofiq ravishda berish talab etiladi. Darak gap mazmunidagi matnlarni to'liq bayon qilish uchun uning mavzusi va asosiy mazmunini aniqlash zarurdir (ba'zan mavzu va mazmun, g'oya matn sarlavhasida ko'zga tashlanadi). So'ng kichik mikromavzularni ajratish va ularni nomlash talab qilinadi.

O'quvchi quyidagilarga e'tibor qaratga, bayon ustida ishlash tizimli holatda namoyon bo'ladi:

1. Har bir ma'lumot bo'lagidagi asosiy jihatlarni esda olib qolish kerak.
2. Voqea-hodisa rivojida, asosiy mazmunni yoritishda muhim o'rin tutadigan detallarga ahamiyat berish lozim.
3. Har bir lavhada keltirilgan fikrni ifodalashga harakat qilish kerak.
4. Muallifning qahramonlarga bo'lgan munosabatini aniqlay bilish talab etiladi.
5. Asar qahramonlaridan hal qiluvchi obrazni ajratib tahlil qilish lozim.
6. Bosh qahramonning matn syujetidagi o'rnini yoritish maqsadga muvofiq.

Syujet bayoni o'quvchi fikrini tartibga soladi, faktlarning berilishiga e'tiborini qaratadi, yuz berayotgan voqea-hodisaning sababini aniqlashga, asosiy fikrni ikkinchi darajalidan farqlashga, badiiy asar kompozitsiyasi va g'oyasini yoritishga xizmat qiladi.

Tavsifiy bayon — nisbatan murakkab yozma ish turi. Tavsifiy bayonlarda narsa-buyum (hodisa, holat, shaxsning tashqi qiyofasi) va belgilarining to'liq tasviri aks etadi. Bu tipdagi bayon turini yozishda umumiy kartinani tashkil etuvchi har bir predmet, kichik detalni ham ko'zdan qochirmaslik kerak.

Narsa-buyum tavsifi bilan bog'liq matnni o'zlashtirishda o'quvchi quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

1. Narsa-buyum qanday detallardan iborat ekanligini va narsa-buyumni tavsiflashda nega aynan shu belgilar tanlanganligini izohlay olishi kerak.
2. Bu detalning matnda aks etgan belgilarini tavsiflash talab qilinadi.
3. Bu belgilarning guruhlanishiga e'tibor qaratish lozim.
4. Qaysi til vositalaridan foydalanilganligini tahlil qila bilishi kerak.

Bu talablarga javob berish tavsifiy bayonga tayyorgarlikni ifoda etadi. Bu tayyorgarlikda mavjudlik va mavjud emaslikni farqlash; ularni butun kartinani tasvirlash jarayonida tavsiflash kerak bo'ladi. Masalan, kitoblarni, kartinalarni, markalar kolleksiyasini, nishonlarni yig'ish, kutubxona, muzey, ona yurtning diqqatga sazovor joylarini

tavsiflash jarayonida xotira pand bersa, matn to'lig'icha esda qolmasa, eruditsiya yordamga kelishi mumkin: bu sohadagi shaxsiy taassurotlar va qo'shimcha bilim bayon yozishda asqotadi.

Muhokama bayon o'quvchilardan ko'proq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi. Bu o'rinda tafakkurning tahlil qilinishi, "Nima va qayerda sodir bo'lyapti?" savoligagina emas, "Nima sababdan yuz beryapti?", "Sodir bo'lish manbai nimada?", "Kelajakdagi rejalar qanday?" kabi savollarga ham javob berish talab qilinadi.

Bayon yozish uchun o'qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlash;

- faktik materialni o'ziga xos tartibda keltirish;
- til vositalarini saralash;
- matnni uchinchi shaxs tilidan bayon qilish.

- o'qib eshittirilgan matndan ma'lum xulosalar bilan asoslangan mustaqil fikr, mulohazalarni to'g'ri tartiblash kerak bo'ladi.

Muhokama bayon mantiqiy tafakkurni o'stirishda, matndan qisqa xulosa chiqarishda, tezislarga ajratib tahlil qilishda ahamiyatlidir.

Agar o'quvchining xotirasi mustahkam bo'lsa, berilgan matndagi faktik materialni, asosiy mantiqni, mazmunni, xulosani ajrata olsa, og'zaki va yozma nutq me'yorlarini puxta o'zlashtirgan bo'lsa, batafsil bayon matnini yarata oladi. O'quvchi asosiy fikr bilan ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan mulohazani ajrata olmasa, xotirasi kuchsiz bo'lsa, o'qilgan matnning barcha qirralarini yorita olmasa, matnning mohiyati qolib keraksiz ma'lumotlarni keltirsa, bayon matnini qisqa yozgani ma'qul.

Sinov maqsadida o'tkazilgan bayonlarda matnni imkon qadar aniq, ravon uslubda, izchil, mantiqiy jihatdan muvofiq tarzda, tavsiflangan voqea-hodisaning muhim elementlarini tushirib qoldirmasdan, kamida ikki-uch standart sahifa hajmida yozish talab qilinadi.

Bayon o'tkazishda uning barcha turlari (**ijodiy, saylanma, ixcham, matnga yaqinlashtirilgan bayon, qisqartirilgan bayon, tekshiruv-sinov bayoni**)da o'quvchilar matnni qanday tushunganliklari, o'z fikr va tushunchalarini qanday ifodalaganliklari, nutq malakasi va savodxonligini sinab ko'rish talab etiladi. Bayon nazorat shaklida o'tkaziladi.

BAYON YOZISH UCHUN TAVSIYALAR

1. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing (eshiting).
2. Siz uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlar ma'nosini aniqlang.
3. Matnning asosiy mazmunini anglab oling. Mazmunni yoritish uchun muhim bo'lgan so'z, so'z birikmasi va gap (jumla)ni toping.
4. Matnni qismlarga bo'ling va ularga sarlavha qo'ying.
5. Tinish belgilarining o'rnini va vazifalarini anglab oling.
6. Matnni yozishdan oldin yana bir bor o'qib chiqing (yoki eshitib).

BAYONNI BAHOLASH MEZONI

Bayon va insho uchun baho me'yori va mezonini alohida-alohida belgilash muhim amaliy va didaktik ahamiyat kasb etadi. Chunki bayon va insho tabiatan bir-biridan farqlanadi.

Bayonni baholash uchun quyidagi me'yori va mezonga asoslanish ma'qul. Bayon vaqti – 2 soat; matndagi so'zlar miqdori 5-sinf uchun 100-150, 6-sinf uchun 150-200, 7-sinf uchun 250-300, 8-sinf uchun 300-350, 9-sinf uchun 350-400 atrofida bo'ladi.

T/r	Bilim, ko'nikma, malakalar	Mak-simall ball
1.	Reja mavzuga muvofiq bo'lsa; asar voqeasi to'g'ri bayon qilingan, matn mantiqiy muvofiq tarzda va izchil ravishda ifodalangan, so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos, mazmun va ifodadagi nuqsonlar juz'iy bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita punktuatsion xatosi bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa –	5 ball
2.	Matn reja asosida yoritilib, kichik nuqsonlarga yo'l qo'yilgan, fikr bayonida izchillik qisman buzilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yilgan, savodxonlikda ikkita imlo, ikkita punktuatsion va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa –	4 ball

3.	Mavzu to‘liq yoritilmagan; mavzudan qisman chetga chiqilgan; aniq voqealar izohida nuqsonlarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; so‘z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda uchtagacha imlo, to‘rttagacha punktuatsion, uchtagacha uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa –	3 ball
4.	Asar voqeasi mantiqan to‘liq ifodalanmagan bo‘lsa; ish rejaga mos bo‘lmasa, fikr bayoni va qurilishida nomuvofiqlik bo‘lsa, fikrlar bir-biriga bog‘lanmasa; so‘z boyligi talab darajasida bo‘lmasa; mazmun va ifodada besh-oltitagacha nuqsonga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; savodxonlikda yettitagacha imlo, yettitagacha punktuatsion va yettitagacha uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa –	2 ball
	«2» ball uchun belgilangan mezondan ortiq nuqsonlar uchrasa –	1 ball

DIKTANT

Diktant lotincha *dictare* “hadeb gapiravermoq”, “takrorlamoq”; “aytib turib” ma’nolarini ifoda etadi. Imloviy va punktuatsion qoidalarining o‘zlashtirilish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish. (O‘TIL, I, 611)

Ona tili ta’limidan maqsad tafakkur darajasi shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutqiy ko‘nikma va muloqot madaniyati rivojlangan, savodli shaxsni kamol toptirishdir. Shu maqsadni amalga oshirishdagi mazmun o‘quvchining fikrlash tezligini, hozirjavobligini, salohiyatini oshirish, mantiqiy tafakkurini o‘stirish; borliq haqidagi ma’lumot, tasavvurlarni ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikr va his-tuyg‘ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olish, yosh avlodning aqliy rivojlanishini ta’minlash vazifalarini hal etishga yo‘naltirilgan.

Ona tili ta’limi natijasida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar uch xil mezon asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

1. O‘qish texnikasi.

2. Nutqni anglash va matn mazmunini tushunish malakasi.

3. Tinglab tushunilgan mazmun asosidagi fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi. Fikrni yozma shaklda bayon etish va tugal matnni hosil qilish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu mezonda mujassamlashadi.

Diktant o'quvchilarning savodlilik darajasini oshirish, bilimlarini mustahkamlash, yozma nutq me'yorlariga amal qilish va yozuv qoidalarini singdirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Diktant yozishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- yozma nazoratning bu turi o'quv yili davomida o'rganilgan mavzular yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlashga hamda tekshirishga xizmat qilishini nazarda tutish kerak;

- diktant uchun o'tilgan mavzularga to'la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan, ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarga xizmat qiladigan material tanlanishi maqsadga muvofiq;

- diktant uchun tanlangan matn ma'rifiy jihatdan mukammal manbalar, badiiy asarlardan olinishi, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Diktant matni 6 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo'lib, bir o'quvchi 6 variantdan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertidagi matn sarlavhasi doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan diktant matni bir marta o'qib eshittiriladi. Matndagi murakkab so'zlar doskaga yozib qo'yiladi. Diktant matni o'qituvchi tomonidan o'qib yozdiriladi. O'qituvchi ma'lum bir jumlani to'liq holda o'qiydi. So'ng jumlani so'z va birikmalarga ajratgan holda o'qib yozdiradi. O'quvchi jumlani yozib bo'lgach, to'liq holda qayta o'qib beradi.

Diktantni baholashda quyidagi mezonga amal qilinadi:

«5» ball: a) mutlaqo xatosiz yozilgan; b) qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki bitta punktuatsion xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi.

«4» ball: ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar nisbati o'zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori to'rttadan, imlo xatosi esa ikkitadan oshmasligi kerak.

«3» ball: to'rtta imlo hamda to'rtta punktuatsion xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar nisbati 3 imlo, 5 punktuatsion xato va boshqa ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Ammo imlo xato miqdori to'rttadan oshmasligi shart.

«2» ball: yettitagacha imlo va yettita punktuatsion xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar miqdori o'n beshtadan oshsa, «1» ball qo'yiladi. Eslatma:

1. Diktantdagi xatolar nisbatan turlicha ko'rinishda bo'lishiga qaramay, baholashda imlo xatolari miqdori asosiy mezon bo'ladi.

2. Agar diktantdagi tuzatishlar miqdori beshtadan ortiq bo'lsa, baho bir ballga pasayadi.

3. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish bo'lsa, «5» ball qo'yilmaydi.

Matn hajmi 120–150 so'zdan iborat bo'lishi lozim. Diktant yozish uchun 1 astronomik soat (60 daqiqa) beriladi.

DIKTANT YOZISH UCHUN TAVSIYALAR

1. O'qituvchi tomonidan qanday mavzular bo'yicha nazorat diktanti yozilishi ma'lum qilingach, shu mavzularga oid imlo qoidalarini qayta o'rganib chiqish, talaffuz va imlo munosabatiga e'tibor qaratish lozim.

2. Darslikda mazkur mavzular bo'yicha berilgan til qurilishiga oid qoidalarni takrorlash va mustahkamlash talab etiladi.

3. O'qituvchi tomonidan diktant matni o'qilganda diqqat bilan tinglang va undagi asosiy mazmunni anglashga, matnning mazmuniy qismlarini va gaplarning chegarasini ajratib olishga harakat qiling.

4. Matndagi tinish belgilarining gap va uning qismlari ohangi bilan aloqadorligini esda tuting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. -Тошкент: Ўзбекистон, 2011. 3-б.

2. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Тошкент, 1997. 7-б.

3. Мадаев О. Иншо қандай ёзилади? Ўрта махсус ўқув юр்தларининг ўқитувчилари учун методик қўлланма.- Т.:Ўқитувчи, 1991.

4. Ивченков П. Ф. Обучающие изложения. 5-9-классы : пособие для учителя / П. Ф. Ивченков. -М.: Просвещение, 1994. - 224 с.

5. Маҳмудов Н., Рафиев А., Йўлдошев И. Нутқ маданияти ва давлат тилида иш юритиш. -Тошкент: Чўлпон, 2012.

6. Маҳмудхўжа Бехбудий. Мухтарам ёшларга мурожаат. Танланган асарлар. -Тошкент: Маънавият, 1997. 153-154-б.

7. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Тошкент, 1997. 38-б.

9. Пленкин Н. А. Изложение с языковым разбором текста : пособие для учителей / Н. А. Пленкин. -2-е изд., испр. и доп. - М.:Просвещение, 1978. - 190 с.

8. Русова Н.Ю. Как писать сочинение, изложение и диктант: учеб. пособие для сред. шк., абитуриентов, родителей / Н. Ю. Русова. — Нижний Новгород: Деком, 1994. -192 с.

9. Сморщок М. Ф. Изложения: для абитуриентов / М. Ф. Сморщок. - Минск : Высшая школа, 2000. -171 с.

10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I, II, III, IV, V. -Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат нашриёти, 2006-2008.

11. Маҳмудхўжа Бехбудий. Китобатул-атфол (Болалар мактуби). Танланган асарлар.-Тошкент: Маънавият, 1997.-179-180-б.

12. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. -Т., 2000.-23-бет.

13.<http://www.enchantedlearning.com/graphicorganizers/cloud>

14.<https://owl.english.purdue.edu/owl/resource/544/01>

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3
Kirish.....	8
Yozma ish turlari.....	10
Insho haqida nazariy ma’lumot.....	13
Insho mavzusini shakllantirish va tanlash.....	23
Insho rejasini tuzish va tezis sifatida shakllantirish.....	24
Inshoga epigraf tanlash.....	31
Inshoga material to‘plash.....	33
Insho yozish talablari.....	34
Insho yozish ko‘nikmalarini egallash shartlari.....	58
Insho yozish uchun tavsiyalar.....	68
Inshoni baholash mezonlari.....	75
Insho yozish jarayonini tashkil etish.....	83
Tavsiya etiladigan insho mavzulari.....	84
Bayon.....	85
Bayon yozish uchun tavsiyalar.....	91
Bayonni baholash mezoni.....	91
Diktant.....	92
Diktant yozish uchun tavsiyalar.....	94
Foydalanilgan adabiyotlar.....	95

ILOVALAR

INSHO NAMUNASI

Mustaqil va ozod vatanga baxshida umr¹⁶

Reja:

- I. Kirish. Islom Karimov – ma’naviy jasorat timsoli.
- II. Asosiy qism:
 1. Xorlikdan hurlikka eltgan sarbon.
 2. Mustaqilligimiz me’mori.
 3. Islom Karimovning jahon siyosatida tutgan o‘rni.
 4. Islom Karimovning serqirra faoliyati.
- III. Xulosa. Buyuklar yodi mudom barhayot.

*Yuraklarga quvvatdir yoniq shonu shukuhi,
Birlashtirdi, hattoki, elni qayg‘u-anduhi.
Yodi hamisha ijodda, ismi tillarda duo,
Humoqushga aylanib, yog‘du sochadi ruhi
(Iqbol Mirzo)*

Inson yaratilibdiki, nomini mangulikka muhrlashga intiladi. Biroq tarix zarvaraqlarida nom qoldirish uchun istakning o‘zi kamlik qiladi. Abadiyat ummoni adolat yo‘lida, el-yurt manfaati yo‘lida umrini fido qilganlarnigina o‘z bag‘riga oladi. Umri mangulikka daxldor ana shunday insonlardan biri mustaqilligimiz me’mori, xalqning asl farzandi Islom Abdug‘aniyevich Karimovdir.

Dono xalqimiz insonning ismida uning fitrati va qismati aks etadi, deb hisoblaydi. Adolatparvar yurtboshimizga “Islom” deya ism qo‘yilishining o‘zi ham bu buyuk zot taqdiriga pok e’tiqod, ozodlik, tinchlik yo‘lida fidokorona kurashish bitilganiga ishora bo‘lsa, ne ajab!

Islom Karimov tariximizning eng qora kunlarida voyaga yetdi. Davr mafkurasi millionlab insonlar ongini zaharlayotgan bir pallada bu ulug‘ inson o‘zining xalqparvar g‘oyalari bilan maydonga chiqdi. “Dunyoda millatlar, xalqlar ko‘p. Lekin o‘zbek xalqi yagona”, – deya

¹⁶ 2016-yilning 30-dekabrida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Respublika Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov tavallud sanasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan insholar tanlovida g‘olib topilgan yozma ishlardan biri.

o‘z xalqini chin dildan sevgan Islom Karimov yurt g‘animlari ig‘volari tufayli uzoq yillik tazyiqlarga uchradi. Buyuk daholarga beshik bo‘lgan bu tuproqning oyoqlar ostida toptalishiga Yaratgan ortiq yo‘l qo‘ymadi.

Markaz tomonidan atayin to‘qib chiqarilgan va minglab vatandoshlarimizning aziz umrlariga zomin bo‘lgan “paxta ishi” tazyiqlari avj olgan davrda Islom Karimov yurt qalqoni bo‘ldi. U iqtisodiy va ma’naviy qoloqlik, jabr-zulm, qaramlikka qarshi kurashni Qashqadaryo viloyatida boshladi. Yillar to‘zoni xalq ko‘ksidagi dardlarni kamaytirdi-yu, Islom Karimovning bedor tunlarini ko‘paytirdi. Har kim o‘z bilganidan qolmaydigan, birov birovga ishonmaydigan zamonda xalq boshini qovushtirish azobi tim qora sochlarga qirov qo‘ndirdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Haq olinur, berilmas!” shioriga amal qilgan Islom Karimov yurt mustaqilligini zolimlar qo‘lidan tortib oldi. “Katta og‘alaringizimiz. Sizlarga mamlakatni boshqarishni o‘rgatamiz”, deganlar “O‘zbekiston” atalmish jannatmakon diyorni qayta qo‘lga kiritish uchun fursat poylay boshladilar.

Islom Karimov ajdodlar merosini avlodlarga qaytardi. Uning ilk jasoratlaridan biri shu ediki, mustaqillik ostonasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishiga erishdi. Qaramlik tuzumidagi Bosh kotib lavozimi o‘rniga demokratik davlatlarga xos prezidentlik lavozimini sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi davlatlar ichida birinchilardan bo‘lib joriy etdi. Uzoq yillar davomida “Din afyundir” degan g‘oya singdirilgan, bunga qarshi bo‘lganlar quvg‘inga uchragan tahlikali zamonda o‘zbek xalqiga muqaddas safar – haj ziyoratiga bora olish imkonini berdi. “O‘tmish qoldig‘i” deya qoralanib, nishonlanishi taqiqlangan Navro‘z bayrami ham qayta tiklandi.

Yurtga tinchlik, xalqqa o‘zlikni qaytarish oson bo‘lmadi. Har qadamda g‘animlar nayzasi Islom Karimovning oyoqlariga tikandek sanchilaverdi. “O‘zbek modeli” atalmish mayoqni qo‘lida mahkam tutgan posbonimiz yurt kelajagini porloq ko‘rish uchun shaxdam odimlayverdi. Mustaqillikning ilk kunlaridayoq Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganib chiqdi va o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanladi. U oqil inson, dono siyosatchi, mehribon yo‘lboshchi sifatida har bir harakatida, har bir islohotida jonajon xalqiga suyandi, xalq bilan yonma-yon turdi. “Islohotlar inson uchun, uning manfaatlari uchun” shioriga hamisha

amal qildi. Sohibqiron Amir Temurning o'gitlarini doimo yodda saqladi, qalbida ardoqladi.

Islom Karimov uzoqni ko'ra oluvchi davlat arbobi edi. Jahon minbarlaridan turib butun dunyoni birlashishga chorlagan, xalqaro terrorizm xavfidan birinchilardan bo'lib ogohlantirgan inson doimo "Bir millatning dardi faqat shu millatgagina emas, balki barcha millatlarga taalluqli" ekanligi haqida bong urdi. Xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqli shartnomalar asosida hamkorlik qildi.

Islom Karimov: "Shu yurtdagi millionlab bola – mening farzandlarim", – deya har bir yoshga otalardek mehr berdi, g'amxo'rlik qildi. Uning azaliy orzularidan biri barkamol avlodni tarbiyalash edi. "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning bosh muallifi ham aynan Islom Karimovdir. 2008-yilning "Yoshlar yili", 2010-yilning "Barkamol avlod yili" deya nomlanishining o'ziyoq fikrimizni dalillaydi. Islom Karimov rahbarligida ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi, malakali kadrlar tayyorlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarning tatbiq qilinishi jahon jamoatchiligi tomonidan yuksak baholandi. O'zining cheksiz muhabbati, aql-u zakovati, shijoati bilan dunyoni lol qoldirgan ulug' zot shuurimizga yuksak ma'naviyat, ajdodlar yodini singdirdi.

Islom Karimov tinchlikni eng ulug' ne'mat deb bildi. O'zbekiston o'z harbiy kuchlariga ega bo'ldi. Sarhadlar mudofaasi yurtning asl farzandlariga topshirildi. O'zbekiston oqil sarbon boshchiligida taraqqiyot pillapoyalaridan ko'tarilaverdi. Tarixan qisqa, mazmunan asrlarga teng davr – 25 yil ichidagi o'zgarishlar ilgari O'zbekistonni qoloq deb tahqirlaganlarni bu buyuk yurt bilan hisoblashib ish ko'rishga majbur qildi. Oqilona siyosat natijasi o'laroq, diyorimizga fayz, qut-baraka qaytdi.

Osmonimiz musaffoligi, yurt ravnaqi g'animlar ko'nglini xira qilaverdi. Farg'ona, Bo'ka fojialari, 1999-yil 16-fevraldagi harakatlar, 2005-yildagi Andijon, 2010-yildagi O'sh voqealari yurt fidoyisi ko'ksiga otilgan o'q bo'ldi. Yurtning asl farzandi ta'kidlaganidek, "Bu yurtni Yaratganning o'zi asradi". Mustaqilligimiz posbonlarining aziz jonlari evaziga osmonimiz yana musaffo bo'ldi. Islom Karimovning odilona tadbirlari qardosh xalqlarni, qo'shni davlatlarni urush balosidan asrab qoldi.

Islom Karimov doimo: “Farzandlarimni hech kimga bermayman”, – der edi. Bugun ana shu yoshlar yurt otasiga, millatga tashakkur aytib, Vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qilmoqda. U afsus bilan boshlari egilgan Vatan xoinlarini ham kechirdi. Otalarcha mehr berib, bag‘riga oldi. Islom Karimov xotirasi xalqimiz qalbida mangu yashaydi. O‘zining cheksiz muhabbati bilan barpo etgan maskan – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ostonasiga qadam qo‘ygan chog‘imizdanoq buyuk zotning nafaslarini his etamiz. Davrlar o‘tsa hamki, yuraklar qa‘rigacha yetib borgan so‘zlari aslo unutilmaydi. Islom Karimov har bir vatandoshimiz, yurtboshimiz qalbida, ezgu ishlarida yashayveradi.

Umrni oqar daryoga qiyoslaydilar. Bu o‘xshatishda umrning juda tez o‘tib ketishiga ishora bor. Aslida, umrga suvning hayotbaxshlik sifati ham ko‘chishi kerak. Islom Karimov umrini mustaqillik daraxtiga, ma‘naviyat niholiga, unutilayotgan asriy qadriyatlarga, o‘zlikni asrash tuyg‘usiga qayta hayot bag‘ishlagan daryoga o‘xshatish mumkin.

Sevimli Birinchi Prezidentimiz bilan vidolashish ta‘riflab bo‘lmas darajada og‘ir kechdi. Faqat O‘zbekiston xalqigina emas, dunyoning taraqqiyparvar barcha davlatlari xalqlari bu buyuk zot vafoti tufayli cheksiz qayg‘uga botdi. Hamon qalbimizni adadsiz sog‘inch o‘rtaydi. Yurtboshimizning videotasmalarga muhrlangan nurli chehralarini ko‘rib sog‘inch hissini yengishga harakat qilamiz.

Yurtimizdagi har bir inson Islom Karimovning porloq xotirasini umrbod yodida saqlaydi. Uning ruhi shod, manzili obod bo‘lishini tilab duo qiladi.

Hamisha kelajakni o‘ylab ish tutgan Birinchi Prezidentimiz munosib izdoshlarni tarbiyaladi. Ko‘p yillar davomida Islom Karimov bilan yelkadosh bo‘lib mehnat qilgan, yurt xizmatida bo‘lgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti bo‘lgach, yurt taqdiri ishonchli qo‘llarda ekaniga yana bir karra amin bo‘ldik.

Mustaqilligimiz me‘mori – Islom Karimovning ezgu g‘oyalari bizni mudom olg‘a boshlaydi. Bobomiz yurt farzandlarining har sohadagi, ayniqsa, ilm-fan, san‘at va sportdagi yutuqlarini ko‘rganda qanchalik quvongani yodimizda. Biz tahsil olayotgan dargoh Birinchi Prezidentimizning tengsiz tuhfasidir. 2016-yil 13-mayda “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonida

belgilangan vazifalarni bajarish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Sunda buyuk insonning ruhlari ham shod bo'ladi.

INSHO YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA YORDAM BERADIGAN TOPSHIRIQLAR

Quyida o'quvchilar tomonidan yaratilgan matnlardan ayrim namunalar keltirildi. Bu matnlar 5-15 daqiqa oralig'ida dars boshlanishida tuzilgan.¹⁷

TAYANCH SO'ZLAR ASOSIDA TUZILGAN MATN

Tayanch so'zlar: *sharshara, 1-para, Prezident, jazirama, mukofot.*

*Yoz. **Jazirama** kunlar boshlangan. Ammo sharqiroq soylar, **sharshara** salqini jazirama hovurini bosayotganday go'yo. Shunday paytda kollejda dars boshlandi. **Birinchi para** – huquqshunoslik darsi. Bu darsda o'qituvchimiz bilan **Prezidentimiz** tomonidan ta'sis etilgan **mukofotlar** haqida gaplashdik. Bu mukofotlarni qo'lga kiritish uchun respublikamizda barcha imkoniyatlar mavjud. Shu kundan boshlab barchamiz Prezident mukofotlarini qo'lga kiritish uchun intilishga, tinmay mehnat qilib, yaxshi o'qishga harakat qila boshladik.*

TOPISHMOQLAR ASOSIDA TUZILGAN MATN

Mazkur topshiriqdagi topishmoqlarni javob so'zlarga almashtirib, matnni qayta tuzish ham mumkin.

*Kechasi bilan yomg'ir quyib chiqdi. Tongda tuman qoplangan olam uzra **oltin sandiq ochildi, olamga nur sochildi**. Yomg'ir suvlariga bag'ri to'lib qolgan **pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni borlar dala uzra yashnab turar, yer tagida oltin qoziq, u hammaga bo'lar oziqlar** esa tuproqqa singib ketgan yomg'ir suvlaridan bahramand, ammo jaladan oldingi ko'tarilgan to's-to'polondan bexabar yotar edi. Kechagi yomg'irdan keyin **o'yib oldim, o'rni yo'q ariq'-u anhorlarning qirg'oqlaridan toshib chiqib ketgudek bo'lib***

¹⁷ Topshiriqlar Chilonzor pedagogika kolleji o'quvchilari tomonidan bajarilgan.

to'ldinlanib oqar edi. Kecha kun bo'yi osmonni qoplagan **katta chelak teshildi, undan ko'p suv to'kildilar orasidan yorug' kunni boshlaydi, undan borliq yashnaydi ba'zi-ba'zida nurin sochib, olamga iliqlik taratar edi. Lekin ko'proq qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar** daraxtlarning qizg'ish, sariq barglarini u yoqdan bu yoqqa uchirar, mevalarini esa yerga uzib tushirar edi.

JONSIZ NARSAGA YOZILGAN MAKTUB

Gullarga maktub

Salom, mening har uyga borganda ko'zimni quvnatadigan, uyimizga o'zgacha ko'rk, yashillik taratib turgan, sog'ligimiz tayanchi bo'lgan mening aziz anvoyi gullarim! Hozirda sizdan ancha yiroqdaman. Sizlarni yana chiroyli bo'lib ochilib turganingizni esladim-u, sizlarga maktub yozishga kirishdim. Gullar, bilasizmi, men sizlarga o'xshagim keladi. Nega, deysizmi? Sababi, sizlarning chiroyingizdan barchaning bahri-dilini ochiladi, hech kimga ziyon-zahmatingiz tegmaydi. Umringiz davomida faqat insonlar uchun beminnat xizmat qilasiz. To'g'ri, sizlarning ichingizda tikanakli yoki umuman gullamaydiganlari ham bor. Lekin ular ham foydali – insonlar uchun kislorod manbaidir. Ha, sizlar doimo biz insonlar uchun keraksiz! Yozib turibman-u, sizlarga nisbatan ba'zan nohaqlik qilganimni, vaqtida suv, o'g'itingizni bermagan paytlarimni esladim. O'z-o'zimga so'z berdim: bundan keyin sizlarga o'zgacha mehr beraman, bundan ham yaxshiroq parvarish qilaman!

MAQOL ISHTIROK ETGAN MATN

Xalq orasida shunday maqol mavjud: **Qarisi bor uyni parisi bor.** Nigoralar buvisi bilan yashashadi. Nigora asli yomon qiz emas-u, ichida gap turmaydi, o'ylamay gapirib qo'yadi. Buvisi unga ko'p nasihat qiladi: -Qizim, **o'ynab gapirsang ham o'ylab gapir**, har gapni ham aytib yuborish yaramaydi. Aytmoqchi bo'lgan gaplaringni avval o'ylab, keyin tilga chiqar. **Avval o'yla keyin so'yla** deganlaridek, har gapda **yetti o'lchab bir kesish** zarur. Yolg'on so'zlama, buni odat qilma, **boshingga qilich kelsa ham rost so'zla** – shuni odat qilgin. **Vaqt g'animat**, uni to'g'ri taqsimlashni bilgin. Axir aytishadi-ku,

“yo‘qolgan oltin topilar, yo‘qolgan vaqt topilmas” deb. Shuning uchun ham bo‘sh vaqt qoldirma, kitoblar o‘qi, oyingga yordam ber, shunda o‘ylagan niyatingga erishib, yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayasan.

RAQAMLAR ISHTIROKIDAGI MATN

Mubina va Muslima

Mubina aqlli, ziyrak va odobli qiz. U **ikki** uy narida turadigan qo‘shnimiz Dilfuza opaning qizi bo‘lsa-da, menga singlimdek bo‘lib qolgan. U **yetti** yoshda bo‘lishiga qaramay **besht** yoshli ukasi Javohirbekka yozish-chizishni o‘rgatadi. U o‘qituvchisidan bugun dars davomida o‘rganib kelganlarini shu kuni ukasiga bitta ham qoldirmay o‘rgatadi.

Mubina **ikkinchi** singlim Muslima bilan yaqin dugona ham sinfdosh bo‘ladi. Bu **ikki** o‘rtoqning fe‘l-atvori ham **bir** tomchi suvdek o‘xshash. Yurishi, turishi, gapirishi, kiyinishi xuddi egizaklardek. Lekin shunisi yomonki, Ali desang, Vali deyishadi, **bitta** savolga o‘nta javob beradiganlardan. Juda sersavol, hamma narsaga qiziqishadi. **Bitta** savolidan to‘liq qoniqmagunlaricha so‘rashdan to‘xtashmaydi. Yana o‘xshash tomoni shundaki, hatto tug‘ilgan sanalari ham bir xil: **2009-yil 16-dekabr**.

Mana **ikki** yildan buyon qishning o‘n **oltinchi** kunida bu ikki dugonaning quvonchiga o‘rtoqlari ham sherik bo‘lishmoqda. Ular **213**-maktabning 2-sinfida, bitta sinfda o‘qishadi. Bilimga chanqoq, harakatchan, intiluvchan bo‘lishgani sababli 6 yoshdanoq maktabga borishgan. Mubina va Muslima bir yildayoq sinfning yetakchi o‘quvchilariga aylanib olishdi. Hozirda esa sinfning a‘lochi o‘quvchilari **besht**aligidan birinchi va ikkinchi o‘rinlarni band qilib turishibdi. Har doim besh baho olib, uka-singillariga o‘rnak bo‘lishga harakat qilishmoqda.